

MANZAR ABDULXAYR

K U Z A K

She'rlar



“Yashil yaproq nashriyoti”

Toshkent – 2024

UO‘K 821.512.133-1

KBK 84(5Ў)-5

M 24

Abdulgʻayr, Manzar

Kuzak. Sheʼrlar. M. Abdulgʻayr. – Toshkent: “Yashil yaproq nashriyoti” MChJ, 2024-y. – 390 b.

Sheʼriyat ixlosmandlari Manzar Abdulgʻayrni yaxshi tanishadi. Shu paytgacha uning “Sohil ohanglari”, “Moviy ufq”, “Soʻz ruhi”, “Taammul”, “Soʻz sari, Soʻzing sari” kitoblari chop etilgan.

Ushbu kitobdan shoirning soʻnggi yillarda yozgan ijod namunalari oʻrin olgan. Ularda inson tabiati, kuz va ruhiyat manzaralari tarannum etiladi. Kitob barchangizga manzur boʻladi, degan umiddamiz.

ISBN 978-9910-9220-9-1

© Manzar Abdulgʻayr, 2024.

© “Yashil yaproq nashriyoti” MChJ, 2024.



* * *

*Ketar dildagi darmon,
Kuzak bargsiz qolganday.
Axir suyanchim armon,
U siz yasharman qanday?..*

*Daraxt kaftday yalang‘och,
Atay qishni kutadi.
Dilim bechora og‘och,
Nochor ishqqa cho‘madi...*

*Diloynamda muzparcha,
Ishq xanjarin chivg‘ini.
Qalbga yodgor debocha,
Nahot hijron izg‘ini?!*

* * *

*Bulutlarning karvoni og‘ir,
Samo bo‘ylab kezar erinmay.
Yog‘a boshlar daf‘atan yomg‘ir,
Bulutlar yosh to‘kadi tinmay.*

*Simob kabi qalb qalqar hamon,
Xayol bilan teranlik basta.
G‘am talpinar go‘yo biz tomon,
Nahot ko‘ngil davosiz, xasta?!*

*Kezgim kelar yomg‘ir ostida,
O‘yga tolib yalang bosh bilan.
G‘amboda bu havoday xasta,
Ko‘zlarim ham to‘lar yosh bilan.*



EY SHAMOL, KEL, AVVAL KUZAK SHARHIN QIL

* * *

Salqin tushdi chorbog‘larga ham,
Yoz o‘rnini olar kuz fasli.
Daraxtlarning qaddi bo‘lar xam,
Shunday ular qismati asli.

Larzon-larzon mevalar bilan,
Yoz bemador to‘kildi hayron.
“Kuzak!” degan shevalar bilan,
Mahv etadi bog‘larni xazon.

* * *

Xazon lashkarini boshlab keldi kuz,
Bog‘larni zabt etdi xazon lashkari.
Keng adirlar bo‘ylab shitob yeldi kuz,
Hatto oshib o‘tdi tog‘lardan nari.

Bog‘lar o‘z taqdirin topshirdi kuzga,
Dalalar daf’atan bo‘ldilar taslim.
Izg‘irin o‘xshaydi misoli muzga,
Kuzning havosiga moslashar aslim.

Dunyoda azaldan muqaddas tartib,
Tun ortidan tongu azon keladi.
Sunbuladan kuzning shiddati ortib,
Yurtimizga fasli xazon keladi.



Xazon lashkarini boshlab keldi kuz,
Bog'larni zabt etdi xazon lashkari.
Keng adirlar bo'ylab shitob eldi kuz,
Hatto oshib o'tdi tog'lardan nari.

* * *

Sunbula suvlari tiniq shovullar
Kuz fasli, bir taskin istaydi ko'ngil.
Za'faron bog'u rog' go'yo lovullar,
Yuksak-yuksaklarga qistaydi ko'ngil.

Tortaverar sabr, ruhni yupatib,
Singan qadah kabi ko'ngil betoqat.
Qushlar charx uradi boz chuvalashib,
O'zgacha shiddatu o'zgacha toqat.

Jovdirab qaraysan falakka nogoh,
Daf'atan tilaysan madad va imdod.
Va lekin madaddan nishon yo'q, evoh,
Olamni titratar faryod bilan dod!



* * *

Daraxtlar g'ichirlar asabiy,
Barglari titraydi jon qadar.
Kuz shomi cho'kadi shivirlab,
Kuz kabi ko'ngil ham darbadar.

Kuzakka bog'lanar yuragim,
Ko'rinmas rishtaday abadiy.
To'zg'igan sochlari kuzning ham,
Yuragi xastahol men kabi.

Daraxtlar g'ichirlar asabiy,
Barglari titraydi jon qadar.
Kuz shomi cho'kadi shivirlab,
Kuz kabi ko'ngil ham darbadar.

Kuzgi bog'lar ko'rki o'zgacha,
Tog'larda ham o'zgacha viqor.
Go'yo tog'lar cho'qqisi uzra
Chorlayotir bizlarni bahor.



* * *

Kuz g'amgin shivirlar behuzur
Yuraklarda hasrat ortadi.
Yomg'irlarda yaproqlar oqur,
Hazin bog'lar ham oh tortadi.

Kuz oynasin arturman asta,
Gohi gado, gohida shohman.
Men hamdardman kuzakka xasta,
Men kuz bilan do'stu hamrohman.

* * *

Shamol qo'zg'ar atrofni,
To'rt tomonga qum sochib.
Yelkalab chang-to'zonni,
Qancha sirlarni ochib.

Tebranar dov-daraxtlar,
Barglarin qilib sadqa.
Toriqar olam besar,
Gardin sochib tuproqqa.

To'rt taraf g'ubor to'la,
G'ubor to'la dillar ham.
G'aflat bosib bir yo'la,
Dong qotgan xayollar ham.



* * *

Marvarid donasiday
Turibdi kuz tomchisi.
Kuzaklarning bag‘riday
Chirsillar ko‘k yog‘dusi.

Shoshilmagin, ey malak,
Holim so‘rab kel endi!
O‘lkamizda kuz halak
Uning qadrin bil endi.

G‘aroyib kunduzlari,
Za‘farondir chor taraf.
Muanbar kechalari,
Kuz lashkari tortar saf.

* * *

Derazalar ochiladi lang,
Kirib kelar bir quchoq shamol,
Peshvoz chiqdim yuragim yalang,
Nasib go‘yo visol barkamol.

Mayli, nasib etmasin aslo,
Mast qilmasin visol barkamol.
Jannat yeli singari a‘lo
Ba‘zan yo‘qlab kelsa bas shamol.



* * *

Havo sokinlashar ko‘ngilga botib,
Ichkarida oqar daryo shovqinsiz.
Musofir singari yo‘lin yo‘qotib,
Tashqarida muzlar kuzak ham unsiz.

Go‘yo muz asrining suroni kelar,
Kuzda ham bemavrid qorlar yog‘adi.
Og‘ib borar hatto tabiat besar,
Odam-ku o‘zgargan, vahshatnok yodi.

Yobondan qushlarning uyuri ko‘char,
Faqat xo‘rsinasan yig‘isiz bunda.
Tog‘lar ham ba’zida ichdan toriqar,
Ularni ham go‘yo kutganday kunda.



* * *

Uzoqdan ko‘z tutdim kuzakka,
Yonimda bir qushcha bo‘zladi.
O‘ziday hasratli yurakka,
Taskinu tasalli so‘zladi.

Bu kuz ham ruhimga chirmashar,
Ergashar ortimdan xazonlar.
Kuzakka g‘amginlik yarashar,
Kun bo‘yi, tun bo‘yi, azonlar.

Shu qadar g‘amginman yo‘lingda,
Turibman sobit bir ahd bilan.
Taqdirim, yor sening qo‘lingda,
Payvasta qilgaysan baxt bilan.



* * *

Qop-qaro tunlarning ichinda nihon:
Oq sirlar sargardon shu qarolikda.
Ruhimning qatida payhondir paymon,
Najot qayda ayting, bu ayroliqda?!

Ayroliq tig‘lari qilsa bag‘ring xun,
Nechun shu tavrda topkungdir panoh?
Tun kadar chodirin yoyadir gulgun,
Gizli sukunatning yupanchi, evoh!

Qorayib ko‘rinur dog‘li paymona,
Ufqlar yonadi ko‘tarib gulxan.
Besamar yo‘llarda poyi piyoda,
Xayoling kechasin izlab yuribman...



* * *

Shom tushmoqda – kecha ham yaqin,
Tashvishlari kunduzning unut.
Shamol kuylar qadim ertagin,
Yoqavayron kezadi bulut.

Chevar kabi samovotda oy,
Tikib bo‘ldi chodirin tunning.
Vo darig‘ki, yana holi voy,
Men singari yuragi xunning.

Nahot to‘g‘ri bo‘lsa gumonlar,
Nahot qaytmas u uchqur malak?
Zulmat ichra cheksiz osmonlar,
Zulmat ichra ko‘nglim ham halak.

Oy shom edi, yurakni hasrat,
Chorasizman, chorasiz, erkam.
Bu qandayin hasratli kasrat,
Beparvo oy odimlar ko‘rkam.



* * *

Shamol garchi uvullar,
Lekin ko'ngilda sukut.
Dunyo daf'atan gullar,
To'kilsang misli bulut.

Kecha tongacha timrang,
Hilpirar terak chunon,
Betoqat oy ham garang,
Rangi o'chgan tund osmon.

U nimadir, bilmadim,
Hatto, tuman ham emas.
Aslo pisand qilmadim,
Beparvoman basma-bas.

Shivirlaydi daraxtzor,
Dilda sirlarim uqib,
Ko'nglim mudom intizor
Turfa ash'orlar to'qib.



* * *

Qaqshatar ruhimni turfa hayratlar,
Nahot, singib ketdim kuzning bag‘riga?!
Behuda shijoat, barcha g‘ayratlar,
Go‘yo yo‘liqqanday taqdir qahriga.

Jonga oro berar kuzak bemajol,
Xazonlar singari yuragim pora.
Oqargan sochlarni siypalab shamol.
Tasalli va taskin bo‘lsa der zora.

* * *

Yomg‘irli tun daraxtlar mudrar,
Ingrar kuzak sarig‘og‘rig‘day.
Xazonlarni kuz yeli sudrar,
Hazin ko‘ylar misli to‘rg‘ayday.

Totli bir zavq – yomg‘irli har kun,
Xoh kechadir, xoh kunduzdir, yor.
Yuragimni hasrat qilgan xun,
Kuz navosi qilar baxtiyor.

Xayollardan bog‘layman qanot,
Nainki boz ko‘kka ucharman;
Hasratlarning yukidan ozod,
Lochin kabi ko‘kni qucharman.



* * *

Yana ko‘nglim ichra ming armon,
Armon bag‘rim, armon suyanchim.
Lekin yana bu fasli xazon
Fasli xazon bo‘ldi tayanchim.

Bog‘lar ichra kezarman masrur,
Bog‘lar dardu g‘amimga hamdard.
Yuragimga yog‘iladi nur,
Do‘st topmadim kuz kabi jo‘mard.

Dardu g‘amim baridan ogoh,
Kuz, xasta bu dilimga malham.
Evoh, menga qo‘shilib nogoh,
Ko‘z yosh to‘ka boshlaydi kuz ham.



* * *

Bir g'arib ko'rinar bu bog'ot,
Bulbullar barobar zog' ila.
To'lin oy rom qilar bizni bot,
Hattoki yuzida dog' ila.

Yuragim to'rida bir armon,
Jon munavvar shu tun yulduzday.
Tun ellari ehtimol hayron,
Bu tun ichra yorug' kunduzday.

Men ketarman ammo bir kuni,
Chaqinlar har bahor porlaydi.
Majnun kabi Layli maftuni,
Visoliga mudom chorlaydi.

Olam ichra qiyomat qadar,
Visol bilan hijron payvasta.
Yuraklarda quvonchu kadar,
Dardu hasrat bilan orasta.



* * *

Izg'iydi shamolday xayollar,
Lahzalar go'yoki lahcha cho'g'.
Qismatim goh yonish, goh xonish,
Yurakka qadalgan armon-tig'.

Kuzak bir mahzunlik pallasi,
Sarg'argan yaprog'im, kelaqol.
Tinmas hech shamolning yallasi,
Har onim kechmog'i bir mahol.

Hasratu sog'inching zo'r onim,
Qiynalar ruhu tan sensizin.
Visolu hijron ham qadarim,
Faqat ruh tentirar betizgin.



* * *

Derazamning ortida kuzak,
Yupun kulba uylarga boqar.
Loy ichida chuvalchang halak,
Nochorlikdan bazo‘r to‘lg‘onar.

To‘lg‘onadi yurak begumon,
Soylarida sel oqar azal.
Kuzda hijron yondirar yomon,
Go‘yo g‘amdan yaralgan g‘azal.

Umrin o‘tib fanoga yaqin,
Kechmish kuyin asrorin tuydim.
Ruhim yana yuksalar tag‘in,
Ishq o‘tida bearmon kuydim.

Sog‘inchlarga to‘lar yurak ham,
Shirin visol damlarni eslab.
Nahot sog‘inch ko‘ngilga malham?
Nahot armon bilan yayrar qalb?!



* * *

Kuz, muncha maftunkor har bir yaprog‘ing,
Naqadar shiviring otashin, teran.
Juda tarovatli za‘faron chog‘ing,
Qalbim quvontirar go‘yo mard eran.

Men kechdim har oniy farog‘atdan ham,
Lekin mendan kuzak kechmadi aslo.
Kechdi umrim g‘arib g‘am ichra hamdam,
Sirli jumboqlarni yechmadi aslo.

* * *

Xayolot otiga yana mindim men,
Yana yuragimni chulg‘aydir kasrat.
Yurak tashqariga otilar betin,
Oshkoro shodlikka payvasta hasrat.

Daraxtlar mung‘ayar o‘zgacha tarzi,
Ochiq derazadan kirar qor kuyi.
Shamollar – bandalar Tangriga arzi,
Bu dunyo barchaning besh kunlik uyi.

Yurak tashqariga otilar betin,
Tinim bilmay ana hansirar besas.
Bag‘rimni xun qilar qadimiy tutun,
Nogoh savdolarga boqaman ma’yus.



Qor uchqunlari ham shodlik ulashar,
Ochilar nahot baxtning raxtlari?
Bog‘ning chiroyiga juda yarashar,
Bog‘ning qad rostlagan bor daraxtlari.

Daf’atan mast qilar qorning ifori,
Yuragim tark etar go‘yo bor armon.
Juda ham qadrdon qishning diydori,
Go‘yo bo‘lar barcha dardlarga darmon.



* * *

Kuzak sovug‘i izg‘ir,
Sanchig‘i igna yanglig‘.
Ufq chizg‘ini sirqir,
Cho‘zilgan xayol chog‘lig‘.

Yomg‘ir yog‘ar muttasil,
Suyanaman daraxtga.
Havoda yomg‘ir chil-chil,
Qachon yetarman baxtga?!

Bag‘rim o‘rtar dardu g‘am,
Bedavo bir dard kabi.
Qaddim hech bo‘lmasin xam,
Yashay men ham mard kabi.

Kuzak sovug‘i izg‘ir,
Sanchig‘i igna yanglig‘.
Ufq chizg‘ini sirqir,
Cho‘zilgan xayol chog‘lig‘.



* * *

Bag‘rim turfa savdolar siqar,
O‘rtanadi bag‘rim bu sana.
Najot istab tashqari chiqar,
Ma’yus ruh ham izlab boshpana.

Goho mag‘rur, goho parishon,
Fasli xazon, za’faron kuzak.
Goh xo‘rsinar, gohida hayron,
Armon chirog‘iday bu yurak.

* * *

Kuzak shamollari izg‘ir sarosar,
Jonga igna yanglig‘ sanchilar muncha.
Qovog‘i osilmish ko‘kning ham besar,
Xazon bog‘ ichra bor gulu bor g‘uncha.

Yomg‘ir ham savalar muttasil, nochor,
Daraxtdan tilayman daf‘atan panoh.
Keng dunyo toraygan bamisoli g‘or,
O‘zing bandalarga rahm qil, Alloh!

Kech kuzak bag‘rida g‘amga payvasta,
Mening ham bistarim g‘am bilan to‘ldi.
Qancha umidlarim g‘oyat orasta,
Kuz gullari bilan, oh, xazon bo‘ldi.



Kuzak shamollari izgʻir sarosar,
Jonga igna yangligʻ sanchilar muncha.
Qovogʻi osilmish koʻkning ham besar,
Xazon bogʻ ichra bor gulu bor gʻuncha.

* * *

Kech kuz hazin xazonlarida,
Uchib borar ruhim qush kabi.
Baxtu saodatdan narida,
Umrin oʻtar sirli tush kabi.

Uzun tunlar xayol nur kechar,
Kecha boʻyi taralar uzun.
Ming muammo, jumboqni yechar,
Barchasini hal qilar fuzun.

O, kuzakning gizli sirlari,
Koʻksing ichra sirlilik solar.
Ona yurtim qir-adirlari,
Xayolimni dafʻatan olar.

Kech kuz hazin xazonlarida,
Uchib borar ruhim qush kabi.
Baxtu saodatdan narida,
Umrin oʻtar sirli tush kabi.



* * *

Derazadan qarar bir juvon,
Tashqarida izillar shamol.
Shitob bilan izg'ir chang-to'zon,
Uy ichinda hasrat bemajol.

Musichaday qunishar buncha,
Sovib qolgan shu qadar jism.
O'tkinchilar bepisand bunda,
Rahm-shafqat qilmas allakim.

Borgan sayin sukut cho'zilar,
O'rtada bir jimlik hukmron.
Hukm o'qilgan, sevgisiz o'ylar,
Muzlagan dil kulbasi hayron.

* * *

Daraxtlarning bag'ri ham pora,
Topib bo'lmas ulardan taskin.
Dardlarimga yo'q aslo chora,
Aftoda-yu, miskinman-miskin.

Unutib bor olamni go'yo,
Asriy hasratlarga yo'liqdim.
Yuragimni qon qilar ro'yo,
Dardu hasrat bilan to'liqdim.



Dardlaringa axtarib chora,
Bir chinorga yolvordim men zor.
Bilsam, uning bag'ri ham pora,
U ham menday zoru intizor.



* * *

Adashagan tuyg'ular tentirar,
Yo'l yo'qotgan musofir ular.
Yo'l yo'qotar musofir tunda,
Alam bilan yurakday titrar.

Tun bag'riga og'ar sukunat,
Og'gan kabi qalbimda armon.
Bir armondir g'avri muhabbat,
Mushkul juda tavri beomon.

O'chib borar dildagi armon,
Baxtu iqbol u bilan birga.
Faqat qolgan undan bir vayron,
Bir vayrona, payvasta sirga.

* * *

Tus olmoqqa ko'ngil temtinar,
Hech tassali bermas hech narsa.
Najot istab vujudan chiqar,
Ma'yus ruh ham izlab boshpana...

Mag'rur emish, goho parishon
Sarg'ayishga moyil bu kuzak.
Goh xo'rsinar, gohida hayron,
Armon chirog'iday bu yurak...



* * *

Namxush havo ichra zich tuman,
Soy ichinda soqov borliqcha.
Bunda oy ham yotar yuztuban,
Sukut bag‘ri jarangdor muncha.

Gul gashtiday yetaklar g‘ussa,
Shipillaydi shamol oyog‘i.
Ichkarida sukunat qissa,
Tashqarida sitam adog‘i.

Nima bo‘ldi, qotibsan bunda,
Tosh qotganday o‘zgarmas ro‘ying?!
Muhabbatdan o‘sib yuksakda –
Havolarda yuksalmas ko‘ying?!

Kechagina eding baxtiyor,
Nigohingda balqirdi oy ham.
Bugun esa ruhsizsan bisyor,
Egilmas bosh topibdi barham?!

“Nima bo‘ldi, o‘zi nima gap”,
Yurak dog‘ing tugamaydi hech?
Tugab borar bardoshing ham zap,
Kech bu alam, hasratlardan kech!



* * *

Sovuq chorbog‘larni chetlab o‘tmadi,
Gulxan yonar mudom tun o‘rdasida.
Xayolimdan sening fikring ketmadi,
Hasratli zim-ziyo tun o‘rtasida.

Ruhimni qayirar g‘ayyur savollar,
Muzday toqatlarim bo‘lar chilparchin.
Lek yurak ichinda bir yor shivirlar:
Toriqma hijrondan, alamni qo‘ygin!

Qara, sovuq ustun, sovuq alomat,
Soqov sukunatdir cho‘kkan yurakka!
Kiftingga olibsan ming bir malomat,
Nahotki, chidarsan bariga yakka?!

Yupun kulba uylar – o‘ylar yupundir,
Buzilgan xotirga nahot sen kerak?..
Qahhor qismatlardan iching bo‘zlaydir –
Muzlagan tanangda alanga yurak!



* * *

Shom qoshida egiladi bosh,
Yulduz kabi porlaydi bir ruh.
Singib ketgan tun ichra quyosh,
Samolarni kezgaydir anduh.

U kezlarning tafti boshqacha,
Qiyosi yo‘q onlar dupurlab.
G‘azab to‘la ichi shaytoncha,
Bo‘lmas uni sira sehrlab.

Sangtaroshlar tilar tosh bag‘rin,
Tosh ko‘ngilga kor qilmas hech g‘am.
Shaxsiyatni qidirib tag‘in,
Shoir so‘zin qiladi purg‘am.

Tilim loldir bir so‘z aytolmay,
Bor umr ham tugab bormoqda.
Qoshimizga mudom yetolmay
Hamdamlar-da bo‘zlar yiroqda.



* * *

Yarim kecha kezar sukunat,
Yurak ichra armonlar solib.
Quvonchimni o'g'irlar hasrat,
Yana hasrat ko'nglimda g'olib.

Nima qilay yuragim o'rlab,
Mahzunlik-da ichirar qonim.
Qidiraman daf'atan bo'zlab,
O'rtanadi dard bilan jonim.

Yarim kecha kezar sukunat,
Yurak ichra armonlar solib.
Quvonchimni o'g'irlar hasrat,
Yana hasrat ko'nglimda g'olib.

* * *

Mungday yuragimning soyasin ko'rdim,
Turibdi mung'ayib sarosar mahkum.
Beadad dardlarim doyasini ko'rdim,
Ming bitta dard bilan o'rtangan mardum.

G'am faslida o'sib aylandi qorga –
Chayqalib, chirpanib uchdi yaxmalak.
Qishki bezovtalik yotdir viqorga,
Sovuq mehrlarga bo'ldi charxpalak.



Haqiqat, sog'indim qattiq men seni –
Afif bo'ylaringni qalbim bo'ylasin,
Malham bo'lsin barcha dardimga meni,
Barcha dardlarimni ravon so'ylasin.

* * *

She'r yozgim keladi kuzga o'ranib,
Bir so'zim bo'g'zimda qamalgan go'yo.
Samoga qarayman nogoh o'rtanib,
Nigohim o'ngida notanish ro'yo.

Xilvatda to'kilgan bag'rimga kulib,
Goho hushtak chalar kuzning shamoli.
Qahr bilan hatto zog'lar ham to'lib,
Hech bitta qolipga sig'mas a'moli.

Uchar xayollar ham tutqich bermas hech,
Faqat o'chmas dildan kadar hech bir on.
Oshufta yuragim har tongu har kech,
Ilhomni chorlaydi, ilhomni giryon!



* * *

Sirli xayolotday kuz jilva qilar,
Akslanar zarrada kuzning siyrati.
Xazonlar lashkari ko'kka intilar.
Lolu hayron qilar ular g'ayrati.

Mavjlanar ufqda nurlar bo'zarib
Sina boshlar hatto fano shomiday.
Go'yo hech bir narsa bo'lmagan bo'lib,
Yo'qlik nasimlari esar paydar-pay...

Yuksakda bulutlar parday sarosar,
Qurib chanqab yotar cho'lda ekinlar.
Go'yoki hayotdan yo'q aslo asar,
Faqat malomatu kadar va kinlar...

O, qayg'uning hidi taralar bunda,
O'ylaringa yetmay mast-alast men ham.
Maxfiylik rishtasi uzilar kunda,
Daf'atan unutding hattoki sen ham.

Sarhisob qiladi kuzak barchasin,
Surina-surina ruh ham toliqib...
Kattaroq ochar u qishning darchasin,
Qishga yo'l beradi mudom joniqib.



* * *

Chiroy zulmatga to‘la,
Usiz hayotim bo‘m-bo‘sh.
Yasharman unga tashna,
Yorug‘ jahonim bir tush.

Bog‘da gul ham titraydi,
Ortar botinda hijron,
Kuz kelmasdan sarg‘aydi,
Hazin bir sas hukmron.

Kuzak hukmron bu kech,
Xonam g‘amxona bugun.
Qancha urinmasam hech,
Yechilmas asriy tugun.



* * *

Gezaradi yaproqday labing,
Shamol silar sochingni mayin,
Lek og'riydi shunda ham qalbing,
Hijron tayin oladi haqin.

Kuz bardoshni sinashi aniq,
Istar bog'lar tariyqi vusul.
Ariqlarda suv oqar tiniq,
Loyqalaydi ko'ngilni usul.

Chora istab yaproq chorasiz,
Oxir bosmish labin kuzakka.
Qara, qancha nochor hisobsiz?
Kuz sarhisob qiladi bunda...



* * *

G'amgin oqar daryo ohista,
Saslaridan bo'larman behol.
Hasratangez yuragim xasta,
Sarmast qilar bir ajib xayol.

Daryo bo'lib yuragim oqar,
Daryo kabi toshadi go'yo.
Olam lolu va hayron boqar,
Nazdida bu sirli bir ro'yo.

Taskin istar yuragim, taskin,
Yana sensiz qoldim men yakka.
Dardi hijron shafqatsiz, miskin
Yana orom bermas yurakka.

* * *

Tush ko'rdim men yana kuzak izmida,
G'amning hasratiga to'ldim kuz kabi.
Sog'inch ichra yondim xazonvor tunda,
Yuragim uzramish kuzning yaprog'i.

Sarg'aygan bog'larda yuksalmish ruhim,
Go'yo shu bir ko'ngil kuz qadar cheksiz.
Yolg'izman, dedim-u, dilimni tildim,
Axir, kuzakkinam men bilan so'zsiz...



* * *

To'kilish onida daraxtlar mahzun,
Kech kirar sirlarin ichiga yutib.
Kuzak parchalari yer uza beun,
Sachraydi xazonlar yurakka yetib.

Kuz goho tun kabi yashirin belanchak,
Tebranish chog'ida un olar qasdin,
Soyalar izg'iydi sassiz va berang,
Bosgan izlarini chaplaydi betin.

Qaraysan atrofga, kuz yopriladi,
Chor taraf anduhlar sochilar boshsiz,
Shu oddiy haqiqat ko'k taraf o'sdi,
Yer sari ko'ngilni cho'ktirib tafti...

Tin olar ko'z ichra besar qorachiq,
Lek yurak beayov tekis ishlaydi,
Qandayin ayanch bu, nahot chora yo'q?!
To'xtasa, barchasi zimdan to'xtaydi...

Kuz hamon kengliklar sari bir chovush,
Ming shitob yurakning asir qa'rida.
Istar iztiroblar yangi ko'rinish,
Osonmas yaralish yara qalblarda...



* * *

Sovuq qarar kuzning nigohi,
Ko‘nglim istar jallod ko‘zimdan.
Vujudimni kuydirar mohi,
Bu o‘ch tig‘i - xazonli tundan...

Yorug‘ erur boshpanam ancha,
Lek romlari tun kabi qaro.
Kechmishimdan kelgan bir parcha,
Derazamda osig‘lig‘, illo...

Shunday qolur bu sobit makon,
Kutaverib tugar toqati.
Ayting, kimlar o‘tmadi bir on,
Kuzak deya yanib sarsari...



* * *

Bilmadim, nima u ko'nglingga kelgan,
Hayqirgan daryolar xayoling buzar.
Xayollaring mudom yelgani-yelgan,
Aqlbovar qilmas rejalar tuzar.

Dunyoning zavqidan uzildim tamom,
Qayg'u va hasratlar bag'rim qon qilar.
O'rtangan yuragim juda beorom,
Dardu hasrat bilan chalajon qilar.

Xayolim parishon, boqaman befarq,
Samoga bo'y cho'zgan qator uylarga.
Hasratli o'ylarim qilmas aslo g'arq,
Daf'atan ulanar shodon kuylarga.



* * *

Umid shivirlaydi, aslo qo‘ymas tinch,
Azaliy haqiqat bo‘y cho‘zarmi hech?
Qaydasan, yuragim tark etgan sevinch,
Nahotki kech qoldim, yana qoldim kech?!

Ishq kunlari yurak qa‘riga botgan,
Go‘yo ortga qaytar yo‘lin yo‘qotgan.
Dahri dun so‘ramay jonimiz olar,
Gar ming bir javobsiz savollar qolar.

Gul kabi chiqarmiz vale ko‘karib,
Muzaffar ozodlik tug‘in ko‘tarib.
Ozodlik qadrini bilar ruhimiz,
Samolarga parvoz qilar ruhimiz.

* * *

Guvullar shamollar shitob-la betin,
Yupun kulba uylar kirar titroqqa.
Achchiq tajribalar takrori tayin,
Nochorlar chorasiz ketar yiroqqa.

Dunyo dunyoligin qilgani-qilgan,
Titraydi bo‘g‘zimda omonat kalom.
Shu kalom bag‘rimni tilgani-tilgan,
Shu kalom menga hech bermaydi orom.



* * *

Ey shamol, kel, avval kuzak sharhin qil,
So'ng yurak sharhini qilaylik birga.
Har rangin yaproqlar yurakday izchil,
Daf'atan do'nsinlar g'oyat kabirga.

Qandayin kezamiz yurak kengligin,
Qurbimiz yetarmi nahotki bizni?
Har ikki olamning g'oyat tengligin,
Qadrini kim bilar biz bosgan izni?..

Asli bir nuqtadir visol sharhi ham,
Shu nuqtada hijron yakun topadi.
Bag'oyat bepoyon mehr nahri ham,
Tashnalar shu nahr sari chopadi.



* * *

Kuzak shamollari zabtidan mahzun,
Xazonlar birma-bir yerga to‘kildi.
Yuragim qon qilib bu dardli huzn,
Vo darig‘, daf’atan bag‘rim so‘kildi.

Bog‘larda oh tortar g‘amboda bu kuz,
Go‘yo dardlariga axtarar chora.
Xasta yuragimga sepadi u tuz,
Xasta yuragimni qiladi pora.

Yalang‘och shoxlarin samoga cho‘zib,
Daraxtlar go‘yoki nola qiladi.
Bezovta xayolim yana ham buzib,
Mening bag‘rimni ham ular tiladi.

Dardu hasrat bilan payvasta bu kuz,
Hasrat bilan ko‘nglim to‘ldirdi yana.
Jarohatlarimga yana sepib tuz,
Evoh, umidlarim o‘ldirdi yana.





MUSAVVIR KUZ...

Titrar yaproq singari labing,
Shamol silar sochingni mayin,
Lek og‘riydi shunda ham qalbing,
Hijron haqin oladi tayin.

Kuz bardoshni sinashi aniq,
Istar bog‘lar tariyqi vusul.
Ariqlarda suv oqar tiniq,
Xira qilar ko‘ngilni usul.

Chora istab yaproq chorasiz,
Ixtiyorin kuzakka bermish.
Fasli xazon bisyor hisobsiz
Xazonlarni birma-bir termish.

Olam turfa ranglarga to‘ldi,
Musavvir kuz karomati bu.
Biz kutmagan ishlar ham bo‘ldi,
Umrimizning daromadi bu.

Og‘ir o‘ylar og‘ushida shod,
Mahliyoman sehriga kuzning.
Bog‘lar qo‘shiq kuylaydi dilshod,
To‘ymaganday mehriga kuzning.



* * *

Kech kirib bog'larga cho'kar sukunat,
Hammayoq jimjitdir qorong'u g'olib.
Daraxtlar shivirlar ma'yus betoqat
Ular ruhida ham ma'yuslik g'olib.

Oy ham tun bag'riga yashirib sirin
Suzib ketayotir chehrasi za'far.
Turli o'ylar chulg'ar tunning asirin,
Aslo tugamaydi go'yo bu safar,

Bu payhon maysaning xo'rsiniqlari
Ko'chadi daf'atan ko'nglimga sinig.
Daf'atan toshadir qayg'u toshqini,
Sunbula suvlari singari tiniq.





TASODIF GULI...

Mayin shivirlaring yorib ufqni,
Har So‘zing yurakka yetib kelmoqda.
Za‘far guli emas, tasodif guli –
Soyaday ortimdan shitob yelmoqda.

Bir pari hajrida yurak-bag‘rim qon,
Boshimda qor kabi yillar g‘ubori.
Umrin o‘tib borar va lekin hamon
Pari paykarning hech yo‘q e‘tibori.

* * *

To‘kilar kech kuzgi yaproqlar,
Uzilgan, toptalgan armondoy.
Alamdiyda xasta xayollar,
Dardu g‘amga ziyoda konday.

Daraxtlar titraydir, kech kuzdir,
Kechikkan orzular sargardon,
Ko‘k uzra bearmon uchadir,
Bulutlar bag‘rida goh suron.

Bir kuni alamlar yuzlashar,
Yuzma-yuz kuzakka surinib,
Yomg‘irda yaproqlar bo‘zlashar,
Shamol etagiga urinib.



Bag‘rimni qon qilar armonlar,
Yuragim dilxasta bo‘ladi.
Yomg‘irning ostida xazonlar,
Yer bilan payvasta bo‘ladi.

Kuzakka cho‘kadi ruh nuri,
Qadalar xazonlar nigohga.
Kuz go‘yo yuraging asosi
So‘nggi bir yaproqday asari...





SHAMOL QO'SHIG'I

Shamol qo'shig'ini boshlar ohista,
Ko'ngilni chorlaydi kuzakda dog'li.
Uzila boshlaydi – yaproqlar asta,
Falakda qarg'alar charx urar chog'li.

Dengizlar toshadi kuz bilan to'lib,
Hech narsa ko'ngilni ovutolmaydi.
Yaqin odaming ham yaqin do'st bo'lib,
Dardlashib bir nafas ko'ngling olmaydi.

Har narsa ikkilik izmida go'yo,
Ikkiga ajratib bo'lmaydi ishqni.
Ikki dil hamohang kuylagay, oyo,
Ishq degan yagona, yaxlit qo'shiqni.

Osuda va mahzun ayni kuz fasli,
Bag'ring o'rtamasin behuda savol.
Azaliy, abadiy bu hayot asli,
Ishq bois hech qachon bilmaydi zavol.



OQ VA QORA

Hayot ikkilikdan iborat,
Ikki rang bor deganlar haqdir.
Olam – juda ko‘hna imorat,
Oq va qora, qora va oqdir...

* * *

Shodon kunlaringda qumsab g‘ussani,
Tongni oqartirding kashf etib tunni.
Yuraging besabr g‘amlar chavaqlar,
Azal ko‘targanday borliq yukini.

Qandayin g‘ussa bu, qandayin armon,
Kun sayin chayqalib chog‘irday tomar?!
Tashvish to‘la bag‘ir emas shodumon –
Surinsa yurakka bir-bir kuzaklar...

Sensizlik ichra bir sinch ham chalindi,
Sinmasin qayg‘uning kosasi hech vaqt!
Kabir so‘zlar ruhni tutmasmu endi
Jimjitlik komiga to‘kilsak bevaqt?..



* * *

Daraxtlar sargʻarmish shundoq befusun,
Bahorim gullarin ichib sarbasar.
Bulturgi kuzlardan qolmabdir fusun,
Hattoki qolmabdi biron-bir asar.

Qara, qoʻllarimda turibdi xazon,
Yashil bogʻlarimni qilib poymol!
Dardu hasratlari xazonday larzon,
Ketibdi biz kutgan kuzlar bezavol.

Koʻngilzor tashvishi toshibdi soyday,
Jismim soʻqmoqlarin birma-bir kezib.
Qoshiga chorlaydi olis bir oyday,
Koʻnglimdagi bisyor armonni sezib.

Soʻzimni sizlabman tigʻlab bagʻrimni,
Bir uzmay gʻunchamni chimdibdi kuzak.
Umr deganlari achchiq iztirob,
Ruh ichra tentirar sado bedarak.



* * *

Kun botdi, bor olam sirga ko'mildi,
Ochildi kechaning bag'ri ham xasta.
Munavvar nurlarga samo cho'mildi,
Yana samovotu zamin payvasta.

Xastalik yurakka solganida band,
Bulutlar oralab oy bo'ldi hamdam.
Silday yurak ichra quyuldi bir dard,
Va lekin yorishdi ko'nglim dam-badam.

Tanholik hukmron tunlar bag'rida,
Ko'rdim yuragimning siniq parchasin.
Ko'rdim xayol yetmas osmon qa'rida,
Men uchun begona baxtning darchasin.



* * *

Kashf etar kuzak ham muztar dilimni,
Anglar xazonrezlar yurak tilini.
Xazondan o'rgandim xokisorlikni,
Afsus, osmon yuksaklikka chorladi...

Bir umr istagim sukutga cho'mish,
Go'zal botin ichra tin olsin yurak.
Balki, kerak emas unga uchqular,
Bag'riga quchguvchi xokisor kerak...

Jafolar tortganda ko'zlar torayar,
Zig'irday ko'rinar hatto quyosh ham.
Kuzning tunlarida uyqu ham qochar,
Lek yetmas yurakka o'zga bir hamdam.

O, qiyin yashamoq yo'lni yo'qotib,
Ulkan koinotda bir yulduz uchdi.
Yurak hijronzorda qoldi yutoqib,
Yurakka isyonkor yana ne kerakmi?..



* * *

Yot go'shada to'kildi hasrat,
To'kilgandek kuzning yaprog'i.
Hasrat to'la bag'rim-da kasrat,
Juda rangpar yodim bo'yog'i.

Kutaverib surindi toqat,
Surinmadi ko'ngil mehvari.
Kuzaklarda ranglandi daraxt,
Olamlarning sarg'aydi bari.

Chayqaladi ko'ngilda anduh –
Uning garchi hech poyoni yo'q,
Azoblarda chirpanadi ruh,
Dardlarimning hech bayoni yo'q.

* * *

Sog'indim hasratni daraxtga singib,
Ko'pchidi yuragim toshib daryoday,
Endi armon sig'mas kuzakka yetib,
Endi sevgi sarson uzilgan bargday...

Muyulishda kuz ham bebosh turibdi,
Intizor daraxtlar silkinar bunda.
Shafqatsiz ko'rinar barchasi endi,
Xo'rsinar shamol-da esib bir zumda...



* * *

Ma'yus uchar kuzgi yaproqlar,
Bir nimani sezganday go'yo.
Nimanidir yodga solarlar,
Asror bilan payvasta ro'yo.

Ko'k uzra xayollar mezoni,
Uzilgan orzuday har safar.
Yastanar bog'lar xazoni,
Za'faron desammi yo safsar.

Masofalar yiroqdan-yiroq,
Hech kim bilan hech kim ishi yo'q.
Odamlar ko'p, dardingni biroq,
Anglaydigan biron kishi yo'q.

* * *

Yuragingni erkalar shamol,
Talpinding yoz bo'yi cho'llarga.
Sen ham bo'lay deya barkamol,
Bel bog'lading og'ir yo'llarga.

Biroq omad kulib boqmadi,
Yuragingning kuygani qoldi.
Tuban dunyo aslo yoqmadi,
Qaylardadir g'oyib, yo'qoldi.



* * *

Tog' sirlanar bahor yelidan –
Giyohi ham sim-sim olar tus.
Yog'a boshlar yomg'ir ham birdan,
Shamoyili oqarar betus.

Lek qirlarning shovuri tinmas,
Tinsa hamki ko'nglimda g'ussa.
Dildagi tig' g'ussaday emas,
Asorati ortgan yuz hissa.

Sukunatdan o'sar sabotim,
Menga tinchlik bermaydi asli.
O, bu g'ussa hayot-mamotim,
Hayotimning kech kuzak fasli.



* * *

Kuzakning bagʻrida siqilar yurak,
Goʻyo TUZ sepilgan yalang bu jonga.
Gʻamboda hattoki TUZ oʻsgan terak,
TUZday achchiq dardi sigʻmas dostonga.

Xazonlar bagʻrida ingrab yotar KUZ,
Tuz bosgan qaro yer bilmaydi toʻzim.
Kuz daʻvat qiladi soʻzlagin deb TUZ,
Maʼnoli-TUZli boʻl, toʻgʻri-TUZ soʻzim.

Qayda TUZdan xoli mavj urgan makon,
Qayerda TUZ soʻzlar ulgʻaygan bedil?!
Nahot toʻgʻri-yu, Tuz boʻlmas bu jahon,
Nahot TUZ soʻzlarga aylanmaydi til?!



BOG'LARGA YANA BIR KUZ YETIB KELDI

* * *

Bizlar ham chiqqandik g'am tog'lariga,
Ranju alam chekib, chekib mashaqqat.
Bag'rimiz o'rtaqan g'am dog'lariga,
Malham topolmadik va lekin faqat.

Hasratlar osmonga yana o'rlaydi,
Unga yetay deysan mudom sog'inib.
Taqrir sira shafqat qilmay xo'rlaydi,
Go'yo g'anim tomon mudom og'inib.

Shamol, yetar, taskin bermagin ortiq,
Nihoyat bir sirni angladim, kechir.
Olib uhsin mayli kuzgacha tortiq,
Borlig'im daf'atan qamradi bir sir.

Kecha ham beyulduz yorishdi, nechun?
Buni faqat sezdi qalb ich-ichidan.
Qushlarning galasi uyg'ondi o'ychan,
Qalbm ohlarining cheksiz rangidan.

Tinchlanmoq og'irdir, g'amnishin yurak,
Bardosh ham yetmaydi, ko'rinmas hech zog',
Befarq tomoshabin bu ko'hna falak,
Yuragim o'rtaydi armonli ming dog'.



BULTURGI KUZ

Bulturgi kuzni sen eslaysan ma'yus,
Kuz karaxt mudrardi boshing tug'ida.
Tanbalab qo'ygansan sen uni maxsus,
Ishq ahli to hamon hali uyquda.

Mungzada dillarning hasrati tugar,
Kuz fasli xazonga isinding, nechun?
Holbuki, malhamdir dilga xazonlar,
Bexazon onlaring beishqdir bugun.

* * *

“G'amning hasratida to'ydim kuz kabi”,
Kuzning darsxonasin bezaydi hasrat.
Qandayin sinoat kuzning g'am tuni,
Xazonvor bog'lari ichikar faqat.

Bilmadim, kuz muncha ma'yus bu kunda,
Toldirar yurakni shunchalar g'arib.
Xiyonat ko'chasin tark etib bunda,
Vafoga burkanar, mudom sarg'ayib.

Oson emas kuzni ta'riflash lekin,
Za'faron kuz ertak faslidir go'yo.
Hijron tunlarin gar eslatar sekin,
Nogoh taslim qilar, evoh, bu ro'yo!



* * *

Yurakda ming bir dog‘ borday ko‘rinar,
Bu dog‘lar yurakdan ketmaydi nechun?
Kimlar maqsad sari mudom urinar,
Va lekin maqsadga yetmaydi nechun?

Orzular bezovta qiladi mudom,
Orzular mast qilar misoli sharob.
Orzu dema aslo aslo, ular asli dom,
Bizlarni tinch qo‘ymas aslo bu sarob.

* * *

Polaponday yurak beqaror,
Ortiq xayol tinchlantirmas hech.
Balki kelar mujdalar takror,
Harorat yo‘q gar guvullar pech.

Sarg‘ayadi kuz kabi daraxt,
Karaxt vujud, qahraton qani?
Bahorgacha yetarmi toqat?
Axtaraman har so‘zdan ma‘ni.

Dalalarda esar bir shamol,
Bog‘lar kezib tilanar mehr.
Xayolimda – dunyo barkamol,
Xayolimda – ziyoda sehr.



* * *

Shovullar shamollar betinim,
Bedazorni siypalab ulkan.
Dov-daraxtlar bilmaydi tinim,
Chayqaladi misoli yelkan.

Hansiraydi otash dalalar,
Go‘yo yetmas ularga nafas.
Keng olam ham bunday pallalar,
Ko‘rinadi misli tor qafas.

Qaylargadir qushlar ham g‘oyib,
Butun olam yetim qolganday.
Saraton taftidan g‘aroyib,
Jumla jahon juda tolganday.

Shovullar shamollar betinim,
Bedazorni siypalab ulkan.
Dov-daraxtlar bilmaydi tinim,
Chayqaladi misoli yelkan.



* * *

Kuz kelyapti xazonlarga to'yinib
G'amkosa butundir, o'lsa ham tuyg'u.
Yurakka tik boqar kuzak xo'rsinib,
Yulduzdan ham yiroq inson kamoli...

Qalbimiz torlarin chertib birma-bir,
Goh xazon ko'nglimiz bog'larin buzar.
Men seni o'zimdan asragan kabi
Xazon yuragimga sog'inchday botar...

* * *

O'tib ketdi tandan sovuq ham,
Lek harorat ko'ngilda pinhon.
Bo'rqsimoqda pechka, o'tin nam,
Kimlar dashtda beo'tin giryon.

Tovonimga tikan sanchildi,
Chirsillagan suv ichra muzday.
Yuragimni qahraton tildi,
Yalang bag'rim kuydirdi tuzday.

Sovub borar nabzim ham har on,
Xasta ruhim nechundir tetik.
To'rt tomonda izg'iydi bo'ron,
Nasib qilsa ne tong g'oliblik.



Sochilar kuz qirovi go‘yo
Naq aylanib tushar boshimga.
Toshday qattiq shamol ham ro‘yo,
Shivirlaydi nedir loshimga.

Jonga tekkan bor tavozelar,
Yurak ichra cho‘kkay nechun dard?
Jigar bag‘rim takror ezilar,
Hamdard topa olmayin jo‘mard.



* * *

Oy yuksakda kezar ohista,
Oy kezadi – bag‘rida dog‘i.
Odimlaydi kimsaday xasta,
Hasratlarin yo‘qday adog‘i.

Qaylardadir mudraydi quyosh,
Horg‘in-horg‘in oqadi daryo.
Osmon to‘la behisob bardosh,
Mastonamish yurak, yo Xudo!

Daraxtlarda uxlar bor qushlar,
Karaxt go‘yo toshqotgan terak.
Uchib yurar havoda tushlar,
Muzlaganday dardchil bu yurak.

Tutqun kabi o‘rtanar ko‘nglim,
O‘rtanadi mudom beorom.
Faqat ozod hamda hur ruhim
Yuksaklarda qiladi xirom.



* * *

Tun sochini oy tarar chog‘da
Ko‘zlarimga surinar hiddat.
Baxt kechasin qumsagan bog‘da
O‘yga cho‘mar xayolkash xilqat.

Bosur qayg‘u, zulmat chekinmas,
Yoyib cheksiz g‘ussa chodirin.
O‘y-xayollar kelar basma-bas,
Anglab bo‘lmas ularning sirin.

Maskanatga burkangan kecha,
Bosh egadur xayoliy bu tun.
Chorlaganda horg‘in ruh necha
Yoding bilan bo‘larman butun.



* * *

Qo'llarim barg ichra beshuur,
Daxlsiz kenglikka boqaman.
Xayolim ko'k uzra muntazir,
Hayot daryosida oqaman.

Kuz muncha ko'rinar betashvish,
Behisob daraxtlar jonsarak.
Titraydi vujudim go'yo qish,
Uzilgan yaproqlar charxpalak.

Uchratdim men seni nogahon,
Turibsan bemajol alamdan...
Ming bor shukur, bag'rim bo'lib qon,
Armon bilan ketmam olamdan.



* * *

Ko'ngil hayoti xayol,
Xayolsiz ne hatto hech.
Mustar musicha misol,
Yor yodi bilan har kech.

Ishqdir mudom sog'inchi,
Beg'ussa o'tmas kuni.
O'tsa ham qancha yillar,
Ishqsiz o'tmas kun-tuni.

Guldan ko'zin uzolmas,
Ko'ngli ichra tim-tim dog'.
Unutgan, o'zin bilmas,
Lekin havosi bedog'.

Orzusi ishqmish yolg'iz,
Ma'no izlar har ondan.
Onsiz yuragi ojiz,
Kechar jumla jahondan.

Yo Rab, endi behushmi?
Ma'voki, havosi yo'q.
Asli bu qo'rqinch tushmi?
Nahot hech davosi yo'q?!



* * *

Bulutlar ortidan qarayman,
Qoraytib bir parcha qog‘ozni.
Gar nolakor alamli nayman,
Yuragim sog‘inar parvozni.

Mardlarday men ham mard yashadim,
Toqatning ichinda belanib.
Qismat buyurganin oshadim,
Aslo kun ko‘rmadim elanib.

Hamisha haqiqat tarafda,
Hamisha kurashdim haq uchun!
Barcha mardlar bilan bir safda
Men ham borim berdim xalq uchun!

Imon ahli bilan payvasta,
Bir jonu bir tanman har doim.
Har ikki olamim orasta,
Qilganing rost bo‘lsin, Xudoyim!



* * *

Kuz yomg'iri tomchilar asta,
Tilga kirar daraxtlar bargi.
Bamisoli bemorday xasta,
Zamin uzra xazonlar margi.

Zimiston tun. Qoradan qora
Chehrasini ochmaydi hech ham.
Yuragimni qilar ming pora,
Allaqanday hasratlar mubham.

Namchil havo bag'rim qilar qon,
Hech bir joyda yo'qdir halovat.
O'zing bandam degin, yo Rahmon,
Tillarimda takror salovat.

* * *

Parvoz qilar kuz ichra xayol,
Nola qilar ozurda dilim.
Yaproqlarni yetaklab shamol
Yuzlarimni silar muloyim.

Shamol bilan qilarman parvoz,
Shamol bilan ko'kni qucharman.
Lochin kabi qanot yozib boz,
Lochin kabi ko'kda ucharman!



* * *

Toqatlari gullagan bog‘da,
Tun ichinda hukm o‘qilmish.
Ajab sirlar alamlar bunda,
Chechak ochmay xazon yig‘ilmish.

Nechuk shunday, payopay kadar,
Muntazirdir yer bag‘ri har on.
Qora kasrat qandayin ketar
Hokim bo‘lsa davron beomon.

Tamom bo‘ldi, bari tugadi,
Bargday oxir uzildi tandan!
U muhabbat yaprog‘i so‘ndi,
Qanday go‘zal ayrildi jondan!

* * *

Barakali yoz fasli,
Dasturxoni ham to‘kin.
Ko‘nglim ichra yo‘q asli
Na malomat, na-da kin.

Yoz fasli tinmay aslo
Mevalarini terar.
Galni bahorday a‘lo
Xazon fasliga berar.



ALVIDO

Ufqqlar loladay qizarmish,
Gezarmish namozshom gullari.
Mashaqqat toshlari gullamish,
Behis emish tosh kabi bari.

Ekilgan, toptalgan, to‘kilgan,
Sukunat gullari qarovsiz.
Bog‘larning yuragi so‘kilgan,
Xazon gulxanida olovsiz.

Xazonga yuz tutgan daf’atan,
Gullarning tilida ham vido.
Bog‘lar taqdirga bergan tan,
Ohista shivirlar: Alvido!..

* * *

Yuragimni o‘rtaydi bir so‘z,
Zabtga olar achchiq iztirob.
Qancha qochmay hamroz g‘ussa ro‘z,
Hech omonlik bermaydi azob.

Ko‘ngil ichra yashaydi bir sir,
Ichindagi ko‘hna ishq-hasrat.
O‘sha sirga asirman, asir,
Yuragim qon qilar bu kasrat.



Ba'zan kuz ham yuragim ezar,
Ruhu qalbdagi hukmron armon.
Bargi xazon olamni bezar,
Dardlarimga darmon yo'q, darmon!

* * *

Issiq damda panohing xayol,
Soyasinda ko'ngil olar tinch.
Yurak urar soatday behol,
Daqiqalar devori zo'r sinch...

Vaqt devori tirkashar achchiq,
Chiqqillashi chopadi yoshing.
O'tsa hamki har oning chiq-chiq,
Erka xayol izminda yonding...





HAQNING YO‘LI

Qusurlar qisadi bir kun bo‘g‘zingni,
Talab ketar qay on dardu hasrating?
Tut mudom g‘animat sirli lahzani,
Tariqat rohlarin tutib maqsading.

Mutlaq o‘zi hokim, o‘zi hukmron,
Yurmasang bo‘lmaydi, Haqning yo‘li bir.
Bir bo‘lu, bir o‘yla, bir so‘yla har on,
Vohidlikni nasib aylagay kabir.

* * *

Daryolar oqib ketar,
Ketmas muhabbat dog‘i.
Qahhor shamollar kezar,
Bardoshim yetmas chog‘i.

Elar xazonday umrim,
Ishq iztirobi tayanch,
Mahkam quchib yuragim,
Uchib yetmasmi ayanch?

Yurak to‘ldi ohangga,
Yodim ichinda yoding.
Bir zarb yetgan yurakka,
Zarur madad-imdoding.



Kipriklaring misoli,
Ishq lashkari girdimda.
Nigohim so‘ylamasmi
Hasratlarim virdimda?

* * *

Og‘ib ketdi sirli soylar,
Sohillari mudom ingrar.
Tashqariga chiqmas ohim,
Ichga yutib, yurak singrar.

Qancha suvlar oqib ketdi,
Nechun dilda qotdi armon?
Ko‘ksim qirar sitam zangi,
Qirib bo‘lmas, hechdir suhon.

Bog‘da shamol esar tinmay
Nimanidir so‘zlayotir.
Yurak ichra armon dog‘day,
Yurakkinam bo‘zlayotir.

Sirimni kuz ayladi fosh,
Ifsho aylab qildi timsol.
Kuz bag‘riga urildi bosh,
Endi kechdir, qaytmoq mahol.



* * *

Naqadar ayanchli so‘zsizlik,
Yeru ko‘k betayanch ko‘rinar.
Hatto kuz kuz emas bedarak
Yo‘qolgan lahzaday urinar.

U kunlar boshqadir, un boshqa,
Zamirim ichinda bir buhron,
Sog‘inchlar yurakka zo‘r qashqa,
Men seni sog‘indim, qutlug‘ on.

Qaniydi, kelishing bilsaydim,
Yo‘lingga bo‘lardim poyandoz.
Qismatning sochlari tarardim,
Mehmonim bo‘larding sen hamroz.

* * *

Egiladi daraxtlar mahzun,
Vidolashar, barglar poyida,
Imkon izlar shamol ham beun,
Bir najotga tashna royida.

Garchi ayni pallada takror,
Qaddim kamon daraxtlar kabi.
Kechirmasdan o‘zimni zinhor
Yashasam gar karaxtlar kabi.



* * *

Goh she'r bo'lib og'adi bag'ir,
Tog'lar aro berar aks sado.
Tevarakda tun bo'yi yomg'ir,
Ko'ngil ichra benavo navo?!

Bilmadim, u qandayin nido?
Dengiz sari yuzdi bu abrim.
Go'yo yo'lim g'am ichra tanho,
Sukut bo'lur oxiri sabrim.

Tun bag'riga cho'kadi hasrat,
Og'ushiga olar u, ammo,
Kecha kabi bag'rim beshafqat,
G'am ichinda najot bor, Allo...



* * *

Dardu hasrat bilan beadam,
Qolib ketdim hijron tog'ida.
Hech bir banda, O'zing ber madad,
Kuymasin hech yorning dog'ida.

Yuragimning munavvar mohi,
Yuragimning oltin oftobi.
Ko'z oldimdan ketmas nigohi,
Yangrar mudom yorqin xitobi.

Najot yo'qday tuyular go'yo,
Bag'rimdagi armon dog'idan.
Meni mangu qilgan mahliyo,
Kel, olib ket hijron tog'idan.



* * *

Bog‘da kezarman yolg‘iz,
Bog‘ki, turfaxil rangi.
Yuragimda tizginsiz,
Hayotu mamot jangi.

Tikilarman bog‘imga,
Xayolga cho‘mib har on.
Targ‘illangan osmonga,
Boqarman lolu hayron.

Armon samimiy hamroh,
Armon quvonchu sevinch.
Bag‘oyat sarbaland roh,
Evoh, o‘tolmayman hech!



* * *

Bema'no qaroshimiz,
Yashaymiz beishq mudom.
Tomchilar ko'z yoshimiz,
Lek ko'ngil topmas orom.

Azoblar zanjirimish
Eshiklarga osilg'on.
Kuz karaxt uxlar emish,
Karaxt hatto har bir on.

Yog'ar yomg'ir bezahmat,
Uyg'onar asta ko'ngil.
Taqdir, senga ming rahmat,
Ko'nglim, taqdirga ko'ngil.





AYROLIQ

Ayroliq bog'ida gulim sarg'aydi,
Sarg'aydi za'faron bog'i hijronim.
Go'yo kimdir meni so'zsiz qarg'aydi,
Bag'rimni o'rtaydi dog'i hijronim.

Evoh, dardi hijron zaharday achchiq,
Zahar bag'rimni, butun hayotim.
Hijron ichra kechgan saharday achchiq,
Hijron azobiga botgan bayotim.

Qafasday toraydi hatto keng olam,
Ming bir armon bilan qorayganday ong.
Ne g'am gar bag'rimni o'rtasa alam,
Visoling davlatin va'da qilar tong.



* * *

Kunlarimiz tunlar qa'riga botar,
Go'yo ortga qaytar yo'lin yo'qotgan.
Gar g'amli xayollar tobora ortar,
Gar qismat toshlarin otgani-otgan;

Har qancha murakkab bo'lmasin hayot,
Javobsiz biron-bir savol yo'q, savol.
Toki yangrar ekan muzaffar bayot,
Azizim, bizga hech zavol yo'q, zavol!

* * *

Daryolar tinchib yonar,
Yanib ming bir to'sinni.
Uzoqdan vasl og'ar –
Chetlab asriy yo'sinni.

Tog'lar boqar bastingga,
Ming ehson qilib go'yo.
Izing qolib o'zingga
Qarar afsungar ro'yo.

Umr muncha tez kechmish,
Nahot rostdan ham oniy?!
Manglay uza bitilmish,
Besh kunlik qismat foni.



Bu besh kunlik dunyoda
Dema zinhor ultonmiz.
To tirikmiz ziyoda,
Sultonmiz biz, sultonmiz!

* * *

Maysalar yomg'irning asari,
Sevgiday siylaydi xayoling.
Yurakni bo'ylaydi sarsari,
Payvasta qoshlari hiloling.

Bor jumla jahondan ziyoda,
Nozlanar yoningda bir pari.
Sen uni sog'inib piyoda
Kelgansan ufqdan ham nari.

Yonidan bir qadam jilmaysan,
Bag'ringda bir na'ra, bir nido.
Olamni ham pisand qilmaysan,
Pariga bo'larsan sen fido.



* * *

Yomg'irni tingladi bir juvon,
Ko'zdan suv, qalbdan dard aridi.
Yomg'irga aylandi shu bir on,
Go'yoki daf'atan qaridi.

Yomg'irni tingladi bir juvon,
Baralla kuyladi jo'rovoz.
Uning ruhi ayni dam shodon,
Bulut kabi qilardi parvoz.

* * *

Bu qanday makonu bu qanday zamon?
O'zingga daf'atan berasan savol.
Bag'ringni o'rtaydi, o'rtaydi hamon,
Behisob savollar asriy bezavol.

Yoningda behisob hamrohu hamdam,
Biroq topolmaysan birorta hamdard.
Gar hayot sahnida odam ko'p, odam,
Va lekin to hamon kamyob asil mard.

Zamin gir aylanib qayta uyg'ongay,
Mudrasa sir ahli tiklolmas aslin.
Dunyo g'ami ani talashib yegay,
Faqat ishq ichinda topur o'zligin.



Muhabbat falakdan o'g'irlangan esh,
Mudroq ko'ngillarga hech yuqmas u gard.
Yer, senga unutish sabotin bermish,
Asli bedorlikdan o'sar asl dard.

Holbuki, ayroliq yoritar kechang,
Yuraging suv ichar bulog'idir ishq.
Yashirin asroring fosh bo'lar betong,
Tashna ko'ngillarning ulog'idir ishq.

Tun hayron, yulduzsiz kechalar yorug',
Ishq osmonida hajr betin nur sochar.
Qandayin sinoat – hijronmish ulug',
Azobu uqubat bobini ochar.

Hasrat changalida toriqar yurak,
Qisqamish quvonchning umri ham buncha.
Ko'kka o'rlab borar bechora terak,
Uzun yo'laklarni siltalab muncha.

Yorug' xiyobonga boshlaydi poya,
Qoldirib chohlarga bori kechmishni.
Yana g'ayrat bilan shaylanar doya,
Uddalar hech kimsa qilolmas ishni.



* * *

Bag‘rimda beadam shamol shiddati,
Tantiqlik, yovuzlik fazlu illati.
Aralash keladi shodlik va hasrat,
Qaysi kun irodang sindirar shashti.

Bir ajib sukunat tentir ruhimda,
Tegramda oqarar shovqinli ro‘yo.
Bilmadim, nimani yo‘qotdim bunda?
Chirmashib, qorayib qaraydi dunyo.

Nima u ruhimni chirmagan bir-bir?
Balki ahdlarimga ojiz farmonim.
Bir mahkum kimsaday yurak toriqur,
O‘zing umidimsan, o‘zing armonim.

Ey qismat shamoli, ayg‘ir misoli,
Boshi berk yo‘llarga boshlama aslo.
Boshimda porlasin baxtim hiloli,
Mast qilsin iqbolu saodat a’lo.



* * *

Sochar tun vahshatini,
Shivirlar soya noxos.
Shamol siypar terskayni,
Kun tegmas nochor, ey xos!

Misqoldayin tanu jon,
Ko‘rinmas hech vujud ham.
Yurak qasrida bejon,
Nohaq yashashga ko‘ngum...

Ming armon qora tunda,
O‘rtanaman tutoqib.
Bag‘rimni tilib bunda,
Oy ham qochar uloqib.

Ming armon har tegramda,
Ivirsib yotar og‘ib.
Chog‘lab ruhimni bunda,
Qochar oy ham uloqib...



* * *

Ichdim g‘ussani beman,
Baridan kechdim tamom.
Faqat men Seni derman,
Seni derman beorom.

Shu bilan bari tugar,
Boshlangan samar bilan.
Ko‘ngilda saqlab badar,
O‘tarman kadar bilan.

* * *

Teskari aylandi shamollar,
Ko‘ngilda g‘uluvlar boshlandi.
Mening ruhimga yot a‘mollar,
Poyimga daf’atan tashlandi.

Bo‘zladi armonlar dil ichra,
Malham bo‘lmadi hech bu ochun.
Uzildim dunyodan ishq deya,
Voz kechdim dunyodan, oh, nechun?

O‘zingni mengzaysan kimlarga,
Achinib ketasan umringga.
Har soat jaranglar bir ovozi,
Qasd qilar yuraging – qumringga.



Mehr-la tunlari issiqdur,
Sovuq oh sovutar kunduzni.
Ey ko'ngil, holimni endi ko'r,
Sindirar ruhsiz so'z shuurni.

Nay kabi shivirlar bir nola,
Zora ming uzilsa bandlaring.
Yolg'iz o'zing uchun havola,
Hikmatu nasihat, pandlaring.

Teskari aylandi shamollar,
Jonimga alamlar xaridor.
Mening ruhimga yot a'mollar,
Yana keng dunyoni qildi tor.



* * *

Avvalimdan xayolday uchding,
Oxirimdan uzilding tanho.
Hech narsasiz hech bo‘lib ketding,
Zulmat ichra qoldirding borho.

Nahot yana tinchingni buzdim?
Anhorlar ham bo‘zladi, nahot?!
Ortga yo‘l yo‘q, nochor adashdim,
Oldinda nur ko‘rinmas, hayhot!

Yana keldi chorasiz yillar,
Iztirobim oshdi yana ham.
Faqat qoldi achchiq xotirlar,
Dardu g‘amim toshdi yana ham.



* * *

Bog‘lar quruq og‘ochday,
Yaproqsiz yalang ayanch.
Ko‘klam keldi ayamay,
Achchiq iztirob tayanch.

Tanish zarba ko‘kda ham –
Buzar ko‘nglim sukutin.
Daraxtlar shu kez hamdam
Kezar bunda betizgin.

Ortar g‘amim beomon,
Daryo toshar shovullab.
Chimirar qoshin zamon,
Qahhor qismat shivirlab...



* * *

Kechar o‘ylarim og‘ir,
Saodat kechasinda.
Yulduzlar shitob uchar,
Xayol ishq ko‘chasinda...

Boqaman umid bilan,
Ufq sari qo‘l cho‘zib,
Nahot yetmas xayolim,
Cheksizlikka bo‘y cho‘zib?!

Dilsizlik ichra oshiq
Misoli beqanot qush,
Es-hushidan ayromish,
O‘tgan kunlari bir tush...

Ishq ahlicha ayb emas,
Ming bir sazo bo‘lmoqlik,
Ichib mangu ishq-sharob,
Dahru dundan kechmoqlik...

Yor kuyida hamono
Hajr shomidir, hayhot.
Vaslin istab Xudoyo,
G‘ussa ko‘nglidir, najot...



* * *

To'srayib qaraydi har daraxt,
G'amboda bag'ringni timdalab.
Begonaday olam ham karaxt,
Bilmam, neni qilar boz talab?

Shamol aytar qo'shig'in shoshib –
Yaproqlar oh tortadi asta.
Bir g'am kelar qirlardan oshib,
Bir g'am qilar yana ham xasta.

To'srayib qaraydi har daraxt,
G'amboda bag'ringni timdalab.
Begonaday olam ham karaxt,
Bilmam, neni qilar boz talab?



* * *

Yomg'ir ham uzluksiz yog'moqda,
O'zliksiz kelmoqda bayotim.
Yomg'ir so'zin aytdi birpasda,
Aytmading-ku lek beso'z ko'ndim.

Dilda qoldi og'ir jarohat,
Har giyohda ming bir xil amal,
Malham bo'lmadi-ku nihoyat,
Lekin bahor bag'oyat go'zal...

* * *

Bog'da yolg'iz sayr etdim,
Sukut qa'rida rangi.
Yo'q izimiz, azizim,
Qoplagan vaqt changi.

Tikilarman bog'imga,
Xayolga cho'mib har on.
Targ'illangan osmonga,
Boqarman lolu hayron.

Armon samimiy hamroh,
Armon quvonchu sevinch.
Bag'oyat sarbaland roh,
Evoh, o'tolmayman hech!



* * *

Sinchalab qarama ko'zlarimga un,
Ma'no o'qi faqat yurak qa'ridan.
Yuraging quchmasa so'lg'in bir uchqun,
Alaming olganing befoyda so'zdan...

Ulug' sevgi qanday xush hasrat erur,
Hasaratu sog'inchning borar yo'llari.
Ko'ngil qayg'u chekar, balki ming yillar,
Faqat ruh yuksak uchar, hechdir qolgani...

* * *

Sog'inch yurakka cho'kdi,
Uchdi boshimdan hushim.
Sayr etgum samolarni,
Tashqari chiqar ohim...

Shamol esar yobonda,
O'chiq chiroqlar bunda.
Sirga to'la bu oqshom,
Yorug' tumanday muncha?

Sirg'anar cho'lda xayol,
Shamollarga ilashib.
To'lib-toshadi ko'ngil,
G'ussalarga tosh qotib...



* * *

Yurakka chiqdi dardlar,
Chiqdi chang armonidan.
Zag‘chalar chag‘-chug‘lashar,
Chug‘ul ahli zulmidan.

Bulutlar tortdi xira,
Chobuk xayol sog‘indi.
Olmayin bir bag‘riga,
Bo‘ronlar-da og‘indi...

* * *

Cho‘kkanida yurak ichra g‘am,
Olislardan nimadir o‘chdi.
Uchgim keldi sen bilan birga,
Ko‘kka go‘yo kulim sovrildi...

Ortda qoldi balki kir tashvish,
Qaro yerda vishillar tovush.
Osmonlarni kulga to‘ldirib,
Ko‘ngil istar beminnat chovush...

Tun bag‘rida eladi shamol,
Olib kelar ishqning saslarin.
Lekin shu kech xayolimda qol,
O‘sha g‘amgin onlar-la horg‘in.



Parchin-parchin bo'ladi tun ham,
Yodga kelar go'zal un va kech.
Men uyg'ondim, g'aflat aralash,
Qorong'uda yo'l topolmay hech.

Barcha uxlar tinch va osuda,
Faqat sevgi tin olmadi bir.
Guvullaydi daryolar bunda,
Sahar ichra yo'qoldi bu sir...

Yoz soladi dillarga qayg'u,
Yana o'sha g'aribdir bog'ot.
Bong uradi bog' uzra kakku,
Horg'in fikr kabi u daraxt...



* * *

Nafosatga to'la keng olam,
Go'yo faqat gul isi anqir.
Bir tarafda olomon misol,
Qay go'rlarga cho'mmoqda bag'ir?..

Xayol uchar to'lib g'amlarga,
Uchib borar hayot ham beshak.
Botib borur tanimiz yerga,
O'z domiga tortib cheksizlik...

Goh evrilar tush kabi toqat,
O'ngimizda anqir yovuzlik.
Uqubatga do'nar tabiat,
Kel, ey ko'ngil, birga ketaylik...

* * *

G'amgin oqar daryo shivirlab,
Saslaridan bo'larman behol.
Bukun ko'nglim daryoga mengzab,
Baxsh etmoqda bir ajib xayol.

Suv oqadi, suvdir yuragim,
Qurib uvlar toqatim go'yo.
Xushomadga yetmas bardoshim,
Shunday o'tar kunlari ro'yo.



Taskin istar bu yurak har choq,
Tashlab ketdi nahot muhabbat?!
Aro yo'lda turibman mudroq,
To'qinlarda oqarman faqat...

* * *

Kezdim bir kech oydin buloqni,
Sokin nafas oldi yuragim.
Chertar shamol ko'ngil uyini,
Bora-bora ortdi fig'onim.

Tog'da fayz nadir boshqacha,
Mug'anniyday g'ichirlar daraxt.
Oy nurida buloq o'zgacha,
Toshqin daryo bo'ladi karaxt...

Oy tirnog'i tog' ko'ksin tinar,
Bulutlar ham quchar tog' bag'rin.
Rashk o'tidan quyosh tezlashar,
Cho'qqilarni zabt etib betin...

Yakranglikdan bezar xayoling,
Istar-istar qaysar bir ruhni,
Goh qidirar begona ohang,
Nay ohangi buzar ko'ngilni...



* * *

Yomg'ir ichra achchiq iztirob,
Chaqmoq bilan yonar tuyg'ular.
Yomg'ir torin chertar beshitob,
Sochilar oxiri ming sharar.

Alamdiyda ivir beshafqat,
Sadaf ichra dur kabi bedog'.
Yoritar dil kulbasin faqat,
Qismatga yor ayni palla, chog'.

Simob kabi qalb qalqar hamon,
Xayol bilan teranlik basta.
G'am talpinar go'yo biz tomon,
Nahot ko'ngil davosiz, xasta?!

Shoir garchi hasrat bilan esh,
Baxsh etadi olamga quvonch.
Xasta bag'ri bo'lsa hamki resh,
Qo'sh qanotdir e'tiqod, ishonch.



* * *

Men tinglarman shamol qo‘shig‘in,
Tinglar kecha meni shundayin.
Qandayindir tungi nigohlar
Ta‘qib etar, shunday bir izg‘in.

Navdalarda g‘imirlar shabnam,
Yurak ichra solib zo‘r shuur,
Sukunatga xeshdir bu ko‘klam,
Yana keldim, ey sokin Xayol...

* * *

Shamollar betayanch guvlar falakda,
Yerda g‘arib yurak suyanchsiz, izg‘in,
Hatto suyanmasmish ko‘krak qafasga,
Muallaq tebranar yaproqday ichkin...

Darazam ortinda mung‘ayar daraxt,
Karaxt jismim kabi og‘riqni sezmas,
Munchalik qoyimlik nedan asorat?
Balki u ham menday xayolchandir, bas.

Xayol lashkarlari ot surar bir zum
Qora to‘dalarni sidirar go‘yo.
Birdan charaqlaydi yana quyoshim,
Jonimga yetishar hajr, alvido.



G'am chog'i mehrsiz hatto anjumlar,
Yurakni resh etar tunning tirnog'i.
Har lahza ishq ko'ngil soz shiyor etar,
Axir, menda emas ishqning farmoni...

* * *

Ruh ichra tug'yona shasht,
Sanchilar yana g'ussa.
Farmoniga shay, qismat!..
Beqismat ketmas kimsa.

Ko'ksim ichra chorasiz
Yurak bezavol turar.
Xayol, nechun qaytmassiz?..
Sabot ham bir kun tugar...

Qismat a'lodan a'lo
Etsa ozor zo'r ishqdan.
Ko'rinmas hech suvaydo,
Vaslzorni izlarman...



* * *

Ketar dildagi armon,
To‘kilar xazon kabi.
Yor bo‘ladi begumon,
Baxtu iqbol kavkabi.

Ushaladi orzular,
Qo‘lga kirar har marra.
Baxtu iqboling kular,
Armoning qolmas zarra.

Ro‘shnolikdan hech qachon,
Umiding uzma zinhor.
Qo‘sh qanot qodir Rahmon,
Qo‘llaydi Parvardigor!



* * *

Mudrar yarim kecha ichinda bog‘lar,
Jami hasratlarni bag‘riga bosib.
Olislardan nigoh tashlaydi tog‘lar,
O‘zlariga hamroh istar munosib.

Shamolda xazonlar uchar tinmayin,
Xasta ko‘ngil ichra izg‘ir g‘amlari.
Kuzning hayqirog‘i dam urgan sayin
Bag‘rimni o‘rtaydi hijron sarsari.

Muanbarday atrin taratar tun ham,
Ishqning yog‘dusini quvgaydir hadik.
Shoshma, hoy, to‘linoy to‘xtagin bir dam,
Muhlik bu holimga begona shodlik.

* * *

Yupun kulba uylar ichra xayoling,
Toriqib anglaysan hashmat zavolin.
Anglasa gar do‘stlar nozik tilaging,
Kashf etar kulbaning ulkan sirlarin...

Qorsiz qish gohida yoqar yurakni,
Eslatar bahorni bahorsiz kunda.
Achinmay qo‘yasan ishqsizlarga ham,
Havodir ba’zida beishq boshlarda.



* * *

Qabrlar kun sayin o'sar abrga,
Sochilar kuz sari xasta mezonlar.
Cho'kib borar ko'ngil ummon tubiga.
Boshimda charx urar kuzgi xazonlar.

Kiftimni bosibdi hijron zalvari,
Changidan kiprigim sira g'am chekmas.
Yurakning ochilmas darvozalari,
Bu na shikoyatu na arzu kekmas.

Baxtu saodatga intilar yurak,
Tan olmas sira ham kengligin.
Ba'zan bir safsata deydi nokerak,
Ishq bobida shohu gado tengligin.

Kuzgi chorbog'larni qarg'alar bosib,
Makon aylar mening buzg'in vayronam.
Qadaldi ko'ksimga sukutlar botib,
Faqat xayol, xayol borar sayronam.



* * *

Kuz yaprog‘i sarg‘ayib uchdi,
Qora bulut hijronday bo‘zlab,
Qush singari samoni quchdi,
Parvoz qilar nenidir so‘zlab.

O‘tsa hamki shuncha uzoq yil,
Kechagiday uradi yurak.
Sarmast qilar qalbimni visol,
Mast aylagan ishq emish beshak.

O, bunchalar achchiqdir hijron,
Chidab bo‘lmas zarbiga aslo.
Nechun menga yo Qodir Rahmon,
Taqdir ravo ko‘rmading a‘lo?!

* * *

Daraxtlarning bag‘ri qavariq,
Suyanganda qalbing beorom.
Tanish holat, bundayin daqiq,
Lahza qilar har kimni ham rom.

Biroq ko‘ngil g‘amlarga to‘lar,
Hijron yoqar borlig‘ing butun.
Aning yodi ko‘ngilga tushar,
Hasrat o‘rlar misoli tutun.



Kimlargadir bu hol bir ermak,
Hech kim bilmas holating illo.
To'g'onlar ham bo'lolmas tirgak,
Bunday yashab bo'lmas, o, aslo!

* * *

Xazonlar to'shalgan yer bilan bitta,
Xazonlar to'shalgan dasta va dasta.
Xazonlar bag'rida dunyo albatta,
Ko'zinga ko'rinar misoli xasta.

Men uning dardiga izlayman davo,
Men uning dardiga izlayman malham.
Va lekin tobora xasta bu mavo,
Va lekin tobora ziyoda dard ham.

Barcha davolarim aksiga olib,
Kuydirar yarani misoli tuzday.
Bog'larni bezagan muzaffar, g'olib,
Bahor latofatin ko'rsatar kuzday.



* * *

Ko'nglimdan jamiki armonlar ketib,
Yuragim nogahon daryoday toshdi,
Umrimga nurafshon bir lahza yetib,
Shavqu zavqim baland tog'lardan oshdi.

Va lekin qoshimda g'amgin kuz fasli,
Daf'atan men namli ko'rdim ko'zini.
Nogoh ranjitmayin deganday asli,
Mendan olib qochdi kuz ham o'zini.

* * *

Subhidam daraxtlar egilar ma'yus,
G'arib xayollaring tiklar muloyim,
Mayin yaproqlarda qalqiydi bir his,
Orzular sukunat kunjida qoyim!

Kiradir tabiat turfa tuslarga,
Lolalar ochilmish tubida dog'i.
Ko'ngil shodlanardir qayg'ular ichra,
Mast qilar munavvar muhabbat chog'i!

Qalbingga bir farah inadi ajib,
Evrilish onida o'zgacha shukuh.
Anduh to'la chehra ma'yus ochilib,
Xasta tuyg'ularga baxsh etadi ruh.



Shamollar shovullar daryoday oshib,
Uzoq manzillarni qumsaydi odam.
Qalbingda o'zgacha g'ayrating oshib,
Ufqlar bag'riga shoshasan shu dam!

Lablar shivirlaydi ko'ngilni uqib,
Poyonsiz dengizlar bezovta faqat!
Quchgisi keladi ba'zan iymanib,
Yo'q deysan, taqdir hech emas beshafqat.

* * *

Xazonlar lashkarin boshlab kelar kuz,
Olamda hukmron o'zgacha bir holat.
Bahoru yozdan ham umidingni uz,
Ona tabiatga xos bu adolat.

Kuz ichra xazonlar bag'rida masrur,
Ortadi kun sayin ming bitta tashvish.
Nihoyat baxsh etib qalblarga surur,
Bizga peshvoz chiqar qorlar bilan qish.



* * *

Yurak jarohati bitmoqda asta,
Olis osmon sari uchdi orzular,
Nihoyat hayotim juda orasta,
Munavvar oftobday iqbolim kular.

G'uborlarni quvar bu kuz ayovsiz,
Boshim uzra suzar quyuq tumanlar,
Baland tog'lar o'par samoni izsiz,
Tumanday tarqaydi barcha gumonlar.

Yurak iqrор go'yo she'rsiz hayotga,
Holbuki, shu ham bir dilgir kayfiyat.
Borimiz baxshida bizning bayotga
Topgan-tutganimiz faqat she'riyat.

Yashadim hech kimdan himmat kutmasdan,
Sig'madim na osmon, nainki yerga.
Parvardigor lutfin darig' tutmasdan,
Qalbimni jo qildi shohona she'rga.



* * *

Hademay kuz kelar sarg‘arib,
Sog‘inch to‘la ko‘zlari giryon,
Manglayida bir so‘z surinib,
Nahot xazon yozilmish biryon?

Kengdir bag‘ri hamisha uning,
Hazinlanib turar yo‘lakda.
Yoz oxiri eslatmish yoding,
Qaytmish oxir og‘ir yurakka.

Tirnar qalbim bemehr shamol,
Qalb kengligin sayr etar ortiq.
Ilhom zavqi bilmagay zavol,
Lahza sayin shevasi ortiq.

Dengizlarda o‘ynaydi hubob,
Yuraklarning bag‘rida bir darz.
Davralarda sayraydi rubob,
Navolarda namoyon ming arz.

Saratonning qaytadi tafti,
Ishkomlarda uzum marjonday.
Barakali kuz faslin kafti,
Mevalari dardga darmonday.



Lutfi bilan Parvardigorning,
Kuz vasliga vosilmiz, vosil.
Tilagi shu dildagi zorning:
Umrimiz ham qilgin serhosil.

* * *

Baland tog‘da qor,
Nahot ketar, kuz?
Ruhimda bir dor,
Sollanar ul so‘z,
Ko‘zlar shu bahor.

Qish zor kuylasin,
Yuragi muzlab.
Uzib dil torin,
Va qaytsin tinglab.
Lek qaytmas bahor.

Izg‘irin sovuq,
Nur yo‘q zig‘irday.
Yurakda og‘riq,
Dil torin uzgay.
Xafa ko‘klamsiz.

Bir qushday uchgum,
Qumsab bahorni.
Gullarday quchgum,
Beg‘ubor qorni.
Diloynam g‘ubor...



* * *

Ko'nglimga hamohang kuzning navosi,
Ko'nglimga hamohang nolalari ham.
Go'yo mast qilganday bahor havosi,
Go'yo rom qilganday lolalari ham.

Xazon gulxanida yonadi bog'lar,
O'zgacha tarovat va o'zgacha ko'rk.
Olis-olislardan chorlaydi tog'lar,
Boshida yaltirar nuqra kabi bo'rk!

Ko'nglimga hamohang kuzning navosi,
Ko'nglimga hamohang nolalari ham.
Go'yo mast qilganday bahor havosi,
Go'yo rom qilganday lolalari ham.

* * *

Ayroliq yetdimi joningga, jonim,
Hijron bedodidan unutding meni?
Hajringda g'am bilan to'ldi har onim,
Lek ruhim shod bo'ldi yoding-la seni.

O'zlik imoratim yiqildi, shaksiz,
Yiqitdi firoqing tanimni nogoh.
Izg'idi bu jismim kuysiz, navosiz,
Kelarmisan bir kun ba haqqi Alloh?!



* * *

Bog'larni jazira qopladi butkul,
Hatto soyalar ham qizdirar metin.
Go'yo qaynab oqqan daryodir ko'ngul,
Achchiq sog'inch kabi mehr ham betin.

Atrof tamom bo'm-bo'sh yuragim kabi,
To'lib toshgan daryo ishqni eslatar.
Endi osudalik bog'lar matlabi,
Kutar xazon faslin intiq sarbasar.

Churq etmas bunda hech bulbullar besas,
Sukunat kasriga yo'liqqan go'yo.
Qismat changalida bemajol har kas,
Qochib qutilmoqlik ro'yodir, ro'yo!

* * *

Qorong'u kechadir dil mahzun,
Yorug' kechmishlarni xotirlar.
Ehtimol, u oy ham mendayin,
Kecha avzoyidan zir titrar.

Tun kabi yurak ham beorom,
Turfaxil xayollar asiri.
Shoir qalbim qilar rom,
Kuz kechasin afsungar siri.



KUZ YOMG'IRI

Xarsanglarda suv oqar ma'yus,
Ko'zlaringda men oqqandayin.
Bir paytlar bo'ldim bulhavas,
Bilmadim hech armon sirlarin.

Derazamga urilar yomg'ir,
U kunlarni eslatar betin.
Metin emas yuragim axir,
Tomchilaydi armonday yog'in.

Hasrat to'la yomg'ir yog'adi,
Yurak tomchisiday tomchilar.
Bag'rim hasrat tomon og'adi,
Dardu alam mudom qamchilar.

Kuz yomg'iri – armon yomg'iri,
Afsonalar cho'lg'ar xayolni.
Kim ham bo'lmas, ayting, asiri,
Parilarday go'zal malakni!..

Derazamga urilar yomg'ir,
Visol shavqin eslatar mudom.
Xotiralar og'irdan-og'ir,
Poyim uzra kishan, ming bir dom.



* * *

Kuz mahzunlik baxsh etar mudom,
Yurak shundan to'kilar xasta.
Ortiq bizga begona orom,
G'am bilan biz ortiq payvasta.

Kechalari ichikib chunon,
O'tar qancha soylarni hatlab.
Tashna qalbim, sen menga inon,
Nasib etar bizga ham matlab.

* * *

Yomg'irlar mavsumi boshlandi yana,
Yana tinmas sira kuz yomg'irlari.
Yana zamin uzra qilar tantana,
Kech kuzning sinoat hamda sirlari.

Kunlar sovib borar yana kun sayin,
Najot istab ko'kka yolvorar bog'lar.
Chora topa olmay yana atayin,
Qordan qalpoq kiyib oladi tog'lar.

Qay bir tong bor jumla jahon ham yana,
Qirovning tagida qolar daf'atan.
Kech kuz olam ichra qilar tantana,
Taqdirga nogahon tan beramiz tan.



* * *

Ufqqa shom cho‘kar asabiy,
Kengliklar kun sayin toraydi.
Yana olam kuz ichra sabiy,
G‘or singari nogoh toraydi.

Yuragimga yog‘di yomg‘irlar,
Azoblari erir bulutday.
Bir zamonlar oshino sirlar,
Bari bugun nogoh unutday.

Sovuqlarda ruhim siniqar,
Asriy asror, asriy sinoat.
Mehr gulin sinchi surinar,
Ko‘z tikib tunlari betoqat.

Doimo ibtido shirindir,
Lek achchiqmish intiho-vido.
Bunda ham bir sir yashirindir,
Bunda ham bor sirli bir nido.

Ufqqa shom cho‘kar asabiy,
Kengliklar kun sayin toraydi.
Yana olam kuz ichra sabiy,
G‘or singari nogoh toraydi.



* * *

Kuz bog‘larin kezdim darbadar,
Topmadim kuz ichra bir hamdam.
Lek ko‘ngil tin oldi on qadar,
Yuragimning ramzi yaproq ham.

Kuz sultoni bezamish yerni,
Shundayin g‘aroyib farmoyish.
Ko‘nglimda zavq va shavqi she’rni,
Xazonrez, hur kabi namoyish.

Qarshimda turibdi noyabr,
Bodi xazonlarga ko‘milib.
Mening mushtday yuragim kabi,
Ash’or zavqi bilan cho‘milib.





NOYABR

Qarshimda gʻamboda noyabr,
Onqadar bagʻri xun, toʻlibdi.
Mening mushtday yuragim abr,
Noyabrga maftun boʻlibdi.

Sokinlik bor kuz kunlarida,
Gʻamga choʻmgan kuz tunlarida
Kuyladim men oʻzgacha nazmin.

* * *

Kuz chogʻi tuygʻular ogʻinar,
Afsonalar choʻlgʻar xayolni.
Talpinar qish sari xayollar,
Qish osha bahorga talpinar.

Ey shamol! Ruhimni qarshila,
Xiradir diloyna, art changin.
Mayli, soʻng ketarda shovqin-la!
Faqat sen sukutni qoldirgin.



* * *

Daraxtlar navdasi yalang'och,
Shilvirar kimsaday bechora.
Atrofni kuzatar har og'och,
Dardlariga axtarar chora.

Tomchilar yomg'ir ham yuzimga,
Nahotki, hech aytar yo'q so'zim?!
Qayrilib qarayman izimga,
Begonaman o'zimga o'zim.

Daraxtlar navdasi yalang'och,
Shilvirar kimsaday bechora.
Ey dunyo, menga ham bag'ring och,
Dardlarimga chora top, chora!

* * *

Xazonlar ichinda yotar ezgulik,
Tirkashar qaro yer bag'riga asta.
Botin xira tortar, nadir ko'rgulik,
Nechun armon sarson yurak ufqida?

Yana boshim uzra suzadi bulut,
Sirli liboslari qora matodan.
Ayroliqdan ko'ngil bo'ladi bexud,
Xona ichra xayol kezar sargardon...



Kuz ham kuzligini qiladi oshkor,
Faqat muhabbatning yaprog‘i bekuz.
Ko‘chirar ruhimni bemehr so‘zlar,
Sekin kutib olar muyulishda kuz...





KUZGI BOG‘LAR

Kuzgi bog‘lar yana sarg‘aydi,
Xazonlar uchadi yo‘lchiday.
Bog‘lar kezar misoli daydi,
Ular qish faslidan elchiday.

Oqarib ko‘rinar kengliklar,
Kengliklar ko‘rinar bir g‘arib.
G‘oyib bo‘lgan kabi tengliklar,
Olam go‘yo ketganday qarib.

Xavotir cho‘lg‘adi bu ruhim,
Shamolga talpindim nihoyat.
Ko‘ngil bog‘larida uyg‘ondim,
Yuragimda arzu shikoyat.

Yuragimni ezib bearmon,
Bog‘larimda kuz nola qilar.
Go‘yo kuzdan hadya, armug‘on
Xazonlarin havola qilar.



* * *

Bag‘rim vayron qilar taqdir shamoli,
Tamomila olgan farog‘atimni.
Bag‘rimni o‘rtamoq uning a‘moli,
Yakson qilmoq huzur va rohatimni.

Hamdard kimsa kabi holimga shu dam,
Derazam ortida mung‘ayar daraxt,
Taqdirga tan bermay sira ham bardam,
Shubhasiz mardona axtaraman baxt.

Va lekin shafqatsiz taqdir shamoli,
Charx urar boshimda, ketmas hech nari.
Yov kabi beshafqat uning a‘moli,
Go‘yo do‘zax kabi beomon qa‘ri.



* * *

Daraxtlar bir g'amgin shivirlar,
Yuraklarda qoldirib dog'in.
Men uchun bu qadrdon bu qirlar,
Yodga solar bahor gulbog'in.

Yuragim qoplagan sir, qurshov,
Sap-sariq tuyg'uga mengzamish.
Qalbimda yonadi bir olov,
Tinch qo'ymas xayolim bir kechmish.

Ruhimda tug'yona ming shiddat,
Bag'rimga urilar har yaproq.
Ko'klarga ko'tarar bezahmat,
Qaniydi so'nmasak ertaroq?

Ko'ngilni kuz bosar bag'oyat,
Oh, hechdan yetmagan talofat!
Bog'larni mahv etdi nihoyat,
Fasli xazon – beomon ofat!



* * *

Sitamlar sochilmish xazon simirib,
Og‘irmish shodlikni yelkalab yurmoq.
Ko‘ngilga cho‘kmoqda armon chinqirib,
Shamollarda uchar xazon bir yaproq.

Seskanib daraxtzor xo‘rsinar har dam,
Bulturgi yaproqlar sasidir chog‘i.
Shu choq shitirlaydi hazin yaproq ham,
Xazonlar to‘kilar za‘far bo‘yog‘i.

* * *

Bog‘larga yana bir kuz yetib keldi,
Xazonlarni shamol uchirar mudom.
Dalalarda mezon yellari eldi,
Kunlar ham qisqarib qorayadi shom.

Xastahol dilimda yozning armoni,
Xastahol dilimda intizorlik tor.
Va lekin muqarrar kuzning farmoni,
O‘rtaga tusholmas dallolu attor.

Bog‘larni kezarman kuz bilan birga,
Kuz asriy tarona kuylar mastona.
Uning tarovati sig‘mas ta’birga,
Sig‘maydi na she’ru va na doston-a.



* * *

Shom cho'kadi bog'larga asta,
Ufqlarni qoplaydi zulmat.
Zim-ziyo tun misoli xasta,
Dardu hasrat bilan u ulfat.

Oy kezadi samoda sarson,
Topolmas hech sokin bir ma'vo.
Zim-ziyo tun bag'ri ham larzon,
Zulmat ichra dimiqqan havo.

Tun bag'rida ming bitta savol,
Tun bag'rida inglaydi bog'lar.
Faqat dardu hasrat bezavol,
Mangu faqat hasratli dog'lar.

* * *

Tentirar vujudga adashgan hasrat,
Onlar ham oqmoqda boshqa yo'sinda.
G'oyib sirlaringdan voqifmas kasrat,
O'zganing hasrati – yotdir ko'ksimda.

Oq qushlar samoda kezar bir nafas,
Ketgisi keladi ko'ngil misoli.
Daxlsiz kenglikka qilmaydi havas,
Axir, esayotir kuzning shamoli.



* * *

Daraxtlar barglarin uchirib shamol,
Tavhid bog‘larining yoymish bo‘ylarin.
Falakda yulduzlar g‘oyat betimsol,
Anglaganday oshiq dilim o‘ylarin.

Vo ajab, xayolim mudom parishon,
Ishim yo‘q hech qoshi qunduzlar bilan.
Dunyoni batamom unutib, ishon,
Sirlashaman faqat yulduzlar bilan.

* * *

Bir go‘zaldir qish ham o‘zgacha,
Oq libosda turar jilmayib.
Muzlarini sanchar yergacha,
Osmon qadar nozi o‘rlashib.

O, qish ichra qotadi armon
Bahorgacha muzlar chorasiz!
Mizg‘ib yotar behush bir zamon,
Sovuq mayllarga cho‘kib tiz...

Qora sirlar sirlikcha qolar
Qishga cho‘mib sirlarin mudom.
Tun qorayib sekin oqarar,
Yorug‘ kunlar xayoli zo‘r kom...



* * *

Bardosh, o'zingsan suyanch,
Muhtojman, senga bayot.
Terskay kabi zo'r ayanch
To'sar ko'z yoshing hayot...

Yurak ichra ming armon
Osmon uzra chaqinday,
Milt-milt yonadir har on,
Har lahza yodim ul oy...

Shamol esar beayov,
Yovday, lekin mehribon.
Ko'nglimga solar bedov,
Yetaklar go'yo sarbon.

Bechidam yellar yelar,
Qorli tog'ni siypalab.
Yalang bag'ring yaralar,
Shox-shabbalar tilkalab.

Izg'ir-izg'ir bearmon,
Supurib qor bag'rini.
Qon qusar ming bir omon
Cheki yo'q nafratini.



Turtib sovuqni o'tinch,
Solar yo'l biz tomonga.
Lekin o'tolmagay hech,
Ming bir to'sin bor unda...

Tog'lar uzra qasdma-qasd,
Tuman o'rlar betoqat.
Shilvirar cho'pon behad,
Tunu kun chekib zahmat.

Cho'ng dard ichra chorasiz –
Yuraging tirnar alam,
Oqar tunu kun mungsiz
Xun o'rnida ming bir g'am...



* * *

Kuzning qiyog'ida og'indi armon,
Chog'irday chayqaldi tomchi anduhlar,
Tashvish to'la bag'ir bunda shodumon –
Chizganda yurakka qiyoq hasratlar.

Qucharsan ko'klarni to'linoy yanglig',
Tegrangda aylansa tuyg'u tentirab.
Cheksizlik izmida tovush nechog'lig' –
Sukunat qo'yniga bosh qo'yar mudrab.

Yurakning tubinda zig'irday otash –
Hurkib lovullaydi kech kuz bog'inda.
Chivg'indi hasratlar bunchalar bebosh?
Ruhimni cho'lg'aydi quvg'in chog'inda.

Sensizlik ichramen, sinchim surindi,
Sinmasin lahzaning kosasi, ey vaqt!
Kechmishni qayg'uzor tutmasmi endi
Sening xotiringga to'kilsam bevaqt?



* * *

Ko'ngilni bir inja anduh ko'tarar,
Beustun falakday turar tunu kun.
Yozning alangasi boshdan quyilar,
Kunduzlar munavvar va iliq har tun.

Yetib keldik, ey do'st, yozga ham mana,
Bahor o'lkamizni tark etdi oxir.
Bundan buyon endi bizni har sana,
Kuz fasliga yaqin aylagay sohir.





SENTABR

Kuzgi bog‘lar nafis naqadar,
Yaproqlari yastangan yerga.
Tarovatin men imkon qadar,
Solsam deyman go‘zal bir she’rga.

Mevalari bol kabi larzon,
Soni boru sanog‘i yo‘q hech.
Aslo desang kuz – fasli xazon,
Bahor paytin eslatar har kech.

Kuz bog‘lari g‘oyat rang-barang,
Tabiatning bir bezagidir.
Sentabr! Sinchiklab qarang,
Kuz bahorning egizagidir.



* * *

Kuz avvali bag'irlab bog'lar
Oshiqadi u sari izg'in.
Og'ib borar, ne yakun topar,
Unutganday kuzning adog'in?..

Kuz qarshingda qad rostlar ma'yus,
Oqargan sochlaring siypalab,
Uyg'otar bor-shudingni, tinmas
Yuragingga boqar mo'ralab.

Ko'z ochib yumguncha o'tadi bari,
Uziladi tuyg'u yaprog'ing,
Jisming sovib, ruhing sarg'arib
To'kilasan, yolg'iz siyrating!

Kiprigingda qotib qolar kuz,
Kutib olar sovuqqina qish,
Qadalar yurakka parcha muz,
Surinar bir xazon boyaqish.



* * *

Menga bog‘ qo‘ynida kuz chiqdi peshvoz,
Bog‘ ichra yana bir kuz kutib oldi.
Qushlar bilan qildi yuragim parvoz,
Saraton tafti ham birdan yo‘qoldi.

Mastona men xazon yellari bilan,
Larzon bog‘lar ichra kezdim mastona.
Zaminning jamiki ellari bilan
Yayradim tug‘ishgan kabi do‘stona.

Jannat kabi a’lo hayot gulshani,
Ona zamin ichra begona-yot yo‘q.
Biz uchun muqaddas shavkati-sha’ni,
Yerdan o‘zga joyda bizga hayot yo‘q.

Menga bog‘ qo‘ynida kuz chiqdi peshvoz,
Bog‘ ichra yana bir kuz kutib oldi.
Qushlar bilan qildi yuragim parvoz,
Saraton tafti ham birdan yo‘qoldi.



* * *

So‘lg‘in nigohlarda hasrat beadam,
So‘lg‘in nigohlarda beadam armon.
Tangrim, kuz kunlari o‘zing ber madad,
Barcha dardimizga bo‘lgaysan darmon.

Nainki olamda bor inson zoti,
Sen bilan payvasta qilar so‘zini.
Qo‘lingda barchaning hayot-mamoti,
Hukmingga topshirgan barcha o‘zini.

* * *

Garchi najot istab domga yo‘liqdim,
Garchi dardu hasrat bilan to‘liqdim.

Gar xazon singari rangu ro‘y bilan,
Yana payvastaman xayol-o‘y bilan;

Go‘yo lochin kabi uchar xayolim,
Yuksak samolarni quchar xayolim.

To juda sarbaliand ruhim xiromi,
Kishan bo‘la olmas zaminning domi.

Lochin kabi qanot bog‘lab ucharman,
Yulduzlarni men ham shitob qucharman.



* * *

Kuzning g'amgin xazon bog'larin kezdim,
Yaproqlar dardlarin menga so'zladi.
Ular hasratidan bag'rimni ezdim,
Xazonlar go'yoki sassiz bo'zladi.

Za'faron g'amdiyda bu kuzgi bog'lar,
Bahorni yodimga soldi daf'atan.
Bag'rimda banogoh ko'paydi dog'lar,
Taqdirga shubhasiz men ham berdim tan.

Kuzning g'amgin xazon bog'larin kezdim,
Yaproqlar dardlarin menga so'zladi.
Ular hasratidan bag'rimni ezdim,
Xazonlar go'yoki sassiz bo'zladi.

* * *

Qaqshatar ruhimni tuz hayratlarim,
Nahot, singib ketdim kuzning bag'riga?!
Lek yurak tarozubon kuzdan minnatdor,
Haqsizlik erk uchun ming qabr izlar...

Jonga oro berar kuzak bemajol,
Oqargan sochlarni siypalab shamol.
Barglar kabi bir parcha ko'ngil,
Osilib turadi navdalar uzra...



Oshkor etay deysan bir so‘z axtarib,
Afsus, ilhom kelmas so‘zga burkanib.
Bir so‘zim bo‘g‘zimda qamalgan go‘yo,
Kuz ichra qamalib yotibman ro‘yo...

Xilvatda to‘kilgan bag‘rimga kulib,
Goho hushtak chalar kuzning tuynugi.
Qahr bilan boqar zog‘lar qag‘lashib,
Bu zabun ahvolim bilib-bilmayin...

Uchar xayollar ham mahzun bir nasim,
Faqat o‘chmas dildan kadar hech bir on.
Kuz ichra jonlanar g‘amgusor nadim,
Toparsiz oltin kuz darsxonasidan!..



* * *

Ko'nglimni o'rtaydi bodu xazonlar,
Yaproqlar sarg'ayish onida faqat.
Faqat yuragimda og'ir anduhlar,
Faqat sen bilandir oniy haqiqat.

Qaraysan atrofga, kuz – fasli xazon,
Chortaraf anduhlar sochilar tamom.
Bog'larning bag'rida xazonlar larzon,
Sukunat qa'riga cho'kkan batamom.

Kuz ichra ko'nglim ham g'am bilan to'ldi,
O'y va xayollarim kuzga hamohang.
Kuz ichra rosti gap bo'larim bo'ldi,
Dunyoni tor qildi bu g'amgin ohang.

Bog'lar ichra larzon xazonlar bisyor,
Kuz ketib boradi shamollar bilan.
Taqdirning qo'lida inon-ixtiyor,
Men ham odimlayman xayollar bilan.

* * *

Dardi hijron bilan tutoqib,
Vujudimni bosadi titroq.

Shu top ma'yus ko'zlarga boqib,
Sog'inasan yor vaslin biroq...



* * *

Xayolning cheki yo‘q, yo‘llari og‘ir,
Sog‘inch yuragimni ezar xazonday.
Ruhimga soladir hadik shamollar,
Kuzlarga yetishti shukrim yaproqday.

Sarg‘aymish olam ham ustuxon kabi,
Go‘yo qon o‘rniga oqar sho‘r nolish.
Juda ham beshafqat taqdirning ta‘bi,
Tosh kabi ba‘zida pardayin bolish.

Horg‘inlik yetishti unvonsiz betin,
Beunvon o‘sdi-ku g‘am ham aslida:
Daraxtga o‘yilgan naqshlar beun,
G‘am bilan o‘rtadi xazon faslida.

Ortimdan ergashar yaproq mung‘ayib,
Gar kuzning bag‘rida to‘lg‘anar bog‘im.
Hamon yuragimda olam g‘aroyib,
Hamon men bilandir bolalik chog‘im.



* * *

Xazonlar shitirlar bir hazin,
Shamol bog‘da kezar erinmay.
Minora ustida muazzin,
Ibodatga chorlaydi tinmay.

Tong yorishmas – chekinmas zulmat,
Go‘yoki yo‘q osmon poyoni.
Menga yana ming hasrat ulfat,
Hasratlarki, yo‘q hech bayoni.

Osmonda oy kabi yolg‘izman!
Parvardigor yolg‘izning yori.
Asrlarga payvasta izman, –
Armon mulki aziz diyori.



* * *

Iztirobli kuzning nigohi,
Yuragimni o'rtaydi xasta.
Xazonlarning ohista ohi
Bilan dardu g'amim payvasta.

Keng samoni to'ldirib tamom,
Bulutlarning karvoni kezar.
Xayollarga ko'mib beorom,
Yuragimni ular ham ezar.

Xazonlarning ohista ohi
Bilan dardu g'amim payvasta.
Iztirobli kuzning nigohi
Evoh, qilar yana ham xasta.



* * *

Muz parchadan to‘qib ro‘molcha,
Qish qahrini qadaydi menga.
Xayolimni o‘qiydi muncha,
Haroratim so‘ndirar nega?

Bilsam qish ham o‘sib armondan,
Baxt qasrini beribdi kuzga.
Oqsoqlanib yurar mendayin,
Diloynaga solib bezakcha.

Sen ruhimda yonding silkinib,
Vujud ichra oq hiddir butun.
Samolar ham ketti siltanib,
Qo‘ndi qorlar ko‘ksimga bu tun...

Chiroq o‘chdi, uchdi sukunat,
Qorlar uchar tinglab kechani,
Shu kechaday uzundir hasrat,
Tor ko‘ngilda chaldi kuyini...

Ko‘zlarimdan oqqan muz suv xam,
Qish ohiday bas oqa boshlar.
Bordir unda ishonch, matonat,
Bordir unda oppoq ko‘zyoshlar.



* * *

Savashdi yurakni momiqday,
Yomg'ir-da savalar tinmayin.
Xayoling gohida saktaday,
Yulqib ketar shamol betayin.

Bir sarir ko'rinar toza suv,
Sharqirab chanqoqni oshirar.
Ufqlar za'faron, buncha quv,
Zavqingni daf'atan toshirar.

Taning titroq bosar zil-zambil,
Yo Rab, qanday titratmadirsan?
Chidamoqqa qay bir zot qobil,
Sen ne azob, aytgin, nadirsan?

Hayotim shomida, yo Parvardigor,
Keng dunyoga arang sig'ayotirman.
Kuzda za'faronu hamda zarnigor,
Hasratlar hosilin yig'ayotirman.



* * *

Nihoyat daf'atan o'nglansa ishim,
Ko'nghlimni armonlar tamom tark etsa.
Ko'nghlimda qolmasa zarra tashvishim,
Ohu nolalarim Tangriga yetsa...

Gadoyu shohni ham nazarga ilmas,
Qaydan ham tushunsin beishq dahri dun.
Qasdlashgan singari hech shafqat qilmas,
Yuraging beshafqat o'rtab qilar xun.

* * *

Daryo bag'rin suv yuvar,
Ketmas dildagi dog'lar.
Xasta ko'nghlimday mustar,
Kuzga yuz tutgan bog'lar.

O'yar bag'rim xiyonat,
G'amsiz diyonat ayanch.
Umr sarboni hayot,
Lahzalar tog'day tayanch.

Dil og'risa ko'rinmas,
Hech tuzalmas yara bu.
Iztiroblar ham tinmas,
Shunchalar ham sara bu.



* * *

Yurakka yetishdi zamoniyl bir soʻz,
Tanu jonda mador qolmadi.
Bu soʻz shunday aytili besoʻz,
Takrorlab hech jonim tolmadi.

Bu qandayin hijronidir axir,
Na boshi bor, na-da adogʻi.
Pariyshonman hijronday taxir,
Xasta jonim kuygandir dogʻi.

Hasrat bilan soʻz ichra basir,
Ichu jonim aylanmish muzga.
Soʻz ruhiga boʻlgancha asir
Peshvoz chiqdim yana bir kuzga.



* * *

Holbuki, bexazon bog‘lar bo‘lmaydi,
Unutar inson goh asriy sirlarni.
Hamyon to‘lsa hamki, ko‘ngil to‘lmaydi.
Ba‘zan sog‘inasan qir-adirlarni.

Qir va adirlarda o‘zga tarovat,
Yangraydi bag‘rida o‘zgacha bayot.
Jannat bog‘lariga xos bir halovat,
Mening bolaligim unda barhayot.

Choparman adirlar tomon begumon,
Ularning bag‘rida qarorim ahdim.
Qirlarni ziyorat qilmay qay zamon
Bag‘ridan toparman yo‘qolgan baxtim.

* * *

Samoga boqarman, cheksiz samoga,
Gar samo xayolim rom qilar tayin.
O‘rin qoldirmasdan hech muammoga
Insonning sha’niga alyor aytayin.

Yuragim shavqlarga to‘lgancha shoyon,
Qasida bitarman shimargancha heng.
Ne uchun kuylamay seni, ey inson,
Insonning botini samodan ham keng.



* * *

Yoz oxirlar ko‘zyosh to‘kmayin,
To‘kinligin kuzga ko‘z-ko‘zlab.
To‘yib ichar bardosh oxirin
Go‘yo ketar bor-budin tashlab.

Kechalari shivir-la o‘tar,
Bosging kelar bag‘ringga yozni.
Saratonda da’f’atan behtar,
Sog‘inasan ba’zan ayozni.

Yoz nurining kichik zarrasi,
Porlab turar nurli ko‘zdayin.
Sukunatning g‘amgin nolasi,
Oy nuriga singar bo‘zdayin.

Yugurarman, bog‘ esa jimjit,
Ruhim ichra zo‘r hadik solar.
Samovotda nuqraday jimit,
Yulduzchalar xayolim olar...



* * *

Yuragimni qopladi bir she'r:
Tuynugidan otildi zo'r joh.
Bulutlar-da sarxush xo'rsinar,
Ozodlik ham bag'rin etur choh.

Qurt-qumursqa bazo'r paypaslab,
Pastlab uchgan qushlardan qochar,
Qismat uyin shundan axtarib,
Allaqanday sehrlar sochar.

Horg'in ko'ngil uyda dimiqar,
Kutar ko'm-ko'k maysalarini.
Kuzu qishdan hamon yotsirar,
Unutolmas lekin barini.



* * *

Quyosh ufq uzra asta qo‘yar bosh,
Daraxtlar tik turar mardona hamon.
Keladir ufqdan rangin bir nurposh,
Tinmayin charx urar zaminu osmon.

Hukm etar osmonda zarra shafaqlar,
Qandayin taskin bu – falaklar qadar?
Yorqin yulduzlar-da kuylaydi alyor,
Sukunat kunjida faqat daraxtlar.

Tag‘in sajjodaga bosh qo‘yar inson –
Ertangi umidlar orzusi bilan.
Iqbol sari nazar tashlaydi hamon,
O‘tmish va zamonning ko‘zgusi bilan.

Ibodati, men senga asirman doim,
Asrlik zahmatni ko‘targum boshga.
So‘zsiz yuksaltirar meni Xudoyim,
Boshimni yetkazar yuksak quyoshga.



* * *

Hasratlarga bosh bermas yurak,
Metin kabi sabru bardoshi.
Irodasi shubhasiz beshak,
Ojiz hatto taqdirning toshi.

Sinovlarning barchasi o'tar,
Tutqich bermas kunlaru tunlar.
Jafolarga to'lib ham ketar,
Nogoh tortsa ohlaru unlar.

Garchi qattiq sinov-imtihon,
Barchasiga chidaydi odam.
Qalbda sirli bir qudrat pinhon,
Tangri go'yo hamrohu hamdam.

.



* * *

Qor aralash yog‘moqda qayg‘u,
Bir tosh kabi qotmoqda armon.
Bormi unda muhabbat tuyg‘u?
Qahru g‘ussa yog‘ar bearmon.

Mardum ichra quyildi tuman,
Mo‘r-malaxday yopirilar dardlar.
Kechmish sari sudralar beman,
Dardlar bilan payvasta gardlar.

Uvlay-uvlay toldi qoyalar,
Bir xasdayin yukundi bag‘ir.
Oppoq qorga qorildi dog‘lar,
Buni hech kim sezmani, axir.

Tunday qaro dahshat uyg‘ondi,
Mudroq qalbim hasrat kemirib.
Hasrat nafari nihoyat qondi,
Xasta bag‘rim so‘zsiz yemirib.



* * *

Yeru osmon sukut bag'rida vazmin,
Bag'rimni o'rtaydi tinmay armonlar.
G'amdan ezilmadim, haqsizlik ezdi,
Ruhimga begona g'ayri zamonlar.

Dunyodo'stlar yaqin kelmish qoshingga,
Soya soldi bulut boshimga bu kech.
Tasanno aytaman tosh bardoshingga,
Ming bitta zarbdan ham darz ketmadi hech.

* * *

Yuragingni erkalar shamol,
Yoz bo'yi og'inib cho'llarga,
Sog'inib uradi bu savil:
Aylanar bir chimdim parchaga...

Yalang bag'ring tilkalar tikan,
Shox-shabbalar tirnab ust-boshing.
Qaqshar bunda bag'ri xun,
Tinglamos hech dahri dun...



* * *

Yuragimda yo‘q aslo surur,
Yuragimda botmon-botmon g‘am.
Yo‘qolganda iroda, g‘urur,
O‘zligin ham yo‘qotar odam.

Vasli armon go‘zal parivash,
Yana qildi yo‘llariga zor.
Yana hijron ichra ko‘nglim g‘ash,
Yana ko‘nglim zoru intizor.

Yuragimga cho‘kdi qora shom,
Shod bo‘lmadi biron-bir damim.
Yana bezovtayu beorom,
Yana dardi hijron hamdamim.



* * *

Yana o'sha chinor tagida,
Xayollarning og'ushida mast.
Sir va asror ishq ertagida,
Raqs tushar chinor zabardast.

G'amgin holat ruhimga hokim,
Junjikadi etim bir zamon.
Mastonavor aqlu idrokim,
Muhabbatga tashnaman hamon.

Bir parining fikru xayoli,
Yana meni qilar devona.
Kulgan kabi baxtu iqboli
Raqs tushar chinor mastona...

Tebranadi chinor yaprog'i,
Yuragimni bazo'r chatnatib.
Zil-zambilday yomg'ir qadog'i,
Adog'i yo'q armon sachratib.

Tavonimni siypalar g'ivir,
Qadoqlaydi ayog'ni kasrat.
Shunda armon qondayin ivir,
Yuragimni ezib ming hasrat...



Goh koʻzda suv, koʻngilda qaygʻu,
Qotib qolgan sogʻari muzlab.
Osmon uzra bulutlar mangu,
Toma boshlar yomgʻir savalab...

* * *

Siqiladi yuragim goho,
Keng olam ham tuyuladi tor.
Beshafqat bu qismat ham borho,
Savdolashar misoli attor.

Goho hayollarim parishon,
Tutqich bermas shamol singari.
Hasratlarga goʻyo men nishon,
Hasratlarki, hadsiz jangari.

Axtaraman dilimga taskin,
Topilmaydi bir najot biroq.
Xayollarning domida miskin,
Xotirjamlik yiroqdan-yiroq.

Biroq hayot etadi davom,
Bahor daryosiday toshadi.
Tashna koʻnglim nainki quvonch,
Dardu hasrat sari shoshadi.



* * *

Ba'zida da'ftan hatto boshpana
Boshingga o'pirilib tushar zil-zambil.
Sira ham shubhasiz qay bitta sana,
Oqar daryolar ham bo'lmas salsabil.

Qafas qaydi aro bulbul besabr,
Tutqunlik komida mahkumdir betin.
Hamono bosh uzra toshdayin qabr,
Begumon totgaysen o'lim sharbatin.

* * *

O, qandayin o'tdi suronlar,
Girdobida, o, men ham beshak.
Yuragimga soldi tug'yonlar,
Haq nohaqni ajratmoq kerak.

Qamchilaydi daf'atan shamol,
Shafqat nima – bilmaydi sira.
Zarblariga chidamoq mahol,
Ko'ngil tortar shubhasiz xira.

G'imirlaydi har on tuyg'ular,
O, naqadar achchiq g'ussa bu.
Go'yo mayna qilib ham kular,
Adog'i yo'q asriy qissa bu.



Go‘yo juda mohir merganday,
Yuragimni nishonga olar.
Go‘yo qattiq zarba berganday,
Bir zarbaning o‘zida tolar.

Shivirlaydi daraxtlar zabun,
Yana o‘rtar joni zorimni.
Yana qilar ko‘nglimni mahzun,
Yo‘llaringda intizorimni.



* * *

Yupun bu shaharda, goh axgar bog‘da,
Nimalar istadim qistab ko‘nglimni?
Bormikan bir imkon, bormi oyanda,
Qarg‘a-quzg‘unlar-da kutar na‘shimni?!

Qandayin sehrdir sevib sevilmoq?
G‘aroyib ko‘rinar bu g‘arib olam.
Ishqsiz bedardlardan omonsan shu choq,
Muhabbat kuyida sovirar alam.

Behuda gaplardir quritar tinkang,
Voz kechib kecharsan neki shu yo‘lda.
Taajjubli dunyo qilar yap-yalang –
Rahm-shafqat yotdir, bari behuda.

Hijronning azobi berib zavqu shavq,
Daxlsiz kengliklar bo‘lar makoning.
Gohida bo‘larsan xayollarga g‘arq,
Umr so‘qmalarin sezmay nazaring.

Bori xayollaring bo‘lsa-da sarob,
Baribir shu xayol sening imkoning,
Kutarsan umrning oqishin shitob,
Tashlab ketolmaysan to hatto ruhing...



* * *

Kechadir chaqinlar kuladir,
Yodga solib mehmonligimni.
Holimga bulut yosh to'kadir,
Kechib go'yoki jon mulkini...

Ishq hajri sovurar kulimni,
Tomchi o'rniga yumaloq dur,
G'am o'rniga xarsang toshni,
Sochmoq uchun osmon ochilur...

Yog'a boshlar yog'inlar shitob,
Bosh ko'tarar ko'ngilda armon.
G'am sirlari bo'lar bir kitob,
Xotiringga maloldir hamon...

Yorug' gulshan aro mehr yo'q,
Qop-qorong'u ko'rinar dunyo.
Ko'ngilda rahbarlik qilar ishq,
Oqarar tong kabi armon go'yo...



* * *

Tabiat chohidan chiqolmas hayrat,
Hajr chun yaralgan zulmatli tunlar,
Qalb ichra quyunlar izg'iydi faqat,
Poyimda tubsiz ko'l, ko'kda tutunlar.

Uzlatga qochasan chiqarolmay bosh,
O'rtaydi tahqiqlar yurakka yetib.
Taqdirga noiloj berasan bardosh,
Axir ketolmaysan butkul tark etib.

Taqdirga sira ham tan bermagin, tan,
Hamisha baland tut g'olib tug'ingni.
Lochinday yuksalib sen ham daf'atan,
Samoga payvasta qilgin ruhingni.

* * *

Shamoyillar o'zgarar har tong,
Xuddi tushday uchar sharpalar.
Tuyg'u shunday evrilar bebong,
O'z ishini qilar tafakkur...

Ko'klam kelar sezdirmay asta,
Oshkor qilar lek murtak nihol.
Zo'r berib barg yozar daraxtlar,
Xasta shoir bosh egar behol...



* * *

Oyoqyalang kezdim bog‘larni,
Vujudimga sarxushlik indi.
Unutarkan dilda dog‘larni,
Olam jannat bo‘lib ko‘rindi.

Yaqin bo‘ldim unga shu qadar,
Ruhim yayrar mastday mastona.
Qarash ichra uyg‘ondi badar,
Poyim uzra tillo ostona.

Shamol qo‘shiq aytar izma-iz,
Izlarimni bosti chang-to‘zon.
Shodlik tomon yuzlanib hargiz,
Gumonlardan kechdim begumon.

Shomu sahar ohlari bir xil,
Bog‘day dog‘li kecha misoli.
Ko‘zda nam yo‘q, g‘ussali ko‘ngil,
Chorlar yana orzu hiloli.



* * *

Juda ayanchlidir yo‘qolsa zavqing,
Orzu ikkilanib qolar o‘shanda.
Daf’atan begona bo‘lar bor shavqing,
Dunyo deb atalgan ko‘hna gulshanda.

Dard og‘rig‘i qaytib moviy tong otar,
Moviy ufqlarni dog‘da qoldirib.
Bepoyon kengliklar bag‘riga tortar,
Bag‘ringga shiddatu suron soldirib.

Tingla sen, tinglagin siniq sadoni:
Tog‘lar uyqusidan tura boshlaydi.
Dardlarim yuvardir menday adoni,
Osmon yomg‘irlarin yerga tashlaydi.

* * *

Chalindi go‘yoki qadimiy cholg‘u,
Yurakni hovuchlab eshitdek uni.
Yomg‘ir shiviriday chevrildi qayg‘u,
Boshim uzra yana hasratlar kuni.

Yuraklar tosh qotgan, yo‘q aslo shukuh,
Ko‘ngil ochligiga chora yo‘qmi hech?
Hech chidab bo‘lmadi, sochildi anduh,
Hilolsiz yashamoq mumkinmi bu kech?



Chor taraf zulumat, ignaday nur yo‘q,
Nochor suqurlarday g‘imirlaysan, bas.
Bag‘ringni ming pora qilgan kabi o‘q,
Fig‘onlar tortasan nogoh basma-bas!

Osmon uzra uchar qushlar tinmayin,
Chopar kengliklarga suruv daf’atan.
Bag‘ringda iztirob, shodlik inmayin,
Taqdirga sira ham berging kelmas tan.

Va lekin to hamon sobit, umidvor,
Olis kengliklarga boqasan shaydo.
Yana Tangri o‘zi bo‘lar madadkor,
Yana yuragingda shijoat paydo.



* * *

Sanchildi ko‘z ichra g‘uborlar,
Xayollar mast qilar tush kabi.
Alamlar to‘kildi, yulduzlar,
Samoga yuksalдим qush kabi.

Kezdim goh bir g‘arib bog‘larni,
Kimsasiz cho‘llarni axtarib.
Yurakdan sidirib dog‘larni,
Sultonday yayradim men g‘arib.

Begona, bas, ortiq g‘amxona,
Yo‘l yurdim mastona mast kabi.
Boshimda porlardi yagona,
Ham baxtu saodat kavkabi.



* * *

Daraxtlar mudraydi sukut qa'rida,
Ochilar shubhasiz kurtaklari ham.
Ko'klam, sirlarini eltib barida,
Shoshib sen tomonga oshiqar hamdam.

Turnalar galasi yana saf tortar,
Qalbing ham ularday shay parvoz uchun.
Munavvar ufqlar xayoling tortar,
Otashin bag'riga chorlaydi ochun.

Mastona saodat sharobi bilan,
Tuyg'ular yuksalar samoga qat-qat.
Orzu-umidlarning sarobi bilan.
Daf'atan payvasta sabr va toqat.



* * *

Chorlaydi betoqat ufq marrasi,
Orzular karvonday ketib bormoqda.
Zig'irday bo'lsa ham tovush zarrasi,
Yurakning qatiga yetib bormoqda.

Yangraydi banogoh hayot xitobi,
Noayon manzillar tomon boshlaydi.
Lek ba'zan bir sovuq qarash shitobi,
Tuyg'uni chilparchin qilib tashlaydi.

Lojuvard osmonga boqarsan nechun?
Zumradrang maysaning anglab shevasin.
Yana senga takror tutadi ochun,
Alamli armonlar achchiq mevasin.

Yurakka yog'ilar ishqning o'qlari,
Ko'z yoshlaring oqar misli marvarid.
Daf'atan alamli o'ylarning bari,
Bag'ringni o'rtaydi, o'rtar bemavrid.



* * *

O'tib ketdi bari shundayin,
Elas-elas xotira qoldi.
Inmoqda-ku mahzunlik sayin
Yuragimdan orom yo'qoldi.

Shamoyillar o'zgarar har tong,
Xuddi tushday sharpalar uchar.
Tuyg'ularim charx urar bebong,
Lochin kabi samoni quchar.

Ko'klam kelar sezdirmay asta,
Oshkor qilar navrasta nihol.
Yana zamin, samo payvasta,
Yana sarmast aylagay iqbol.



* * *

Tog' uzra bulutlar turishin qara,
Toshlarga urilgan xayolday sachrar.
Yurakka o'yilgan naqshinlar sara,
Bulutlar ichinda shitobi sarsar.

Gulgashti chamanni kezganman bisyor,
Benavo bo'lsam ham eshitib navo –
Bulbullar shevasin uqqanman bir bor,
Baribir men seni deganman, illo.

Gulg'uncha xayoling ko'nglinga sulton,
G'unchalar ichinda pinhon sinoat.
G'amlar chechagidan sabrim guliston,
Bu g'ussa baxsh etar g'ayrat, shijoat.

* * *

G'ussam sahrosidan o'tarsan ogoh,
Sirli sukunatim anglarsan chog'i.
Mumday eriyotgan dardlarim nogoh,
Ko'rib yuragingga olmagin dog'i.

Ba'zida so'zim ham bermas tasalli,
Aqalli bir so'z ham kelmaydi aytging.
Qaytib qaytolmaysan devona dalli,
Turmading ahdingda, yo'q sadoqating.



Sonsiz jafolaring o'sdi nayzaday,
Qadalmish axiyri yurakka, evoh!
Bu kun alam bilan netay, paydar-pay,
Dardu hasrat bilan oh tortaman, oh.

* * *

Yodga tushdi xayoliy bir on,
Men va xayol o'rtada zo'r g'am.
Chekinmadi g'am ham hech zamon,
Bo'sh kelmadi xasta yurak ham.

She'r yozmoqqa yurak-ku ojiz,
Ilhom zavqi har on ziyoda!
Ruh ichinda nimadir beiz –
Qalb kengligin kezar piyoda.

Barcha dardlar vatani yurak,
Yurak ichra yorning ko'zyoshi.
Axir, ayting, menga ne kerak,
Nahot botgan baxtim quyoshi?!

She'r yozmoqqa yuragim ojiz,
Ojiz ruhim, ojiz bu tanim.
Hijjalayman ishq so'zin hargiz,
Yoza boshlar ojiz qalamim.



* * *

Ilohiy visolni qumsaydi ko'ngil,
Yolg'izlik libosin kiygan onlar ham.
Taskin-tasalloni bilsaydi ko'ngil,
Hijron g'amlari ham bo'lardi malham.

G'ussa daftariga yomg'ir yog'ardi,
Yurakda bir inja g'ussa mavjlanar.
Go'yo ariganday bag'rimning dardi,
Quvonchim dengizday nogoh avjlanar.

* * *

Uvishib og'riydi yomg'irda jonim,
Lek qalbim yomg'irli kunda tin olar.
Shamollar kuydirar dardga darmonim,
Bir yo'la qalbinga g'alayon solar.

Zim-ziyo tun ichra bu ruh sag'irdir,
Yaltirar zulmatda yomg'ir marvarid.
Oh tortgan shamolmas, xasta bag'irdir,
Qorong'u kechada uvlab bemavrid.

Qoyaday mustahkam bo'lsin, bas, ahding,
Orzu-umid bo'lsin dardingga darmon!
Bir kuni topilar kadarli baxting,
Qadding buka olmas tog'dayin armon.



TASKIN

Izg'ir xayollaring samoni teshib,
Yechilar yurakning chegili go'yo.
Yuksak mavolarda ruhing adashib,
Ko'ngil maxzanini izlading tanho.

Holbuki, barchasi behuda abas,
Javdirab turibsan sevgidan judo.
Va lekin yagona taskin bordir, bas,
Hamisha sen bilan mehribon Xudo.

* * *

Tun ichra chaqinlar chaqnaydi,
Butun tun bermaydi halovat.
Asabing daf'atan chatnaydi,
Ko'rgan kabi katta talofat.

Oy, yulduzlar batamom g'oyib,
Ko'rinmaydi hatto paysa nur.
Yomg'irli tun ichra g'aroyib,
Faqat bir ruh kezadi mansur.

Bu ruh olib qochar xayolim,
Bu ruh tinchlik bermaydi sira.
Go'yo olis ahli safoyim,
Go'yo tortgan ko'zlarim xira.



Yomg'irli tun ichra sarosar,
Mansur bu ruh men bilan oshna.
Farhodlarga bo'lib barobar,
Kurashlarga bo'larman tashna.

Qanot bog'lar bu ruh banogoh,
Uchar shitob bag'riga olib.
Zamin guvoh, osmon ham guvoh,
Ne baxt, nogoh bo'larman g'olib.

* * *

Qop-qorong'u yo'lak boshida,
Yetmas qurbim, aftodadir ruh.
Vahimaning sirli qoshida,
G'oyib bo'lar daf'atan shukuh.

Hech bir tasalli yo'q, dil ixroj,
Sokin xayol tayanchim hamon.
Suyanaman yana noiloj,
Yurak-bag'rim to hamon vayron.

Qop-qorong'u yo'lak boshida,
Yetmas qurbim, aftodadir ruh.
Qahri qattiq taqdir qoshida,
Men xastahol, men yana majruh.



* * *

Hayratim oshadi daqiqa sayin,
Azoblar chohida xastadil ruhim.
Meni bu azoblar yengishi tayin,
Tark etar quvonchu zavqu shukuhim.

Va lekin daf'atan rostlayman qaddim,
Yuksalib ketaman samolar sari.
Bo'ronlar singari shiddatli haddim,
Charx urib ucharman ko'kda sarsari.

* * *

Oy yuksakda kezar viqor-la,
Tubanda moh aksidir dog'i.
Qish qahrini qadaydi muz-la,
O'sa boshlar yana ishq chog'i...

Muz ostida balqiydi quyosh,
Horg'in-horg'in oqadi jilg'a.
Osmon to'la beahkom bardosh,
Hapriqadi yurak tim uyda.

Tumushadi daraxtda qushlar,
Karaxt go'yo toshqotgan terak.
Sovuqqan qo'l betin shilvirar,
Bir parcha muz kabi bu yurak...



Ruhim uchar har taraf betin,
Hijron o'ti parin kuydirar.
Qulfahmlar qochar bu o'tdan,
O'chsa ham sham o'tin yoritar...

* * *

Hech zot bilmas, hech zot anglamas,
Ko'ngil siring sen bilan qolur.
Faqat Alloh voqif basma-bas,
Barchasini shubhasiz bilur.

Adil qaddim aslo bo'lmas xam,
Baxtinga sen borsan, Xudoyim.
Butun olam yuz o'girsam ham,
O'zing "Bandam!" degaysan doim.

* * *

Tinching ishq ichra pinhon,
Ishqsiz yuraging notinch.
She'rdir sen uchun har on,
Usiz yuragingdir hech.

Hijjalab ishq kitobing,
Murodingdir doim kom.
Yurakka sig'mas ohing,
Yomg'irday yog'ar mudom.



Ishqdir olamga yetar,
Toqatsiz urmasang bong.
Ohangli ko'ngil mustar,
Sargardon dasht ichra chang.

Gar istasang astoydil,
Sog'ar tutar lola ham,
Ishqqa payvasta bu dil,
G'am chekadir dam-badam.

Ochti sahar gul g'uncha,
Bir olamdir chiroyi.
Ne hol? Nadir bo'ynimda,
Bu ishq dardi kiroyi:

Albatta, dilimdasan,
Yurakni ezdi darding!
Men sening qismatdoshing,
Yana kimni axtarding?!

Mehrsiz deding meni,
O'zgaga endi yorsan.
Qanday unutay seni,
Nahotki baxtiyorsan?!

Ishq ahli hujum aylar,
Shitobi misli bo'ri.
Yaqin yo'latmas ular,
Hatto qalbingiz qo'ri.



Ko'ngil qayg'ular quchar,
Shodlikka eshdir faqat.
Lekin ruh yuksak uchar,
Quchar ruhim huviyyat:

Yor yodi bilan sarxush,
Sarxush ne hatto behush,
Mustar musicha xomush,
Ishqsiz hayot – go'yo tush.

Har on sen tomon safar,
Sensiz bardosh ham ketar.
Sening tomon shu qadar:
Qismat – o'limdan battar.

Yo Rab, ishq ichra yondim,
Balki aqldan ozdim,
Yuragim qoni bilan,
Men bu she'rimni yozdim.



* * *

Olovlandi daxlsiz shafaq,
Cheksizlikka payvasta boshim.
Baxtu iqbol bo‘lar muvaffaq,
Chidasa bas sabru bardoshim.

Tangri tog‘day qismat zalvori,
Farhod kabi mardona yurak.
Ko‘z oldimda baxtning uzori,
Menga nasib qilmog‘i beshak.

Haqsizlikdan g‘oyat darg‘azab,
Tomirlarda qaynab toshar qon.
Yuksaladi gulxanday tezo
Qahrim mening misoli vulqon.

Asriy hayot gulshani ichra,
Faqat ojiz qismatga ko‘nar.
Taqdir, senga tan bermam sira,
Hasratlarim quvonchga do‘nar.



* * *

Bormi meni o‘zi yo‘llarim,
Men uchun ham bormi hur makon?
Gar uzatsam men ham qo‘llarim,
Aslo quruq qo‘ymasmi zamon?

Yuragimning barcha qatori
O‘z qarori va o‘z ahdi bor.
Baxtli kimning qalbda bor nori,
Ahdi borning so‘zsiz baxti bor.

* * *

Qismat hukmi bizni ayirgan,
Ayro tushdi takror yo‘limiz.
Taqdir qanotimiz qayirgan,
Bizlarning ham bo‘m-bo‘sh qo‘limiz.

Ayroliqda yiroqdan-yiroq,
Ikkimiz ham xastamiz, xasta.
Bir-biridan kechmagan biroq,
Qalblarimiz hamon payvasta.



* * *

Sog'inib chiqdim yo'lga,
Baxtu iqbol qasriga.
Parvardigor, madad ber,
Dardu hasrat asriga!

Yo'limda ming bir dovon,
Biri-biridan baland.
Shiddatu shaxdim hamon,
Tog'lardan ham sarbaland.

Dovonlardan birma-bir,
Qushday uchib o'tarman,
Niyatim g'oyat kabir,
Baxtim quchib o'tarman.

Uchajakman qush kabi,
Shamol bo'lib choparman.
Yuragimning matlabi
Seni so'zsiz toparman.



* * *

She'r bilan yo'g'rilgan zuvolam mening,
She'r bilan payvasta jonu jahonim.
She'r nainki g'amu ham nolam mening,
Pokiza e'tiqod, toza imonim.

Asrlar asrorin so'zlab she'riyat,
Tashna yuraginga orom baxsh etar.
Ash'orga xos azal beg'ubor niyat,
Qalblarga ilohiy ishqni naqsh etar.

Hayotni sharaflab basma-bas mudom,
Bitarman necha bir she'ru qasida.
Ash'or dardi bilan mudom beorom,
Ash'or zavqi bilan qalbim rasida.

Shoir bilib aytgan shubhasiz, ey do'st,
"Bir kun butun dunyo she'r bo'lar go'zal".
Ko'hna bu zamin ham hech bekamu ko'st
Jannat bog'i kabi er bo'lar go'zal.



* * *

Yuragimda ming bir dardu g'am,
Qalbim dardlar bilan qovrildi.
Adil qaddim nogoh bo'lib xam,
Umidlarim ko'kka sovrildi.

Ketib borar yillar karvoni,
Talpinsam ham shitob yugurib;
Zimmam uzra yillar armoni,
Yetolmasman sira ulgurib.

Adil qaddim nogoh bo'ldi xam,
Umidlarim ko'kka sovrildi.
Yuragimda ming bir dardu g'am,
Hasrat o'ti bilan qovrildi.





NA'RA

G'aflat olamidan bulutlar yiroq,
Samoda kezadi besaru somon.
Yuraging o'rtagan singari firoq,
Ba'zan na'ra tortar o'rtanib osmon.

To tirik ekansan, g'aflatga botma,
Bulutlar singari oromingdan kech.
Vijdoning sira ham arzonga sotma,
Taftish qil sen uni har tongu har kech.

Beshafqat taqdirning ming bir tashvishi,
Yuraging daf'atan qilmasin yara.
O'rtasa telbavor dunyoning ishi,
Osmonday loqal sen ham tort na'ra.

* * *

O'zgacha bir sinoat xayol,
Og'ushida olarsan orom.
Ne g'am, bo'lsa yuragim behol,
Ne g'am, yurak mudom beorom.

To xayol bor, toki bor najot,
O'rin yo'qdir hech muammoga.
U lochinday baxsh etar qanot,
Olib uchar yuksak samoga.



* * *

Shamol uxlab yotar daraxtda sokin,
Ohista jimirlab daryo oqadi.
Sarbaland qaddini eggancha tamkin
Ularning holiga osmon boqadi.

Bepoyon dalada sukunat hokim,
Qaygadir bosh olib ketgan qushlar ham.
Daraxt soyasida asta hattokim
Maysalar bagʻrida mudrar tushlar ham.

Faqat daryo aslo bilmaydi tinim,
Asrlar qoʻshigʻin kuylaydi asta.
Daryo bilan birga nogoh betinim,
Kuylar dardlarini qalbim ham xasta.

* * *

Oniy vasl, mangu hijron,
Behuda oʻrtanma hech!
Asli besh kunlik jahon,
Turfa daʼvolardan kech.

Taqachi ham, temirchi ham,
Oʻtar shoh, oʻtar gado.
Bearmon boʻlgʻin xurram
Qolsa sendan bir sado.



* * *

Shamol xayolimni o'g'irlab ketmish,
Ortidan uchdim men samolar sari.
Daf'atan olis bir manzilga yetmish,
Lochin kabi parvoz qilib sarsari.

Bir olam namoyon ko'zim oldida,
Jilva qilar edi go'zal bir olam.
Men javob beraman so'zim oldida:
Meni asir qildi ayni sir olam.

Ishoning, do'stlarim, bu dunyo asli.
Baxtu saodatning manzili edi.
Nelarni istamas odamzot nasli
Asli bu xayolning hazili edi.

Xayol bilan yashar odamzot biroq,
Hamon orzu-umid bilan u yashar.
Har qancha bo'lmasin yiroqdan-yiroq,
Baxtlar olamiga talpinar bashar.



* * *

Sog‘inch bag‘rimni o‘rtar,
Uchdi boshimdan hushim.
Tutqich bermasdan o‘tar,
Boshim uzra baxt qushim.

Go‘yo asriy she‘r-g‘azal,
Ahli odamga odat;
Har kim azaldan-azal
Axtarar baxt-saodat.

Turfa xayol domida
Yo‘qotdim aqlu hushim.
Boy berdim dard komida,
Baxtu iqbolim qushin.

* * *

Yo‘lga chiqdim sog‘inib,
Ozod ruhimning qasri.
Yuragimga dog‘inib,
Tutqun qildi g‘am asri.

Gullar ochilar gulgul,
Otilar bir imkon – o‘q.
Xasta ozurda ko‘ngul,
Evoh, aslo davo yo‘q.



* * *

Tunda nola qilar daf'atan shamol,
Go'yo nola qilib aytar dardini.
Go'yo aftodahol beva bemajol,
Axtarar tun ichra yolg'iz mardini.

Samoda oy kezar go'yo bag'ri qon,
Go'yoki axtarar sodiq bir hamroh.
Uning dardlari ham misoli vulqon
Mening dardlarimga o'xshaydi, evoh!

Barcha dardlariga bo'lsamu malham,
Hamroh bo'lsam deyman yolg'iz hilol-a.
Unga yeta olmay qaddim qilib ham,
Shamol bilan birga qilarman nola.

* * *

Charx uradi sharpalar birrov,
Aslo olis ketmaydi ko'zdan.
Tutashmasa qalbingga olov,
Qanday foyda sehrli so'zdan.

Ko'hna olam sir-asroriga,
Yuragingni sen ham katta och.
Malham bo'lg'in dunyo koriga,
Sen ham unga bor mehringni soch.



* * *

Yo'lovchiman, mudom ketib boraman,
Oldinda nelar bor, Xudo biladi.
Qay bir manzillarga yetib boraman,
Manzillarki, meni hayron qiladi.

O'sib bormoqdadir sonsiz qabrlar,
Lolu hayron nogoh ko'kka qarayman.
Jonimga qasd qilar sitam-jabrlar,
Ular bilan jangga qanday yarayman?!

Samoda balqadi o'n to'rt kunlik oy,
Nainki o'rgatar qanday to'lishni.
Hayotu mamot jangi ichra sirga boy,
O'rgatar shubhasiz g'olib bo'lishni.

* * *

Shuur yo'li faqat bedorlik,
Parvoz qilar nur ichra xayol,
Xayol bilan qaytdi teranlik,
Ruh nur bilan yuzlashar alhol.

Bog'da izg'in g'avg'olar ko'pdir,
Lek mahrumman nechun, ey hayot?
Holbuki, ishq g'avg'osi udir,
Har qadamda munavvar bayot.



* * *

Buncha achchiq bo'lmasa hijron,
Buncha maftun bo'lmasa hilol.
Ketolmassan olib boshingni,
Va o'rtada sarsondir visol...

Jismu joning o'rtar ishq oxir,
Hijronzordir maskaning bunda.
Kutish og'ir avvalin-oxir,
Ruhing qaqshar hijron ufqida...

* * *

Seni hech kim eslamas, ammo
Satrlaring bo'zlaydi qumsab.
Faqat ruhing qilar muammo,
Visol shomin yoritmoq istab.

Ming yil seni eslab hasratda,
Bir lahzada yo'qotdim nogoh.
Hajring bilan jonim kasratda,
Dardlarimdan bo'lsang bas ogoh.

Andishayu ming bitta hadik,
Meni hech sen tomon qo'ymaydi.
Evoh, ne ham qila olardik,
Hajring meni omon qo'ymaydi.



* * *

Yurakda bir ajib hislar uygʻondi,
Oppoq qor ustida chopar sarbasar.
Hasratli dunyodan tamoman tondi,
Goʻyo bitgan kabi shohona asar.

Derazam ortida sayraydi bir qush,
Totli onlarimni yodinga solib,
Hech narsa boʻlmagan goʻyoki bir tush,
Sehrli bir tushki, muzaffar, gʻolib.

Qor kabi uchadi xayol yiroqqa,
Goʻyo olam ichra baxtlisan bu kech,
Va lekin tutqunsan yana firoqqa,
Visol shavqu zavqi boʻlmaganday hech.

Befarq olomonga uchraysan takror,
Oʻzingni qoʻygani joy topilmaydi.
Bepoyon osmon bor, va lekin zinhor,
Bagʻrida oftobu oy topilmaydi.



* * *

Soatlab kutasan ilhom zavqini,
Goh kunlab kutasan farahbaxsh onni.
Qanot qilib uning sirli shavqini,
Sirga ko‘msam deysan jumla jahonni.

Hamisha ham kelmas va lekin ilhom,
Ba’zan yo‘llariga juda zor qilar.
Gohida daf’atan baxsh etib orom,
Zavqu shavq bilan baxtiyor qilar.



* * *

Shamol muncha uvullar,
Ko'ngling uyg'otar sukut.
Gullab qo'yar dunyolar,
To'kilsang misli bulut...

Kecha tonggacha timrang,
Hilpirar ko'krang terak,
Tim betoqat oy berang,
Rangi o'chgan osmonning...

U nimadir, bilmadim,
Hatto, tuman ham emas.
Qanday sir, neni uqdim?
Yurak qutisi yum-yum...

Pichirlashar daraxtlar,
Kulrang ko'nglimni uqib,
Qaro yer uzra mehr
Tun pardasin boz to'qib...



* * *

Xayolsiz tatimas hech bir on,
Tatimaydi, tatimaydi hech.
Zamin tuban, sarbaland osmon,
Tong ortidan yetib kelar kech.

Dil oynasin shamol chertadi,
Barglar uzra namoyon visol.
Bizni bir kun tashlab ketadi,
Hatto sodiq do‘stlar ham halol.

Nurab borar ko‘ngil tayanchi,
Nadir turtar qayg‘uni besas.
Ko‘ringani ro‘yo-aldamchi,
Bisyor izlar, faqat seningmas.

Ochilmaydi bunda basirat,
Jim yashashga mahkumdir sarkash:
Bezarurat botiniy siyrat –
Ham darkormas hatto xayolkash.

Targ‘illanar makkor bu falak,
Sovuradi kulingni ko‘kka.
Yetganingdan ishqqa bemalak,
Yaxshiroqdir qolganing yakka.



* * *

Ko‘rinmas bir parcha bulut tim,
Quyosh ham qizdirar ayamay.
Ko‘r, nechun ma’yuslik matlabim?
Ko‘klarni quchaman xayolday.

Bunchalar g‘aroyib ko‘rinar,
Bulutsiz ko‘klarda cheksizlik.
Erksizlik ruhimni chanqatar,
Shu chog‘da ming azob kuysizlik.

Havo dim, shamollar yiroqda,
Yurak ham firoqda bir g‘arib.
Istamas ko‘nglim yordan boshqa,
Ishq ichra bemorman surinib.

Nolakor kuylaydi bulbullar,
Bag‘rimni qon qilar navosi.
Bizga atalmagan bu gullar,
Bizlarga yot hatto havosi!..



* * *

Tun ichra yolgʻizlik ajoyib,
Unda bir gʻaroyib sevinch bor.
Hech ketging kelmaydi ogʻinib,
Domiga tushganing ishqdir, yor.

Daraxtlar egilgan dol kabi,
Alifday bardoshli qoyalar.
Barchasi yemrilar bir kuni,
Qolmaydi hattoki soyalar.

Lekin ishq abadiy yashajak,
Chorlaydi manguga ketsak biz.
Malakday ishqqa tik boqajak
Samodan barhayot ruhimiz.

* * *

Shoirsan deb aytmagin faqat,
Men shunchaki kuylayman dildan.
Uzun gapga yoʻq menda toqat,
Bisotimda haq soʻz bor chindan.

Yolgʻonlarga yetmas bardoshim,
Ochilmasa bas umid guli.
Ming bir dardga chidaydi boshim,
Olib qochar hayot dulduli.



* * *

Tish og‘rig‘i yomon bir og‘rig‘,
Dil og‘rig‘i undan-da yomon.
Hamon ro‘yo – asaldan arig‘,
Sutdan anhor oqadi hamon.

Ayroliqmi yetdi bemahal,
Mum tishlagan odamday go‘yo.
Umid bilan yalading asal,
Umidlaring bo‘lmasin ro‘yo.

* * *

Tozarish onidir ko‘ngil mavjlanar,
Tovlanar lolagun qadah lojuvard.
Toriqish neligin bilmas ko‘ngillar,
Yurakda bahoriy hayajon, navard.

Lekin yurak ichra o‘sha hayqiriq,
Yana o‘sha zarba ko‘rinar tanish.
Qachonlar bu ruhni zabt etgan og‘riq,
Hamrohi iztirob, azob, o‘rtanish...



* * *

Ma'nosiz gar so'zimiz,
Samovatda ko'zimiz.
Qadr-qimmatimizni
Bilmaymiz hech o'zimiz.

Ma'no sari yo'l izlab,
Madadkor bir qo'l izlab.
Dunyoda kun kechirdik,
Mudom rizqi mo'l izlab.

Ohu vohimiz sasday,
Dunyo tor bir qafasday.
Tangrining bergan umri
Aslida juft nafasday.

Saktaliklar kamolday,
Oy kabi oyjamolday.
Bu dunyodan o'tarmiz
Tutqich bermay shamolday.





YO‘LSIZLIK

Yo‘lsizlikdan holimiz ne kechdi, ey yor,
Bizga faqat rohlar ravon-ravon kerak.
Musibatdan chiqmadi hech boshim, ey yor,
Nodonlardan qochish uchun makon kerak.

Zavol bo‘ldi, rasvo bo‘ldi, yomon bo‘ldi,
Kundan-kunga ichmishimiz ayron bo‘ldi,
Qaddimiz ham bizning nogoh kamon bo‘ldi,
Kechmishimiz ayronlardan vayron bo‘ldi.

Yo‘lsizlikdan holimiz ne kechdi, ey yor,
Bizga faqat rohlar ravon-ravon kerak.
Musibatdan chiqmadi hech boshim, ey yor,
Nodonlardan qochish uchun makon kerak.



* * *

Bora-bora ketdi imkon ham,
Ko'ngil qoldi qurshov ichinda.
Bir tarafga burildi yo'l ham,
Ortga yo'l yo'q, faqat kech bunda.

Pand berdi-ku qismat ham hatto,
Hech ko'ngilni yupatib bo'lmas.
Har nafasda ming bitta xato,
Quruq va'da bilan hech to'lmas.

Chor tarafga uchar qog'ozlar
Hech biridan go'yo yo'q foyda.
Yolg'on barcha va'dalar, rozlar,
Yolg'iz umid Xudo bor joyda.

* * *

Kel, oydin yo'llarni qilaylik orzu,
Dengizda suzaylik, to'lqinga qarshi.
Bir imkon izlaylik, armonsiz asru,
Bizlarni qo'llasin Tangrining Arshi.

Bo'ron bilan birga ko'kka uchaylik.
Dunyo tashvishlarin yechaylik, do'stim.
Samoni qushlarday biz ham quchaylik,
Tuban bu dunyodan kechaylik, do'stim!



Tubanlarda qolsin gʻarib bu olam,
Dardu hasratlari alami bilan.
Payvasta boʻlaylik, azizim, biz ham,
Baxtu saodatning olami bilan.

* * *

Bulutday eriydi iztirob,
Yogʻ arkan bosh uzra yomgʻirlar.
Eriydi sira ham berma tob,
Asriy sinoatlar va sirlar.

Gʻolibdir baʼzida qora ruh,
Yovuzlikni yenga olmadim,
Biroq qalbda umidvor shukuh,
Men kurashdan aslo tolmadim.

Qorachigʻda gʻichirlaydi qum,
U nimadir? Balki u nafrat?!
Koʻzlarimda beadam anjum,
Toppinganim otash muhabbat.



* * *

Oy nuriga cho‘milar osmon,
Allanechuk sukutbaxsh sado.
Charaqlagan yulduzday ravon,
Bu sernash’a afsungar nido.

Ko‘zlaringga g‘arq bo‘ldi olam,
Oqib o‘tdi alam to‘lqini.
To‘lqin-to‘lqin sevinch to‘la jam,
Payqamaslik mumkinmas uni.

Daryoyi sho‘r qa’riga cho‘kkan –
Sevinchlarning ichida g‘am bor.
Bu choq ruhim asir so‘zingdan,
Qolib ketdim bu yerda nochor.

Chaqnab turgan ul moviy ko‘zlar,
Chaqmoq tekkan daraxtday qotdi.
Nahot yolg‘on edi u so‘zlar,
Va’dalar ham qadrin yo‘qotdi.



* * *

Yomg'irda iztirob eriydi betin,
Hayrat tuynuklarin ochib birma-bir.
Toma boshlar sekin yurakka mayin,
Toma boshlar sira tinmay besabr.

Hasratimdan yasab yuksak imorat,
Bezatdim ichini g'am shomi bilan.
Bu dunyo hasratu g'amdan iborat,
Pand berar ming kishan, ming domi bilan.

G'ussalar hattoki uchar qanotsiz,
Beqo'l quchar bag'rim, o'tmayin lahza.
Hech banda bo'lmasin aslo najotsiz,
Hech kimni yanchmasin daf'atan larza.



* * *

Daraxtlar xo‘p sarg‘armish,
Lol qolmish kelguvchilar.
Bir zamon talon kechmish
Qoshinda bo‘lguvchilar.

Davron surgan bearmon,
Sarg‘aytib gul jamolni.
Yetmasmi ishbilarmon,
Kasb qilmasmi kamolni?

Bir inson og‘iz juftlab,
Aytoldimi o‘z so‘zin?
O‘z bog‘in nokas xatlab,
Xursand qildimi o‘zin?!

Gezargan tuproqlari,
Har on qoldi qarovsiz.
Za‘faron yaproqlari,
Bog‘lar nechun mard, dovsiz?!

Endi ul kunlar o‘tib,
Afsonaga aylanmish,
Ko‘nglim fursati yetib,
Kuylash uchun shaylanmish.



* * *

Guvillaydi, guvillar shamol,
Xayolllarim ham elar shitob.
Qoshimga kel deya oyjamol
Qayta-qayta qilarman xitob.

Shamol emas, na'ra tortadi,
Shamol kabi xitobim mening.
Ortgan sayin yana ortadi,
Shamol kabi shitobim mening.

Shiddat bilan qayta va qayta,
Guvillaydi, guvillar shamol.
Va qoshimga shukrona ayta,
Ne baxt, yetib kelar oyjamol.

* * *

Xayol ummonida bo'ronu shiddat,
Yurak ichra birdan o'sdi g'am shu on.
Visol sarmast qildi faqat bir muddat,
Yana g'olib keldi shafqatsiz hijron.

Garchi yuragimni o'rtar beomon,
Hijron sira shafqat qilmas zabardast.
Tangrim, lutfing bilan kamina hamon,
Lahzalik visolning mayi bilan mast.



* * *

O‘ynar shamol ko‘nglim – zulfiging misoli,
Mungli hasratlarni solib xotirga.
Boshimda porlaydi ishqning hiloli,
Qalbimni to‘ldirib turfaxil sirga.

Balki men qaytarman tongning yelida,
Shunda ruh bo‘ladi zulfiging shabnam.
Nechuk muhabbatsan tinchimas kunda,
Bag‘irni namlaysan qaro yerda ham.

Angladim fanoning botinin bu choq,
Bulg‘onch fitnalarning botqog‘indan qoch.
Och-yupun esang-da, shu ishqing xo‘broq,
Sovuq olamingdan kechib, ko‘ngling och.

Falak sahnisinda turibman hayron,
Aylana umidning ko‘ziday armon.
Na so‘zim, na kuyim qatinda jahon,
Quroq ilinjlardan yuragim vayron!



* * *

Yuragimni dardu hasrat chulgʻab oldi,
Yuragimni dardu hasrat magʻlub qildi.
Bagʻrim hasratlardan nainki toldi,
Bagʻrimni hasratlar beshafqat tildi.

Bilmadim, zamonmi bunga aybdor,
Makonmi aybdor, bila olmadim.
Biroq Tangri oʻzi boʻlib madadkor,
Yashashdan, kurashdan aslo tolmadim.

Tangrining amridan chiqmasmiz zinhor,
Uning farmonlari ismat biz uchun.
Toki Parvardigor oʻzi bizga yor,
Kurashib yashamoq qismat biz uchun.



* * *

Gʻamlar quchogʻida yetdim voyaga,
Chorasiz kunlarim boʻldi soyabon.
Umrin baxsh ayladim ezgu gʻoyaga,
Hamisha qoʻlladi Tangri mehribon.

Qaysi bir tomonga otlanmay hamon,
Yoʻlimda duch keldi ming bir muammo.
Qanchalik boʻlmasin muhit beomon,
Befarq oʻtmadim hech yonidan ammo.

Menga umid bilan boqqan olamning,
Dardiga baimkon topdim men chora.
Biroq evaziga men chekkan gʻamning,
Evoh, manglayimni qildilar qora.



* * *

Huvullaydi ko'ngil bog'lari,
Shamol esar bir mayin, ravon.
Qo'shiq aytar daraxt barglari,
Mastonavor tebranar jahon.

Aql sira qilmaydi bovar,
Bog' ichinda shohona bazm.
Samovot ham nurli dilovar,
She'r aytadi, aytadi nazm.

Ming bir qoya to'siq begumon,
Bebosh shamol uvlar suqib bosh.
Sira tinim bilmaydi hamon,
Tinmaydi hech boladay bebosh.

Qoyalarga qasdma-qasd shamol,
Balandlikni zabt etmoq istar.
Idrokimga hokim hur a'mol,
Ezgu ishlar qilgani qistar.



* * *

Nahotki arosat inson qismati?
Ko‘nikib yashashga majbursan, lekin.
Azaldan ayondir banda ismati,
Taqdirga tan berar sarkash ham sekin.

Va lekin taqdirni qilma malomat,
Mardona davroning surgaysan borho.
Ming bitta sinovdan o‘tib salomat,
O‘zing uchun iqbol qasrin qil barpo.

* * *

Og‘ir juda ko‘nikib yashash,
Hech kim seni anglamasa hech.
Eshitguvchi bo‘lmasa yo‘ldosh,
G‘aribdan ham g‘aribsan shu kech.

Achchiq bo‘lgan haqiqat doim,
Hech kim senga suyanch bo‘lmaydi.
Faqat qo‘llar qodir Xudoyim,
Undan o‘zga tayanch bo‘lmaydi.



* * *

Tikilarman yuragim jo‘shib,
Atrof jimjit, sokin sukunat.
O‘tib borar umr ham og‘ib,
Botinda ham ortiq yo‘q toqat.

Quloqqa chalinar bir ovoz,
Ovoza bo‘ldimi, siyrat ham?
Daraxtzorni silkitadi yoz,
Daraxtlarning qaddi bo‘lar xam.

Termuldim eng uzoq qirg‘oqqa,
Eng so‘nggi maqsadni o‘ylarman.
Talpinib qararman uyoqqa,
Qalbim buyurganin so‘ylarman.



* * *

Bepoyon hududni qoplagan sukut,
Tinchimas kulbada g'am ham oshkora.
Odamda bo'lmasa agar bir subut,
Befoyda yonsa ham hatto ming bora.

Nochor ellar bo'lmas, nochordir faol,
Hamma teng yaralmish, bo'lmagan jabr.
Shayton rahna solib, sochmaganda fol,
Inson hur yashardi, bo'lmasdi qabr.

Bepoyon hududni qoplagan sukut,
Hukmron kulbada g'am ham oshkora.
Odamda bo'lmasa agarda subut,
Shudir uning yuzi bo'lgani qora.

* * *

Guvullar shamollar shitob-la betin,
Yupun kulba uylar titrar dam-badam.
Achchiq tajribalar takrori tayin,
Taqrirga tan berib yashar har odam.

Dunyo dunyoligin qilgani-qilgan,
Titraydi bo'g'zimda omonat bir so'z.
Umidvor odamning bilgani-bilgan,
Doim umid bilan ko'kka tikar ko'z.



* * *

Shamol shiddat bilan esar har oqshom,
Bedevor uychaning eshigin ochar,
Ishq – go‘yo g‘aroyib shamolday mudom,
Qalb darchasin qo‘lsiz-oyoqsiz chertar.

Yovuzlik dunyoni bunchalar sevdi,
Chegara bilmaydi olovlar aslo.
Qaylarga yo‘qoldi ma’sum ezgulik,
Nechun bu yovuzlik, nechun bu balo?!

Bilmadim, ko‘nglimda qoldi bir hasrat,
Hech dunyo uqmadi shuurim hech on.
Bu kun yolg‘izlikdan topmadim nusrat,
Na quvonch, na qayg‘u qolmadi pinhon.

Cheksiz, chegarasiz ko‘ngil to‘foni,
Yovuzlik bilan hech qilmas murosas.
Ezgulik qutqarar tutqin dunyoni,
Shubhasiz haqiqat, shudir xulosa.



* * *

Farhodday muhabbat sarbozi hamon,
Bema'ni ishlarga yetmas bardoshim.
Ilhom shavqi bilan yuragim vayron,
Turfa savdolarga giriftor boshim.

Hatto bulutlarda muhabbat shavqi,
Otashin bir ishqqa tashnadir yurak.
Mast qilsa toabad muhabbat zavqi,
Ishqning farmonida bo'lsa bor falak.

Farhodday muhabbat sarbozi hamon,
Bema'ni ishlarga yo'q hech imkonim.
Ilhom shavqi bilan zabonim biyron,
Yor qalam qoshiga fidodir jonim.

* * *

Kun botar tentirab yurdim sharpaday,
Buni birov bildi, birov bilmadi.
Quyosh botishini kutdim keksaday,
Kimdir pisand qildi, kimdir qilmadi.

Botib borayaman kun sayin yerga,
Anduhdan qoraydi bag'rim tun kabi.
Sig'madim na ash'or va na bir she'rga,
Dunyodan o'tarman bag'ri xun kabi.



* * *

Bilmadim, nima u ko'nglingga kelgan,
Hayqirgan daryolar buzar xayoling?
Bir zamon toshgandi yurak-ku beman,
Musibatga solding ochmay dunyoying.

Dunyoning zavqidan bag'rim uzildi,
Faqat ko'ngilni yer qayg'u devlari.
Daf'atan alamdanda ko'nglim buzildi,
Nahot tashlab ketdi quvonchlar bari.

Yuraging to'kilib ketsa nogahon,
Chidaysan taqdirning zarbalariga.
Va lekin Tangridan minnatdor hamon,
Tashakkur aytasan bari-bariga.



* * *

Oy ham tun pardasi ichinda gʻarib,
Moʻralab termular yorning yuziga.
Yorning yarim ochiq chehrasin koʻrib,
Xijolatdan solar oʻzin uyquga.

Mudrar yarim kecha qora libosda,
Tiyralik sirlarin bot qoraytirib.
Faqat oy oʻtruda oppoq balqmoqda –
Turar koʻngil uyin hamon yoritib.

Sitamlar zarbidan koʻngil laxta qon,
Uygʻonar koʻnglimda koʻhna iztirob.
Tun boʻyi kezish chun bagʻrim bogʻlarin,
Musibat boʻlmasin soʻnggi bir xitob.

Hech qachon qolmasin iztirobsiz dil,
Anglab boʻlmas axir usiz tun sirin.
Axir arzimasdir sariq chaqaga,
Dunyoning ishlari ishqsiz betizgin.



* * *

G'am bilan yuragim yuksalar,
Mudrar tog'lar qo'ynida havo.
Ana, anduh ko'ngil tilkalar,
Kengliklarda o'ynaydi navo.

Balki ishqdir ajib bir lahza,
Ishq domida dillar to'lg'onar.
Chechaklarga olam to'ldi-ku yana,
Yana yonib yashash zavqi uyg'onar.

* * *

Ko'ngil minba'd ishq ichra kuysa,
Muzdek chashma sovutolmas hech.
Sutday oydin oy shu'lasida,
Yonar vujud misoli bir pech.

Bunday holat kimda kechmagan,
Balki baxtsiz, balki baxtiyor.
Lek hammadan muhimi ichgan
Ishq atalgan sharobdan bisyor.

Sarmast qilgan sharobi ishqning,
Kerak bo'lsa fido qilar jon.
Odamzotni sarobi ishqning,
Chorlayverar toki bor jahon.



* * *

Oppoq to‘lqin mavj urar bunda,
Go‘yo yurak oqar guvillab.
Hech kim bilmas, achinmas banda,
Yuragingni faqat nimalab.

Faqat shunday yo‘l bordir bizda,
Boshqa yo‘llar to‘silgan mutlaq.
Quloq solib payqamas kas-da,
Nokaslarga qoldirma, ey Haq!

Xayolingni band etar nadir,
Bir bekatda ko‘ngil mudraydi.
O, qandayin ko‘rdir bu taqdir,
Qaylargadir mudom sudraydi.

So‘z topolmay gangiymen uzoq,
Termulaman olis ufqqa.
Misoli bir zanjirband Buroq,
Boz taslimman, taslimman ishqqa.



* * *

Qorong‘u kechaning botini sirli,
Barcha g‘amlar go‘yo yulduzday porlar.
Oyning nurlari ham juda ta‘sirli,
Qaysi bir manzillar bag‘riga chorlar.

Aytasan, gohida sevganim sevgan,
Armonlar bag‘ringda sanoqsiz dog‘day.
Barcha umidlarni shamollar yuvgan,
Zimmangda yillarning armoni tog‘day!

Qorong‘u kechaning botini sirli,
Barcha g‘amlar go‘yo yulduzday porlar.
Oyning nurlari ham juda ta‘sirli,
Qaysi bir manzillar bag‘riga chorlar.

* * *

Yana ko‘ngil g‘amlarga to‘ldi,
Hijron yoqdi butun bor budim.
Aning yodin ko‘ngilga soldi,
Yuragimga hokim ma‘budim.

G‘am-g‘ussaga to‘lgan chorasiz,
Balki o‘n ming, balki beadam.
O, riyokor bosgan shuursiz,
Qoya kabi turar behojat.



* * *

Qanday go‘zal, qanday mastona,
Oyday balqib dillarga kirgan,
Kam bo‘lmagan hech bir zamona,
Ko‘ngil husnin anglagan, ko‘rgan.

Asli shunday muhabbat ahli,
Tuproq kabi oyoq ostinda.
Yuraginda ishqning zalvori,
Tushurindi ishqning dog‘inda.

Goh guvillar daryoday toshib,
To‘lqindayin ko‘ngling ko‘tarar.
Olib ketar g‘uboring silkib,
Go‘yo jannat iforin tarar.

Asli shunday muhabbat ahli...

* * *

Qushlar uchar ilhom baxsh etib,
Xayolimda yozarman qanot.
Yuragimga ishqni naqsh etib,
Men o‘zimga tilayman sabot.

Kunlar issiq, siqilar yurak,
Yor vasliga tashnaman, tashna.
Sog‘intirgan diydor ham kerak,
Yo‘qlab bir bor kelib ket, oshna.



* * *

Kapalak quchadi maysani,
Kechadi ko'ngilda zo'r armon.
Go'yo ta'qib etar borliqni,
Taqdir hukmi juda beomon.

Bir dardsiz ko'rinur bechora,
Bir jonsiz ko'rinur xastahol.
Uning ham yuragi ming pora,
U ham juda g'arib, bemajol.

Yurakni qurshaydi xayollar,
Maysalar kaftida yoshligim.
Shabnamday ketmasa u o'ylar,
Yodinga tushar beboshligim.

Bu hayotning girdobi ichra,
Ming bir savdo meni qilar lol.
Erta-yu kech, yo Tangrim, sira,
Menga tinchlik bermaydi xayol.

Xayollarning belanchagida
Kapalakday uchgim keladi.
Kamalakning halinchagida
Samolarni quchgim keladi.



* * *

Izg'ir iztirob hamroh,
Shitobidan dil muztar.
Darbadarman bu ne, voh!
Pinhondir bori muzmar.

Botinimning qatinda –
O'sadi bir ishq bog'i.
Yomg'ir yog'ar kuninda –
Dilbog'im o'sar dog'i.

Ketma, ey ishq, bog'imdan,
Daf'atan qilma barbod.
Gullagan shu chog'imdan,
O'zing qilgaysan obod.

* * *

Tashqarida shovullar soylar,
Ko'nglim nogoh sukutga cho'mar.
Samodagi yulduzlar, oylar –
Nurlariga daf'atan ko'mar.

Mayli, dunyo o'zgarsin tubdan,
Lekin mening yuragimda dard.
Hasrat to'la xotirda qolgan –
Ayroliqning zarbidan zo'r gard!



Choru nochor kezarman yona,
Yana o'sha holat betayin.
Yomg'ir hidi ishon, nishona,
O'sha-o'sha yomg'irman mayin.

* * *

Yurakka cho'kmoqda g'am durdday,
Ummon ichra cho'kkanday kema.
Nahot cho'ksak bir so'z aytolmay,
Aslo tushkun so'zlarni dema.

Tugadimi bayramlar nahot?!
Nahot avjda yana shu bedod.
Hasrat g'ami chaladir bayot,
Nahot bo'lmas biron-bir imdod?

Qotib qolmish ko'zimda hayrat,
Nainki sen qilgaysan sabr, –
To tiriksan g'ayrat qil, g'ayrat,
Aslo qilma jonigga jabr!



* * *

She'r tug'ilar nahot armondan,
Nahot shunday tilsim she'riyat?!
Nahot nishon yo'q hech darmondan,
Ushalmaydi nahot bu niyat?!

Azal siru asror she'riyat,
Azal chorlar qoyasi uning.
Dardi ishqu har ezgu niyat,
Ilhomchisi, doyasi uning.

* * *

Yuragimda izg'ir iztirob,
Kecha kabi bu qayg'u qora.
Kunduz sari yuraman betob,
G'arib banda kabi bechora.

Tiziladi bulutlar yoshi,
Shom shamoli uyg'otar vahshat.
Nogoh g'oyib quvonch quyoshi,
Titratadi zaminni dahshat.

Yuragimda izg'ir iztirob,
Kecha kabi bu qayg'u qora.
Kunduz sari yuraman betob,
G'arib banda kabi bechora.



* * *

Bulutlar g'ussaga to'lib toshgandir,
Sog'inch ko'zyoshlari oqadi tinmay.
G'amlarim necha bir dovon oshgandir,
Hamon talpinadi qayga erinmay.

Atrofda aylanar quyuq tumanlar,
Go'yo nimanidir ular payqagan.
Yam-yashil dalani bosgan shabnamlar,
Kimningdir bag'rida ishq yal-yal yongan.

Beishq tatimagay ko'klamning kuni,
Armon bo'lsa hamki, ishq yodi yaxshi.
Bir pari paykarning bo'lib majnuni,
Hajrida bag'ringning faryodi yaxshi.



* * *

Serhavas erurman ishqqa men yomon,
G‘ovur-g‘uvurlarga yetmas bardoshim.
Ilhomning kuyida yurak laxta qon,
Lek ko‘ngil qonmasdir, ey Biru Borim.

Samoda bulutlar ishqni tarqatar,
To bizga yetkuncha intiqdir yurak.
Bu ko‘ngil istamas toqatni bisyor,
Kulimizni ko‘kka sovursin falak...

Daraxtlarning bargi ishqnoma go‘yo,
Netayin yopishdi tavonimga ishq.
Qochib qutulolmam men bundan aslo,
O‘qilmagan kitob barcha ishqyaproq...

* * *

Uchmoqda osmonda turna galasi,
Orzular quyoshin zabt etsa shoyon?!
Dunyo uyi bizni talosh qilgusi,
Qayg‘udan balandda ucharmi inson?!

Ruhim o‘z matlabin topmasmi zinhor?
Dosh bermas yuragim iztiroblarga.
Tinib-tinchiyolmas ruhim ham devsor,
Mahkum aldanishga bor saroblarga.



* * *

Keldim bag‘ringizga, ey suluv soylar,
Ko‘nglimni ko‘targan tog‘u toshlarim!
Men sizga talpindim haftalar, oylar,
Siz aziz do‘stlarim va sirdoshlarim!

Otam kabi salom yo‘llar tog‘larim,
Chorlaydi bag‘riga, chorlaydi doim.
Onam kabi meni qo‘llar bog‘larim,
O‘zingga beadam shukur, Xudoyim!

Qadimiy shu go‘sha farzandiman men,
Har qarich yeriga payvasta jonim.
Jahoniy zotlarning dilbandiman men,
Hamisha bor bo‘lgan, ota makonim!

Kezdim bu olamni men ham bearmon,
Lochinday sarbaland samoga uchdim.
Va lekin dardimga topmadim darmon,
Garchi samolarni lochinday quchdim.

Faqat o‘z yurtimdan topdim baxtimni,
Faqat o‘z yurtimda topdim saodat.
Barqaror qilgin deb toju taxtimni,
Tangriga hamisha qilgum ibodat.



* * *

Xayolimning gulshanida bir gul bor,
Tong kabi ochilar betinim mudom.
Tashna qalbimga yor ming his beg‘ubor,
Hatto poyimga ham payvasta bu dom.

Tomchilab qalbimga anduhlar bir-bir,
Yasharman yashirmay sirli olamda.
Baxtliman sukunat burjida ming sir,
Garchi o‘rtansam ham ming bir alamda.

Xayolimning gulshanida bir gul bor,
Tong kabi ochilar betinim mudom.
Tashna qalbimga yor ming his beg‘ubor,
Beg‘ubor ming bir his baxsh etar orom.

* * *

Uzilgan kechaning torlari,
Anjumlar yuvilgan marvarid.
Hasratu alamlar g‘orlari,
Qarayman, qasd qilar cheksiz dard.

Salafilar mulkidan nishon yo‘q,
Va lekin boqiy ishq azobi.
Barchasidan mening ko‘nglim to‘q,
Qadah to‘la hijron zardobi!



Meni ham mast qilgan shu boda,
Men ham ishq dardining adosi.
Olislarda visol – shabboda,
Begonadir hatto sadosi.

* * *

Yurakni tilgay kuy ham,
Titrrar torlari ham kech,
Olgay xayolimni ham,
Onsiz hayotimdir hech!

Shoirni dema baxtsiz,
Balki shahanshoh taxtsiz!
Ertayu kechdir so‘zsiz,
Yashay olmaydi ahdsiz.

Betalab bo‘lmas oshiq,
Qaytadan ishqqa do‘nar.
Hech kim bo‘lmasin beishq,
Beishq har hayot so‘nar.



* * *

Kutaverib toldi ko‘zlarim,
Visol oniy, mangudir hijron.
Armonga esh qayg‘u so‘zlarim,
Sog‘inchlarga to‘la bearmon.

Qayoqlarda qoldi xayollar?
Barcha so‘zlar aytili, faqat –
Zabtga olar bevaqt anduhlar,
Goho yetib-yetmaydi toqat.

Mangu boqar ma’yus ko‘zlarim,
Yuragimda o‘zgacha bir dard.
Havolarda qotdi so‘zlarim,
Topilmadi biron bir hamdard.

* * *

Ko‘zlarimga quyilar olam,
Qorachiqda aks etar osmon.
Ming bir armon yuragimda xam,
Qaqshar vujud mudom beomon.

Nahot ko‘ngil qotdi toshlarday?
Asrlarni qoldirib dog‘da.
Nahot go‘yo bebosh boshlarday,
Eng gullagan munavvar chog‘da?!



Sehrli vaqt – umrim parchasi,
Sirga to‘la dunyo hech So‘zsiz.
Muhabbatsiz barcha-barchasi,
Sariq sarob shubhasiz izziz.

* * *

Parchalandi qahr chilparchin,
Mehr g‘olib keldi so‘ng bora.
She‘r yozmoqqa oshiqdim betin,
Yuragimni qilib ming pora.

Bu qandayin mo‘‘jaz bir olam,
Ishq azobi tog‘ qadar yuksak!
Ucholmaysan qanot bo‘lsa ham,
Axir, ipsiz bog‘langan yurak.

Xayol kabi titraydi jahon,
Tebranganday olam mehvari.
Lekin yurak chaqmoq beomon,
Chok-chokidan so‘kilar bari.

Bechoramiz, chorasiz bunda,
Yaramizga malham-davo yo‘q.
O‘n sakkiz ming olam ochunda,
Muhabbatdan a‘lo mavo yo‘q.



* * *

Shamol chopar shitob bilan,
Maysalarni siypab asta,
Kirib kelar dilga beman,
Yurak-bag‘rim qilib xasta.

Dil hovuri bosilmas hech,
O‘chirolmas hatto to‘fon.
Faqat uchar xayollarim,
Ortda qolmas aslo armon!

Shamollarni quchar xayol,
Izlar taskin va tasalli.
Yashab o‘tdim men ham halol,
Do‘stlar takror deydi balli.

* * *

Qushlarning chug‘uri uyg‘otar,
Bu mudroq ko‘ngilni ertalab.
Ertakday ko‘rinar bu bahor,
Shivirlab bir shirin erkalab.

To qora kechgacha shundayin,
Nenidir kutasan basma-bas!
Kutasan chevrilib kun sayin,
Sira ham tark etmas bu havas.



* * *

Shodlikka aralash qayg'ular,
Evrilar yurakda bearmon.
Shohmotday chevrilar suvorlar,
Shuurga zavq berar har zamon.

Qandayin sirlardir betakror,
Lek takror yurakni qilar xun.
Xafaqon bo'larman shu bahor,
Holim so'ramaysan, yor, nechun?!

Mungzada shu qaro kunlarda,
Nachora yurak ham darmonsiz.
Bir g'amgin ko'rinar tunlar-da,
Dunyoda odam yo'q armonsiz.

* * *

Ohang oqar vazmin daryoday oqib,
Ehtimol bu ishqning qo'ng'irog'idir.
Ko'ngrimning tubida balki uloqib,
O'rtagan beadam armon dog'idir.

Majnunday bo'lsam ham telba-devona,
Demasman: muhabbat sho'x obidaman.
Menga yor visolin zavqi begona,
Hijronning beshafqat girdobidaman.





HAJR YO‘LLARI

Bu hijron yo‘llari bunchalar izg‘in,
Goh dunyo ko‘rinar qorong‘u zulmot.
Yor ko‘yin istaysan bemador horg‘in,
Uchmoqqa yararmi bir singan qanot?!

Qaniydi visoldan kuysa qanoting,
Va yoki daf‘atan aylansang ruhga.
Parvoz qilsa yuksak samoga oting,
Payvasta qilsa u zavqu shukuhga.

Va lekin boshimda hajr shomlari,
Yo‘limni bog‘lagan tamom qasd qilib.
Poyim tushovlagan hijron domlari,
Beshafqat g‘animday bag‘rimni tilib!

Umr binolari to‘kildi qumday,
Sahrolar vatanim Majnun misoli.
Umrin o‘tdi, yo Rab, go‘yo bir zumday,
Qiyomatga qoldi yorning visoli.



* * *

Hayrat yuragimni tark etmas bir zum.
Bir zum ishq dardidan ayro emasman.
Hijron dashtida yo‘q men kabi mazlum,
Va lekin armonli so‘zlar demasman!

Iymanib boqadi satrlar menga,
Yuragim dardlarin kim anglaydi, kim.
Dardlarim ayondir yolg‘iz bir Senga,
Davo bo‘l dardimga ey hoziq Hakim!

* * *

Telba shamol shoshadi,
Sira bilmaydi tinim.
Tog‘u toshlar oshadi,
Bolakayday betinim.

Yuragimda hayajon,
Shamol kabi chopadi.
Biroq hech quvonch emas,
Yana qayg‘u topadi.

Hasratlar sharobini,
Sipqoraman yumib ko‘z.
Saodat sarobini
Ta’riflashga so‘z yo‘q, so‘z.



* * *

Yolg'izdan ham yolg'iz jonu jahonim,
Bo'm-bo'sh erur yolg'iz yuragim, evoh.
Yolg'izlikni qil mening makonim,
Samovotda yolg'iz muqtadir Alloh.

Avvalin ishqim ham Sen eding asli,
Va oxir ishqim ham tugar Sen bilan.
Yuragimda garchi muhabbat fasli,
Baxtinga esh emas yorim men bilan.

Talpinib chiqarmiz vaqtning qasriga,
Asli bizga bir baxt berilmas hech on.
Bearmon baxt bilan iqbol asriga,
Nahot yetolmaymiz, yo Rab, hech qachon?!



* * *

Baxt oshkoro, pinhon erur dard,
O'xshashi yo'q muhabbat dardin.
Har chehrani qiladi u sard,
Sinar inson mardu nomardin.

Shoshib-toshib boradir daryo,
Og'ochlarni oqizar hamon.
Xayollarday to'lqinlar go'yo,
Pishqiradi goho beomon.

Iztirobdir tavallo yo'li,
Dardu hasrat cheklanar soyday.
Bo'sh qo'ymas hech taqdirning qo'li,
U xira nur sochadi oyday.

Unutilar alamlar larzon,
Faqat dilni ovutib bo'lmas.
Hamyon to'lsa hamki hech qachon,
Tashna ko'ngil hech qachon to'lmas.



* * *

Yana yog‘a boshladi yomg‘ir,
Yog‘a boshlar yana bu ashkim.
Ochiladi eshik bir og‘ir,
Yana nogoh avjlanar rashkim.

Ko‘kka etdi fig‘onim nahot,
Nahot ko‘hna iztirob hamroz.
Yangisiga ko‘nikmay hayot,
Yana huzur-halovatim oz.

Yana yog‘a boshladi yomg‘ir,
Yana yog‘a boshlar bu ashkim.
Muhabbatim og‘irdan-og‘ir,
Yuragimda alanga rashkim.

* * *

Bir g‘aroyib ko‘rinar olam,
Ortaverar ajib g‘alayon.
Yuragimni o‘rtar bir alam,
Bir alamki, Xudoga ayon.

Axir sendan kecholmayman hech,
Adashganman itday kuyingda.
Samolarni quchgayman bu kech,
Tentirayman sening o‘yingda.



Sog'indim-ku yana men o'zim,
Hech so'zimni aytolmasam-da.
Yetib borar senga haq so'zim,
O'zim ortiq qaytolmasam-da.

* * *

Baland osmon ostida jonim,
Yuksaklikka talpinar tinmay.
Koshki yetsa bunga imkonim,
Yuragimga armonlar inmay.

Yuksaklikka daxlim yo'q dema,
Payvastaman dema yerga hech.
Umr deganlari bir kema,
Safarga shay har tongu har kech.

* * *

Osmonda ko'rinmas bir parcha bulut,
Ko'rinmas yerda ham ruhni payqagan.
Yurak-chi payopay yonar betoqat,
Sukutning sadosin uqqani-uqqan.

Bu axgar ko'ngilni kezdin darbadar,
Axtarib topganday bo'ldim axtarim.
Baxt saroyi sari xezlandim badar,
Qadrning qadrini izg'ib, axgarim...



Panoh istab goho to'kildim tutday,
Matlubim, talabim sari urindim.
Bir makon axtargan sarson bulutday,
Taqdir yo'llarida takror surindim.

Bilmadim, bor umrim qanday sovurdim,
Muqaddas bir qasos qoshida qoldim.
Alamlar o'tida jonim qovurdim,
Hayot kurashida, vo darig', toldim!

* * *

O, qanchalar achchiq bir holat,
Hech zog' bilmas holing o'sha on.
Anqoning urug'i adolat,
Barcha darding bag'ringda pinhon.

Yo'qotganing nimadir o'zi?
Tun kechalar hamrohing hijron.
Faqat g'ammi oshiqning ro'zi,
Kun ko'rishmi hamisha nolon?

Poyoni yo'q sog'inch azobin,
G'ussa bilan yuraging pora.
Sen hijronning zaharli obin
Mahv bo'lasan ichib tobora.



* * *

Goh she'r bo'lib mavjlanar bag'ir,
Tog'lar aro berar aks-sado.
Tevarakda tun bo'yi yomg'ir,
Ado qildi meni ham, ado!

Bilmadim, u qandayin nido?
Dengiz sari yuzdi bu abrim.
Go'yo yo'lim g'am ichra tanho,
Sukut bo'lur oxiri sabrim.

Tun bag'riga cho'kadi hasrat,
Og'ushiga olar u, ammo,
Yomg'irli tun juda beshafqat,
G'am ichinda najot bor, Allo!..



* * *

Xayollar tun ichra yashirin,
Uchadir qaylarga, bilmayman.
Takror o‘ylab hayotin sirin,
Yetar, ortiq bag‘rim tilmayman.

Talpinardim samoga bir payt,
Ortiq bunga yo‘q hech toqatim.
E’tiqodim shohona bir bayt,
Tog‘lar kabi cho‘ng sadoqatim!

Xayollar tun ichra yashirin,
Shitob uchar qayga, bilmayman.
Takror o‘ylab hayotin sirin,
Yetar, ortiq bag‘rim tilmayman.

* * *

Yuragimda g‘am-alam,
Sabru toqatdir hayot.
Ko‘z tikar suyanchim ham,
Ba‘zan to‘qilar bayot.

Yolg‘onmi vafoyimiz?
Chin emas jafoyimiz,
Nechun sira ham sarmast
Qilmaydi safoyimiz.



Dardu g'am quvonch bilan
Hayot – hayot bo'ladi.
Barchasi ishonch bilan
Sirli bayot bo'ladi.

* * *

Shoirni bilmadi u qora quzg'un,
Nazarga ilmadi hissiz olomon.
Uning yurak-bag'ri yana bo'ldi xun,
Qattol qismat uni ezdi beomon.

Bechora chorasiz sitamlar aro,
Alam bilan takror bag'rin tiladi.
Manglayin bitigin juda ham qaro
Olomonga manzur qo'shiq qiladi.



* * *

Ana, yomg'ir yog'a boshladi,
Yuragingdan to'kkan gard dog'i.
Huv, uzoqda armon kuyladi,
Kimni o'rtar yorning firog'i?

Betinch oqar daryolar buncha,
Nahot, ko'rar ko'ngling zamirin?
Bir sir bo'lsa bo'lar-da shuncha,
Anglab bo'lmas azalning sirin.

Garchi zavol topar barchasi,
Mangu biroq kulfatu g'amlar.
Mangu yashil hayot darchasi,
Mangu ishqqa tashna odamlar...

* * *

Shamollar aylanar boshimda,
Poyimda tuproqlar titraydi.
Qaydan paydo bo'ldi qoshimda,
Evoh, qora xayollar daydi?!

O, naqadar dunyo beshafqat,
Sovurar kulingni bir kuni.
To'kiladi suvday nafaqat,
Qadrsizdir odamning xuni.



* * *

Yuduzlar muncha ko‘p osmonda,
Yurakda balqigan hasratday.
Azaldan bu ro‘yi jahonda,
Bandalarga tuhfa, nusratday.

Oh, armonning bag‘ri ochildi,
Yurak ichra jo‘shdi muhabbat.
Yulduzlari gulday sochildi,
G‘am-alam ham ketdi bir muddat.

Ne ham qolar toabad bizdan,
Huvillagan vayrona qolar.
Darmonimiz ketadi tizdan,
Bor-budimiz beshafqat olar.

Og‘ir-og‘ir yurakka og‘ir,
Dunyo yugin ko‘tarar oxir.
Nima qilsin bechora bag‘ir,
Alamzorda kun ko‘rar axir.

Yukunamiz, yurak yukunar,
Sukut mayin ichaylik birga!
Sadoqat ham qo‘shig‘in aytar,
Dardu g‘amdan kechaylik birga.



Hech qolmadi bunda so‘zimiz,
Oh-vohimiz hechdir, azizim.
Ochilmadi hamon ko‘zimiz,
Endi kechdir, kechdir, azizim!

Hijron ichra toriqib g‘oyat,
Bag‘rimizni qilarmiz pora.
Zo‘r bersak ham garchi nihoyat,
Dardimizga topilmas chora.

Lochinlar qanoti olchindir,
Qisqamish visolning sururi.
Dunyo – yolg‘on degan gap chindir,
Toptalmasin inson g‘ururi.

Qafasda qush kabi talpinib,
Intiladi yurak falakka.
Xotirjamlik nihoyat inib,
Rohat nasib etsin halakka.

Yulduzlar muncha ko‘p osmonda,
Yurakda balqigan hasratday.
Azaldan bu ro‘yi jahonda,
Bandalarga tuhfa, nusratday.



* * *

Nadir izlab chiqdim toshu tog'larga,
Bo'zlab bulutlardan boshpana izlab.
Umidvor tikildim larzon bog'larga,
E'zozladim ular barchasin "siz"lab.

Va lekin har qancha qilsam ham e'zoz,
Aslo ko'tarmadi boshiga tog'lar.
Go'yoki juda ham qizg'anchiq bazzoz,
Larzon mevasidan bermadi bog'lar.

* * *

Sening zarbang bilan yashadim sitam,
His etdim ko'ngilning nozikligini.
Sening vasling bilan chekib g'am-alam,
Angladim sobitu hoziqligingni.

Sening borlig'ing-la ko'rdim jahonni,
Sening lutfing bilan tanidim yorni,
Ko'zdan kechirib ham ahli zamonni
Topmassan men kabi bir baxtiyorni.

Bularning barchasi ehsoni Haqning,
Tangri marhamati bularning bari.
Jannat ichra aziz mehmoni Haqning,
Bizga nasib etsin iqbol minbari.



* * *

Seni hech kim eslamas, ammo
Satrlaring bo‘zlaydi qumsab.
Faqat ruhing qilar muammo,
Visol shomin yoritmoq istab.

Ming yil seni eslab hasratda,
Bir lahzada yo‘qotdim nogoh.
Hajring bilan jonim kasratda,
Dardlarimdan bo‘lsang bas ogoh.

Andishayu ming bitta hadik,
Meni hech sen tomon qo‘ymaydi.
Evoh, ne ham qila olardik,
Hajring meni omon qo‘ymaydi.

* * *

Quyuq tuman ichinda sarson,
Oppoq qorlar bag‘rimni quchdi.
Qanot bo‘ldi sirli hayajon,
Samolarga yuragim uchdi.

Bir g‘aroyib ko‘rinar sayl,
Kelib qoldim qayerdan, bilmam.
O‘rab oldi qandayin mayl,
Hech bir dardni hech pisand qilmam?!



Balki, bu qish ro‘yo misoli,
Kabir tog‘lar cho‘kkanday go‘yo.
Nahot sarob yorning visoli,
Nahot baxtu iqbol ham ro‘yo?!

* * *

Oy yuksakda kezar viqor-la,
Suv yuzida aksidir dog‘i.
Qish qahrini qadaydi muz-la,
Qish ichra ham g‘olib ishq chog‘i.

Muz bag‘rida balqiydi quyosh,
Horg‘in-horg‘in jilg‘a oqadi.
Osmon to‘la beahkom bardosh,
Zamin tomon horg‘in boqadi

Daraxtlarda qushlarning safi,
Karaxt go‘yo toshqotgan terak.
Bu xayollar bo‘lmasa nafi,
O‘zing aytgin, bizga ne kerak?!

Ruhim uchar betin har tomon,
Hijron o‘ti parin kuydirar.
Jafokor yor garchi beomon,
Jabru jafo bilan suydirar.



* * *

Chorla, zamon mardlarin chorla,
Ezgulikka da'vat qilgaysan.
Yo'lchi yulduz singari porla,
Otash da'vat qadrin bilgaysan.

Da'vatingga labbay deb darhol,
Bel bog'lasin qariyu yoshi.
Kurash bilan odil va halol,
Porlasin baxt porloq quyoshi.

* * *

Xasta yuragimda azob-iztirob,
Xasta yuragimda olamning dardi.
Olamda o'zgacha shiddatu shitob,
Mening yuragimga inar bor gardi.

Hijron azoblari tatimas ulkan,
Oldinda turibdi ming bir muammo.
Tong axir choyshabin qilmoqda yelkan,
Men unga hech parvo qilmasman ammo.

Shamol ko'zlarimga boqma beqahr,
Nahotki nigohim qadri yo'q shuncha?
Nahotki begona menga bu bahr,
Nahotki begona bor gulu g'uncha?



Qanchalar toshlardan qursang imorat,
Olamning o‘zini bilgani-bilgan.
Qanchalar so‘zlaring bo‘lmasin toat,
Bahor bahorligin qilgani-qilgan...

Chirmashar yurakka g‘am sipohlari,
Sensiz yashamoqlik, evoh, bema’no.
Olamni tutadi bag‘rim ohlari,
Sensiz holim xarob, ey guli ra’no!

Yo‘lingda intizor ko‘zlarim toldi,
Na taskin bor menga, na tasalli bor.
Nigoh fikru zikring xayolim oldi,
Axir, sen emasmi qorday beg‘ubor!

Yo‘qoldi tinchim ham, vo darig‘, tamom
Daf’atan zanjirband ayladi hijron!
Hamon mast qiladi bir orzui xom,
Faqat seni deyman hamon, ey jonon.



* * *

Yuraginga o‘q yog‘dirar yomg‘irlar,
Tinimsiz yog‘adir yog‘inlar shoshib.
Yomg‘irlar bag‘rida bo‘zlar bag‘irlar,
Beadad hasratu g‘amlari toshib.

Og‘rir tanizorim shovshab beomon,
Muhabbat kuyida bir umr giryon.
Qutulmam bu ishqdan bo‘zlab hech bir on,
Izlab ishq gulshanin choparman har yon.

Qaydan ham yetadi ishqsiz safolar?
Bedorlik alamin bilmasa kishi!
Biroq bizga hamroh jabru jafolar,
Bag‘rimiz qon qilar hijronning nishi.



* * *

Chang to‘zonda burqsib yashading,
To‘zim bersin joningga, to‘zim.
Hasratlarning oshin oshading,
Taskin bo‘lsa zora bu so‘zim!

Dardlar bilan yashaysan hamon,
Hamon dardu hasrat nasibang.
Taqdir hamon yovday beomon,
Boshing uzra o‘ynatadi sang.

Hech biriga qilmaysan parvo,
Hech birini qilmaysan xursand.
Sen baxtiyor inson beparvo,
Dardu g‘amni qilmaysan pisand.

* * *

O‘rtada turli xil ziddiyat
Kelisha olmas hech Sharqu G‘arb.
Mening ko‘nglimda ham ko‘p niyat,
Mening ko‘nglimda ham bisyor harb.

Ne bo‘lsa ham avvalu oxir,
Men hamisha Sharqu G‘arb bilan.
Gohi pinhon, gohida zohir,
Umrin o‘tar mudom harb bilan.



* * *

Cheksizlik kasrida yuragim notinch,
Go‘yo ro‘yo kabi barchasi beiz.
Payopay bag‘rimni qon qilar sog‘inch,
Ruhim tin olmaydi, holbuki sensiz.

Xabar yo‘q o‘zimdan, jondan bexabar,
Uzoq manzillarni qildim ixtiyor,
Ko‘ngil kemasida suzib sarosar,
Axtarib o‘zimni topmam baxtiyor.

Qolmadi qaror ham, na zarra orom,
Hijron deganlari hijronday emas.
Barqaror bu yo‘lda barqaror bir kom,
Hayronlik bag‘rida dil komi havas.



* * *

Bir kech uchdi ruhim chaqmoqday,
Koinotda yo'qdir tayanchim.
Olisdagi sen yulduz o'sha,
Sen o'shasan, so'nggi suyanchim.

Osmon to'la yulduz chorlagan,
Shu kechada bo'ldim parvona.
Na yig'laysan va na kulasan,
Termulasan go'yo mastona.

Mast ayladi shu kech butunlay,
Es-hushimdan ayirdi arzim.
O'zimga ham o'zim begona,
Begonadir hatto bu tarzim.

Tushib ketdi yodimga yoding,
Va chaqnadi oh o'ti uchqun,
Charxning olis kungirasida,
Yonar emish yuragim, nechun?

Chorlayversin sirli koinot,
Sirimizni fosh etsin yurak.
Kimga kerak bu tilsim hayot,
Yuragimiz beakashshof beshak.

Qidirilar yakun muntazam,
Kunpayakun naqshin zevari.
Eng olisu mohdan mohgacha,
Bezab turar yurak mehvari.



SO‘Z AYTISH NAVBATI

So‘z aytish navbati bizga ham yetdi,
Afsus, chin degali zabon aylanmas.
Dilimdan jamiki armonlar ketdi,
Gar qismat shod etish uchun shaylanmas.

Qarang! Omadini bergan Xudoyim,
Bir kuni olganda sezdirmay olar.
Har bitta odamdan dunyoda doim,
Katta yo kichikroq biron iz qolar.

So‘z aytish navbati bizga ham yetdi,
Har so‘zni degali zabon aylanmas.
Dilimdan jamiki armonlar ketdi,
Gar qismat shod etish uchun shaylanmas.



* * *

O'sib borayotir bag'rimda armon,
Tog'lar ham cho'kadi zo'r armon bilan.
Dardimga sira ham yo'q kabi darmon,
Qayga bosh urayin bu farmon bilan?!

Kimdir o'z qaddini rostlagan arang,
Kurashar g'am bilan kimdir mardona.
Ikki holatda ham asablar tarang,
Hech kimni tinch qo'ymas hayt ordona.

O'sib borayotir bag'rimda armon,
Tog'lar ham cho'kadi zo'r armon bilan.
Va lekin men kabi yo'q hech bearmon,
Qo'limda ilohiy haq farmon bilan.



* * *

Bir kuni kelar,
G'am tog'dan o'zar.
O'sib armonlar,
Ko'klarga yetar.

Dunyoni kezib,
Ruh qalbga yetar.
Oxir uyg'onib,
Ohimiz uchar.

O'char olovlar,
Buzg'un qilmishi.
Sezmish odamlar,
Haq ming bir ishi.

So'z aytish navbat,
Kelar qishga ham,
Oppoq beillat,
Kelar bofahm.

So'zlar yashaydi,
O'lar qulfahm.
Kular barchasi,
Yig'lar berahm.



O'lim haq doim,
Ortga yo'l yo'qdir,
Umr nishonga,
Otilgan o'qdir.

* * *

Jon qushi yozar qanot,
Samoni kezmoq uchun,
Go'yo yetmas hech sabot,
Yetmas manzilga, nechun?

Aksar ishq qurbon bo'lar,
Bo'lmas vaslga yetib.
Gar yetsa ado bo'lar,
Bo'lmas aslga yetib.

Ko'ngil toriqar nogoh,
Axtarar biron najot.
Barcha sirlardan ogoh,
Jon qushi yozar qanot.



* * *

Kulrang bulut kezinadi mo‘l,
Yurak rangi bulutday go‘yo.
Mahzun xayol ichra o‘ngu so‘l,
Taslim qilgan misoli ro‘yo.

Sinoatu sirlar bari bir,
Yolg‘izlikning hosilimikan?
Va yo siru asrorga asir,
Tasodiflar vosilimikan?!

Kulrang bulut kezinadi mo‘l,
Yurak rangi bulutday go‘yo.
Mahzun xayol ichra o‘ngu so‘l,
Taslim qilgan misoli ro‘yo.





SOG'INCH

Hajring boshim uzra tosh-tabar,
Sog'inch to'la ko'zlarim giryon.
Hech kelarmi sendan bir xabar?
Mayli, ro'yo bo'lsin ming chandon.

Ayroliqqa yetarmi hasrat?
Kunu tuni yoding hamrohim.
Tun bag'riga singidi kasrat,
Samolarga ham yetdi ohim.

Yo'llaringga zoru intizor,
Ko'zlarimni uzmasman yo'ldan.
Hajring meni qildi juda zor,
Hajring, evoh, chiqardi yo'ldan!

Sensiz mening ahvolim xarob,
Sensiz barbod butun hayotim.
Kel, mast qilsin visoling sharob,
Kel, baxshida senga bayotim!



* * *

Qay zamon yo‘qolgan quvonch,
Paydo bo‘ldi daf’atan yana.
Sen quvonchga bag‘ring katta och,
Yayrab yana qilgin tantana.

Bu dunyoning kengligi uzra,
Hayot lochin qush kabi uchar.
Umr tinim bilmaydi sira,
Nogoh so‘nggi marrani quchar.

Unutib bor dardu alamni,
Quvonch bilan bo‘lgin payvasta.
Nurga cho‘mib keng bu olamni,
Qilaylik bir nafas orasta.

* * *

Mudrar yurak qa’rida armon,
Mudrar isyon ruhimda mudom.
Lochin kabi yuksalar nolon,
Qalbimdagi necha orzu-kom.

Ko‘tarilar mehrsiz to‘fon,
Ko‘ngil uyin vayron qilgali.
Ne kundirki – kutarsan har on,
Suronlardan omon chiqqali?



Nahot bordir o‘zga bir chora?
Yo‘q davronda zarracha mehr.
Taskin topsam ko‘nglimga zora,
Zora sodir bo‘lsa bir sehr.

Yuragimda qolmasin armon,
Ruhim, tug‘yon qilgaysan mudom.
Bas, halovat bilmam hech qachon,
Toki nasib etmas barcha kom.

* * *

Dunyoni dema zindon,
Hayotni mushkul dema.
Dunyo va hayot har on,
Baxtga talpinar kema.

Dunyoni dema zindon.
Hayotni mushkul dema.
...Parvardigor mehribon,
Do‘stim, bas, hech g‘am yema.



* * *

Chorasizman, bilmayman nechun,
Odimlayman bog'larda arang.
Muhabbatga begona ochun,
Asablarim qilding sen tarang.

Axtaraman bag'ringdan mehr,
Axtaraman sendan bir najot.
Va lekin yo'q senda hech sehr,
Hokim faqat hayot va mamot.

Netayinki, bu holat bilan,
Qilolmasman aslo murosa.
Hech bir jo'mard jaholat bilan,
Kelisholmas, shudir xulosa!

Bu dunyoni g'am bilan xasta,
Dardu g'amdan xalos qilarman.
Oy va oftob bilan payvasta,
O'zim ham bas, baxtli bo'larman.



* * *

Dilda borin aytayin sizga,
Yuragimda mavji bor ishqning.
Yaratganning himmati bizga,
Ham mavjiyu avji bor ishqning.

Kechalari xayolga tolib,
Mastonaman visol bog'ida.
Ishq sahnida g'olibman, g'olib,
O'rtanmasman yor firog'ida.

Dilda borin aytayin sizga,
Yuragimda mavji bor ishqning.
Yaratganning himmati bizga,
Ham mavjiyu avji bor ishqning.



* * *

Qaylargadir juda shoshib borar oy,
Egilgan, bukilgan toqatim kabi.
Oyning ruxsorida o'zgacha chiroy,
Parvona atrofda ming bir kavkabi.

O'zgacha ko'rinar bu kecha tun ham,
Tim-tim sochlarin yoygan bearmon.
Go'yo mening barcha dardimga malham,
Go'yo mening barcha dardimga darmon.

Yulduzlar qoshiga chorlaydi shitob,
Munavvar tun ichra o'zgacha sehr.
Qaydadir daf'atan yangraydi xitob,
Xitobki, payvasta afsun va sehr.

Qaylargadir juda shoshib borar oy,
Egilgan, bukilgan toqatim kabi.
Oyning ruxsorida o'zgacha chiroy,
Parvona atrofda ming bir kavkabi.



* * *

Yurak ichra toza dog‘,
Atrofi tim-tim dona.
Musaffo osmon bedog‘,
Ilhom mudom parvona.

Ko‘ngil yagona ovunch,
Bo‘lak hech tasalli yo‘q.
Ochiqqo‘l faqat tayanch
Kerak emas, ko‘ngil to‘q.

Och-yupun ko‘p ochunda,
Beminnat bu jon halak.
Yo‘q insoniy huquq-da,
Yozuvsiz u jonsarak!

Qodir qadar muhabbat,
Har ishga qodir Egam.
O‘tar vaqt befutuvvat,
Qadsiz muruvvat ham.

Yurak ichra toza dog‘,
Atrofi tim-tim dona.
Musaffo osmon bedog‘,
Ilhom hamon parvona.



* * *

Yanar oshiq ishqni behavon,
Yigitlikning avonlarinda.
Osmonda oy boqar lol-hayron,
Aning kirsiz kechalarinda.

Mana endi hijron tunida,
Yulduzlarni sanaydi besar.
Bu kunlarning shu mazmunida,
Topolmadim hech ishqdan asar.

Afsus, o'tar yoshlik onlari,
Onlarki bir, bo'lakcha gashti.
Oshiqlarning xonumonlari,
Azal asil ishq sarguzashti.

Muhabbat ham ketti yiroqqa,
Qiynalar jon har lahza, har on.
Visol nogoh do'ndi firoqqa,
Yurak-bag'rim qilar hijron qon.

Chorasizman ayni shu palla,
Shodligi tatimas jahonning.
Telba Majnun kabi baralla,
Tutquniga do'ndim hijronning.





XOTIRA

Cho'kar yuraginga ufq yog'dusi,
Chizg'inlari erir bulutday kulrang.
Olis xotiralar achchiq og'usi,
Olis xotiralar hamon rang-barang.

Ortidan choparman xotiralarning,
Va lekin sira ham yetib bo'lmaydi.
Bahridan kechib ham darhol ularning,
Bag'ridan bir yo'la ketib bo'lmaydi.

Yuraginga sira bermaydi orom,
Meni sarmast qilar ular qay biri.
Daf'atan takroran qilar meni rom,
Qay bir xotiraning g'aroyib siri.

Sira ham malomat qilmang, o'tinchim,
Xotiralar bilan yashar har inson.
Ba'zida yo'qolar tamoman tinchim,
Xotirlab navqiron paytim nogahon.



* * *

Ko'z ochdi cheksizlik ko'nglimda,
Iqbolmi, taqdirmi, armonmi?
Necha bir dovonlar yo'limda,
Barcha dardlarimga darmonmi?

Uyg'ondim ishq shavqidan nogoh,
Jumla jahon to'ldi nur bilan.
Ming bor shukur senga, yo Alloh,
Qovushtirding meni hur bilan.

* * *

Cheksiz osmon bo'zargan rangi,
Bulutlarning karvoni kezar.
Xotiralar alamli zangi,
Og'ir o'ylar bag'rimni ezar.

Baravj hayot-mamotning jangi,
Og'ir o'ylar bag'rimni ezar.
Cheksiz osmon bo'zargan rangi,
Bulutlarning karvoni kezar.



* * *

Kutdim ko‘p ijodiy lahzani,
Ijod yulduz bo‘lib porladi.
Visolni sog‘indim xo‘p intiq,
Yulduz kabi meni chorladi.

Daryolar quvonchday ko‘rindi,
Ko‘rdimki, bag‘rida mavjlari.
Nigohimga nedir urindi,
Balki otashin ishq avjlari.

O‘yladim, hijronni uzoq yil,
Hijron mangu bo‘lib chorladi.
Intizorlik rangim o‘chirdi,
Umrim o‘limga ham ko‘ndirdi...

Talpinganim munavvar visol,
Biroq nasib qilmadi hamon.
Go‘yo asriy qadrdon misol
Yana oldi bag‘riga hijron.



* * *

Intiq termulaman olis ufqqa,
Nigohim og'ritar ufq qadog'i.
Olislab ketganmi ko'ngil uzoqqa,
Yaqin do'stlarim ham tark etgan chog'i.

Bedillar tuyg'uni bilganda zavol,
Kiradir bir oro yaproq jonimga.
Tangrim, bo'lsa hamki qalbim bemajol,
Faqat to'zim bergin xonumonimga.





DUNYO

Dunyo dunyo emas bo‘lmasa ozor,
Dunyo siylab, goh bag‘ring qilar qon,
Adolatdan yiroq bu ko‘hna bozor,
Tubsiz o‘pqqon erur, oxiri vayron.

Mana shunday qismat bizga ham meros,
Har zarra uningdir, eslatar uni.
Zarrabin na darkor bari bir asos,
Asotir emas hech – unutmang buni.

Chirmashib bo‘yningni qilar zanjirband,
Lekin ichi zahar-zaqqum, og‘udir.
Uni qilib bo‘lmas aslo kishanband,
U sira ham tutqich bermas ohudir.



* * *

Xayollaring nogoh buzilib,
Yuragingni bosibdi hasrat.
Endi bilsang, yerdan uzilib,
Samolarga bo‘libsan ulfat.

O, naqadar sirli bu holat,
Ko‘ngil mulki ichra bemurod.
Fano izlab topmay farog‘at,
Nafs uyini qilarsan barbod.

Haq gap asli ishqni tanimoq,
Ishq qabri yo‘q – bordir alami.
Unutma hech: bizlarga mushtoq
Muhabbatning sirli olami.

* * *

Xayollar komiga ko‘mib qumsab g‘ussani,
Tongni oqartirding kashf etib tunni.
Boshlading yana bir go‘zal qissani,
Boshlading yana bir zalvorli kunni.

Va lekin har qancha bo‘lsang ham ziyrak,
Bilmaysan taqdir ne qiladi tortiq.
Koshki dardu alam bo‘lsa-yu siyrak,
Quvonchu shodlar bo‘lsalar ortiq.



Xayollar komiga ko'mib qumsab g'ussani,
Tongni oqartirding kashf etib tunni.
Boshlading yana bir go'zal qissani,
Muborak qilsin Haq zalvorli kunni.

* * *

Shovqinzordan bezordir yurak,
Zoring bo'ldim, tunlar xayoling.
Qancha kechlar ketding bedarak,
Boshim uzra oydir so'rog'ing.

O, naqadar sog'indim, bilsang,
Oy so'rovlar har tun yuragim.
Kechib o'tdi baribir yalang
O'sib soylaringda onlarim...

Bu soylarda endi muhabbat,
Yurakka teng bo'ylari mudom!
O'ylarimni o'g'irlab faqat
Kechmish sari yetaklar shu dom...



* * *

Zuhroday uzoqlab ketdi bu ruhim,
Gizli satrlarim sahfada qoldi.
Ruhim bilan birga dardu anduhim,
Bepoyon samovot ichra yo'qoldi.

Quyildi ko'zimga shabnamlar g'arib,
Sen ko'proq keraksan oshufta jonga.
Poyonsiz ufqlar chorlar oqarib,
Sig'mas hech ishq bilan ma'mur jahonga!

* * *

Oy balqiydi bulutlar ichra,
Lol qoldirar meni tun, biroq.
Kechib keldim ishqdan shu kecha,
Sirli manzil chorlaydi yiroq.

Yo'l uzundir, manzil ham olis,
Yeru osmon chorlar beomon.
Garchi umr qisqadir xolis
Axtararman seni begumon!

O'tar yillar, qilarsan sabr,
Yetar ishqdan ozoru sitam.
Haqsizlik jon uchun ming qabr,
Turnalarning ko'ziga boqsam.



G'amgin yo'llar sutdayin oydin,
Qadim bulbul tovushi hayqir,
Tikan gullar vasfin-da sokin,
Mudom oshiq faqiru haqir.

* * *

Yor firog'i qilmadi xafa,
Xira tortdi ko'zlarim biroq.
Kechib o'tdim ishqni bir daf'a,
Asorati ko'ngilda titroq.

Yo'l uzundir, manzil ham uzoq,
Zamin qattiq, yiroqdir osmon,
Va qadamda ming bitta tuzoq,
Taqdir farmoni ham beomon.

Yor firog'i qilmadi xafa,
Xira tortdi ko'zlarim biroq.
Kechib o'tdim ishqni bir daf'a,
Asorati ko'ngilda titroq.



* * *

Uvlaydi qirgʻoqlar betinim,
Daryo oʻzanlarin qayirib.
Hasrat ichra tinim yoʻq, tinim,
Alkan bu tilimni yozgʻirib.

Yozning ayni qizgʻin pallasi,
Oftob goʻyo purkaydi olov.
Kutilmagan nasim allasi,
Sharob kabi mast qilar darrov.

* * *

Yurak ichra hasratlar choʻkdi,
Qalqidi muhabbat evrilib.
Surinib nafratlar chekindi,
Lek qadr topmadi chevrilib.

U kun koʻnglim besurur edi,
Zamzamalar qilmas edi kor.
Qalqir yurak mastona endi,
Gʻam tashrifi esa madadkor.

Yoʻqu borim shudir yuragim,
Boru shudum sovursa kerak?!
Axir shunga topshirdim soʻzim,
Oʻz soʻzini aytar-da yurak.



Hech deyolmay turibman kutib –
Ostonada boshim egib jim.
O, u muazzam kunlarim o‘tib,
Nahot shunday to‘kilsa borim?!

O‘tdi umr oqar daryoday,
Cho‘kib ketdi bari befoyda.
Go‘yo tushday, go‘yo ro‘yoday,
Baxt topdim, evoh, bu joyda.

* * *

Ko‘ngilda bir olam hasratim,
Sabr qilgin deydilar, sabr.
Sira bitmas yara kasratim,
Jabr bo‘lar jonimga, jabr.

O‘rlashar xayolda bir kechmish:
Changu chag‘onalar chalinar,
Bir darvesh qiladi zo‘r xonish,
Nolasin olamga ilinar.

Dildagi xanjardir beomon,
Qismatning chekiga tushgan u.
Uning izmidaman to hamon,
Omonlik istayman, chin qayg‘u.

Ko‘pchiydi anduhlar basma-bas,
Makonda aylagay lomakon.
Nahotki, armonlar ushalmas,
Bormikan bu yo‘lda bir imkon?



* * *

Nimtalaydi bag‘rimni g‘amlar.
Nechun yana yolg‘izlik sarson?
Ham yonar, ham yosh to‘kar shamlar,
Har bir yaproq titrar bu zamon.

Quyosh nurin sanchmoqda beg‘am.
Yuragimni qamraydi vahm,
Qaydan kelar bu dardu bu g‘am,
Rahm qilgin, o taqdir, rahm!

Nimtalaydi bag‘rimni g‘amlar.
Nechun yana yolg‘izlik sarson?
Ahvolimga yig‘laydi shamlar,
Yurak-bag‘ri o‘t ichra nolon.



* * *

Shamol xayolimni o'g'irlab ketmish,
Ortidan uchdim men samolar sari.
Daf'atan olis bir manzilga yetmish,
Lochin kabi parvoz qilib sarsari.

Bir olam namoyon ko'zim oldida,
Jilva qilar edi go'zal bir olam.
Men javob beraman so'zim oldida:
Meni asir qildi ayni sir olam.

Ishoning, do'stlarim, bu dunyo asli.
Baxtu saodatning manzili edi.
Nelarni istamas odamzot nasli
Asli bu xayolning hazili edi.

Xayol bilan yashar odamzot biroq,
Hamon orzu-umid bilan u yashar.
Har qancha bo'lmasin yiroqdan-yiroq,
Baxtlar olamiga talpinar bashar.



* * *

G'am kechadir, lekin sezmadim,
Afsuski, u kechmish ham tayin.
Allaqanday yondim, o'chmadim,
Gezarar jon har lahza sayin.

O, bu g'ussa kasri tundayin –
Icholmayin qalbim ovora.
Og'ib borar bari shundayin,
Xasta bag'rim qilib ming pora.

Oqin oqar oqlikka do'nib,
Oppoq bulut kezar sarosar.
Qora girdob ichinda cho'kib –
Orzular ham oqar sarbasar.

Yutib borar armon ham arzon,
Qayerdadir payopay nolish.
Yurak esa xo'rsinar sarson,
Bu qandayin ketishu kelish?

Topilmas goh ishq ichra hamdam,
U bebaho qanday ishq ganji?
Cheksiz emish dilxiroj hardam,
Va beomon hijronning ranji!..



* * *

Yuragim ichida
Zamir yashirin!
Daf'atan kashf qildim
Hayotning sirin.

Meni olib uchdi
Samoga xayol.
Ikki poyim quchdi
Og'ir bir zavol.

Xayol etovida
Ketib boraman.
Olis shu manzilga
Yetib boraman.

Yuragim ichida
Zamir yashirin!
Daf'atan kashf qildim
Hayotning sirin.

Ishq dardi deyilar
Bu sirning nomi.
Har bitta odamning
Poyida domi.



* * *

Issiq kun, sukunat-da
Ishq azobin ortirar.
Ortimizda qolmoqda
Issiq damu oh-vohlar.

Barchasidan azobi
Ishonch yo‘q hech havoda.
Armon baxtning sharobi
Qadimiy bu mavoda.

* * *

Besukun davronda vafo bor imkon,
Miskin yuragingni timdalar buncha?
Bunchalar beshafqat ishqsiz bemakon,
Imkonsiz baribir, ko‘rinmas qilcha!

Kezar xayolimda bari kechmishlar,
Ich-ichim alanga olar beomon.
Kechmish sukunating anglamas badar,
Nechun balogardir ishq ahli hamon?

Aning nigohinda toparsan qo‘nim –
Go‘yo bir garddayin noxos ucharsan.
Barchasiga guvoh hijron onlarim,
Shu kech borlig‘imni olib ketarsan.



* * *

Indamay turar jim jumlai jarror,
Churq etgan tovush yo‘q go‘yo siroyat.
Yuragim tubinda hasrat betakror,
Sado chiqmas sira sirlidir g‘oyat.

Daryolar oqadi sukutga cho‘mib,
Yuragim yoqadi sukunat yomon.
Butxona ichinda Lotki iymanib
Bo‘zarar kabirlar qoshida hamon.

* * *

Qay yerlarga keldim adashib,
Asorati yetar ming yilga!
Changda qolgan gul kabi og‘ib,
Tosh ko‘ngilni qo‘ydim yomg‘irga.

Kor qilarmi yomg‘ir toshlarga,
Bag‘ritoshim meni o‘ylarmi?
Yodim eslab kelsa qabrimga,
Qabr guli ko‘nglin olarmi?

Bilmam, bu ishq qayga yetaklar,
Firoq o‘tin ko‘nglimga solib.
Bunda meni har ne ermaklar,
Hijron dardi g‘olibdir, g‘olib.



* * *

Bulutlar osmonda suzar sarosar,
Bu ham qismatning bir taskinimikan?
To‘kilar bag‘rimga siyoh sarbasar,
Yuragim anduhning maskanimikan?

Chayqalar ohista ko‘ngil ummoni,
Sumanlar ustinda yastanar bir ruh.
Ajabo, kechdikmi kechmish tarhini?
Intiqib tentirar noxos zo‘r anduh.

Bilmadim, ne kechar bu zabun holim?
Shavqu zavq yo‘q aslo qalbimda zarra.
Og‘irdan ham og‘ir mening ahvolim,
Juda ham olis men ko‘zlagan marra.

* * *

Tun bo‘yi to‘zg‘idim g‘amning iznida,
Sochildi ko‘ksimga anduh zarlari.
Bir on taskin bermas – buyuk g‘amboda –
Paypaslar ko‘nglimni to‘zg‘in sochlari.

Sovqotgan bu mehr kiprikda qotdi,
Yurak-chi isimas, armon farog‘at.
Daydi xayollar ham yo‘lin yo‘qotdi,
Tunning panohida yukindim faqat.



Mudom og'ib borar qop-qora kecha,
Xayollar bag'rida og'ir suzadi.
Menga orom bermas aslo tonggacha,
Tonggacha ko'nghimni takror buzadi.

* * *

Intikadi yurak noxosdan,
Xos qismatdan bejo xotirlar.
Termulaman go'yo parishon,
Ko'ksimda qalb qushday potirlar.

Shunday holat tanish ruhimga,
Qismat tutar zardobli sog'ar.
Sen bo'lmading davo qayg'umga,
Quvonch ichra o'ylari og'ar.

Bilmadim, bu qandayin alam,
Qaydan keldi bu alam hazin?
Va daf'atan yorishar olam,
Yonib azon aytar muazzin.





XAYOL

Atrof to‘la gardu go‘ylarim,
O‘ynashadir misoli atfol
Qo‘g‘irchoqlar on qadar gardim
Xayol surar, kunu tun xayol.

Va daf’atan mahzun tortdi jon,
Xira osmon ostida qismat.
Samoviy bir xayolday osmon,
Menga juda tanish bu ismat.

Muncha munis bo‘lmasa xayol?
Keragimdan oldi ortig‘in.
Xayol kerak men uchun halol,
Istamasman ortiq tortig‘in!

Hamal kirdi, qilamiz amal,
Farog‘atga, huzurga tashna.
Bu farsuda jismimdir qamal,
Dardu hasrat, g‘am bilan oshna.

Bu sargashta boshni netamiz,
Bizlarni rom qilar qay sehr?
Yorug‘ xayol surib ketamiz,
Sirlashamiz to oxir, mehr...



Muncha munis bo'lmasa xayol?
Keragimdan oldi ortig'in.
Xayol kerak men uchun halol,
Istamasman ortiq tortig'in!

* * *

Beomon zarbadan yurak zirillar,
Uvullar shamol ham ma'yus ayni dam.
So'ng og'ir chog'lari bag'ir huvullar,
Topilmas dardimga darmon bir hamdam.

Muhabbat, senga men bag'rim keng ochdim,
Holbuki, ahvolim tangdir basma-bas.
Olamga beadam mehrimni sochdim,
Mehrimni ulashdim har on, har nafas.

Sarbaland tog'larga yana keldim duch,
Boshim uzra guvlar xayolot tog'day.
Xudoyim, sen o'zing bergin menga kuch,
Tog'larni ham pisand qilmayin dog'day.

Tog' ham o'pirilar bir kun begumon,
Hech kim hech narsani bilmas banogoh,
Zamonlar o'tadi bamisli karvon,
Zikri ham, fikri ham mudom "Yo, Alloh!"



Qalbim ichra sayrar bir bulbul biyron,
Va lekin yuragim o'rtar ming anduh.
O'zing bandam degin meni, yo Rahmon,
O'zing baxsh aylagin qalbimga shukuh.

* * *

To'ldi ko'ngil kechib anduhlar,
Ichib bo'ldi gul quyosh nurin.
Qurshadi-ku jonni tuyg'ular,
Unutdim men visol sururin.

Yuragimdan o'tdi bahorlar,
Hech qayg'usiz tatimadi ishq.
Vazmin shomlar, nurli nahorlar,
Kuylar edi ma'yus bir qo'shiq.

Tevarakni nur chulg'ar oniy,
Ruh gullari ochilmish mahzun.
Bu besh kunlik dunyoda foniyy,
Aksariyat ustuvor huzun.



* * *

G'am ichra suzadi bu ko'ngil,
Muhabbat gullarin uzadi,
Baxt to'la qasrlar o'ngu so'l,
Xasta bu ko'nglimni buzadi.

Bir lahza tinch qo'ymas xayoling,
Ko'nglimdan o'zgansan, sevgilim.
O'zga bir yo'l izlab adashting,
Eng go'zal qismatmish tuz yo'ling.

* * *

Naqadar ojizman xok kabi og'ib,
Mendan so'ramagin aslo o'zimni!
Evoh, qay joylarga keldim sog'inib,
Ketolsam qaniydi g'amlab So'zimni.

Mendan so'ramagin bedor ruhimni,
So'rama hattoki kelishimni ham!
Nahot ishq ayladi devona seni,
Ketar jafosida ko'zlaringda nam?!

Izladim qadrni tunlari bedor,
Tangrim bergani shu – qadr sabotim.
Bundan ortig'iga yetarmi mador?
Bundan ortig'i ham hayot-mamotim.



Ketib borar yosh ham silkib vujudni,
Iztirob o'tida o'rtanar ruhim.
Endi bas, nahotki og'ishlar so'ndi,
Nahotki batamom so'ndi shukuhim?!

Ming bora yukundim, ming bora o'ldim,
Birov eshitmadi hatto zorimni.
Tilsiz nolalarim bittalab ko'mdim,
Ko'mdim men banogoh hatto borimni.

Toldi ko'zlarimda langarsiz ohim,
Qoldi yurak ichra dog' uzra ming dog'.
O'zing qo'llagaysan, qodir Allohim,
Mening yuragimda unlarim bedog'.



* * *

Ketarsan bir kuni barchasin qo'yib,
Bevafo dunyoda qoldirib zoring.
Kimdir seni qumsab yig'laydi to'yib,
Bag'rini o'rtaydi zor-intizoring.

Kech kirar bog'lar-da mudraydi asta,
Bo'zarar yulduzlar osmonda basta.
Oshufta yuraging qiladi xasta
Tun ichra ming bir dard bo'lib payvasta.

Kech kirib bog'lar-da mudraydi asta,
Sirlashar yulduzlar axgar osmonda.
Mening ham yuragim qiladi xasta,
Ming bir dardu alam dardi hijronda.

Ketarsan bir kuni barchasin qo'yib,
Bevafo dunyoda qoldirib zoring.
Kimdir seni qumsab yig'laydi to'yib,
Hajringda o'rtanar zor-intizoring.



* * *

O'chakishdi ko'ngil g'amlarga,
Bir kun o'chin olar g'amlar ham.
Bari birga kurashar shunda,
Armon bo'lar ayni damlar ham.

Kel, bugunni qadriga yetib,
Sovuqqina kulaylik bir dam,
Dovrug'imiz g'amlarga yetib,
Bir soniya tinch turar u ham.

Dodimizni kimlar eshitar,
Farog'atlar bir karra etsin.
Umid chechaklari muattar,
Bizlarni daf'atan mast etsin.

So'z bog'iga kiribman, bilsam
Ko'nglim ichra hisobi yo'q dard.
Nimadir u shu dam ilg'asam,
Gard ustiga qo'ngan kabi gard.

Ne so'z ekan so'zlarning so'zi,
Kuylab bersa yuragim uni.
Bizga tortiq Tangri har ro'zi,
Bir inoyat kuni ham tuni.



O'chakishdi ko'ngil g'amlarga,
Bir kun o'chin olar g'amlar ham.
Bari birga kurashar shunda,
Armon bo'lar ayni damlar ham.

* * *

Umidim gullarin so'ldirma, gulim,
Naqadar ojizman, benavodirman.
Bag'rimda nolalar qilar bulbulim,
Nahotki bir dardi bedavodirman?!

Asos daryosiga g'arq bo'lgan choqda,
Halloji Mansurdir nur charoqdoni.
Jasadin kuydirdi naf ila yoqib,
Dajla daryolari bo'lib makoni.

Qismat o'chog'ida har bir jon halak,
Qiynalagan jismini qiynar mazolim.
Haqsizlik o'ldirsa ko'ngilni beshak,
Kuydirar iymonni vahshatli zolim.

Haqiqat yo'lida qimtimayin lab
Halloji Mansurday yana bir bormi?
Kimda bo'lsa agar adolat matlab,
Mashrab kabi boshi ustida dormi?



* * *

Tevarakni tun dudi qoplar,
Dimog'imga urilar dog'i.
Qorong'u tun ichra duv yoshlar,
Achchiq ohim yetaklar chog'i?!

Dog'ulidir ba'zan ayozi ham,
Bahorimni qiladi qatron.
Tun siyohday tugamaydi g'am,
Diloynamga surinib sarson.

Iztirobdan uvishar vujud,
Yog'in yog'ar, g'amgin va sokin.
Sukunatga qilar ming sujud.
Tinchimas hech bu ko'ngil lokin.

Bir durdayin yog'in yog'adir,
Inju kabi ko'ngil oqartib,
Shudringdayin tomchilar g'avr,
Tomchilari shoshqin, betartib.

Yog'ar yog'in jivirlab xasta,
Tomchilaydi tinmasdan sira.
Va bu olam juda orasta,
Ko'z oldimda tortadi xira.



Tun tavridan yog'in tinadi,
Bosh ko'tarar yuragimda dard.
Ko'nglim xira qilib inadi,
Yomg'ir yuvgan barcha g'ubor, gard...

* * *

Chalindi chorasiz ojiz oyog'i,
Safar nag'orasi chalindi go'yo,
To'la hasrat ichra yurak chayqaldi,
Ortga qoldi oxir lash-lushli dunyo...

Osmon uzra uchar qushlar tinmayin,
Chopar kengliklarga cho'pon suruvi,
Faqat ko'ngil chekar iztirob betin,
Nafas olmay tinglar achchiq sukutni...



* * *

Yurak ichra bordir bir tugun,
O'tib borar kunlar lahzaday.
Ushalmaydi orzumiz bugun,
Muhabbatga eshmiz shamolday.

Shamol esar, to'xtamas aslo,
Biz-da shunday kezamiz, yulduz.
Osmonlarda yorug'lik a'lo,
Tatimaydi munavvar kunduz.

Ishq shundayin azob ham baxtdir,
Beishq dunyo ma'dansiz bir kon.
Ishq-muhabbat yagona ahddir,
Ishq-muhabbat – betimsol jahon.



* * *

Sig'may qoldi ko'z ichra ochun,
G'ussa bilan yurak payvasta.
O'tinaman, qor, uzat sog'inch,
Zora, taskin topsam men xasta.

Erimasin ko'zdagi yoshing,
Jaranglasin shodliklar shoda.
Mudom porlab iqbol quyoshing,
Sarmast qilsin muhabbat boda.

To'lqin jo'shar ham tongu ham kech,
Olislarga olib ketadi.
Manzar mag'lub bo'lar demang hech,
Bu dunyodan g'olib ketadi.



* * *

Tumanlar sachraydi bosh uzra,
Izg'irin tanamni sovutar.
Faqat gulxan yonar bir sira,
Faqat gulxan meni ovutar.

Bayoni yo'q, tanhoman, tanho,
Yolg'izman. Lek Parvardigor yor.
Yolg'izlikki, juda bebaho,
Parvardigor bilan baxtiyor.

Faqat qiynar bir dard titrog'i,
Tushovlar ruh ichra basma-bas.
Yuragimda alamlar dog'i,
Oromim yo'q, orom bir nafas...

* * *

Bema'no so'zlarimiz,
O'tmoqda kunlarimiz,
Chidasak ham yomonga,
Yolg'onga chidamasmiz.

Faqat titroqdir tanda,
Bo'g'zimizda yarog'lar.
Lablarda soxta xanda,
G'amga to'lgan qarog'lar.



Ba'zan, chalamiz qarsak,
Ba'zan, ochamiz quchoq.
Bilmaymiz nedir istak,
Ruhimiz g'arib bu choq.

Go'yo dalli devona,
Boshdan-oyoq dard-g'ammiz.
Quvonch-shodlik begona,
Hasrat bilan hamdammiz.

* * *

Dilda borim aytayin bugun,
Kech bo'ladi ertaga axir.
Tig'lamadik yurakni nechun?
Qismatimiz taxirdan-taxir.

Hech jur'atni topolmadik biz,
Qayda aytgin o'sha zo'r jur'at?
Qancha qildik fido jonimiz,
Yo'qmi bizda shiddatu sur'at?!

Bizni chorlar g'olib bir nido,
Kerak bo'lsa, tikaylik jonni.
Jonimizni qilaylik fido,
Gullataylik g'arib jahonni.



* * *

Ko'cha-ko'ylar uzra soyalar kezar,
Bilmaysan ularning kayfiyatini.
Ko'lankasi nogoh dillarni ezar,
Bilmaysan hattoki hech niyatini.

Ismsiz ko'rinar axir soyalar,
Yo Rab, yuragimga tushmasin soya.
Mendan yiroq bo'lsin soxta g'oyalar,
Solih bandang o'zing qilgin himoya.

* * *

Balolar begumon kelgaydir,
Balki sen bilmagan sitamdir.
Beshafqat shamolday elgaydir,
Beshafqat bir alam, bir g'amdir!

Gar balolar yog'sa boshingga,
Mudom Alloh degil dunyoda.
Baxtu iqbol kelar qoshingga,
Baxt-iqboling bo'lar ziyoda.

Samolarga parvoz qil, parvoz.
Voz kechmagil niyatdan aslo.
Mudom senga hamrohu hamroz,
Mehri bisyor Tangri taolo.



* * *

G'ussa bilan tirik yuragim,
G'ussa ruhim, g'ussa botinim...
O'tib borar samo karvoni
Ortiq ortga boqmas yulduzim...

Uzluksizdir oniy xayolot,
Sir-sinoat maxzani ko'ngil.
So'ngan yulduz timsoli bayot,
Betong kechar g'ariblik zalil...

Xayol har on ruhni ajratar,
Battar kechar jarohat tanda.
Xanda bilan boqar lahzalar
Ko'rinmas sir misoli tunda...



* * *

O'tarsan g'ussam sahrosidan bir kun,
Sirli sukunatim anglarsan chog'i.
Mumday eriyotgan ko'hna dardlarim
Ko'rib yuragingga olmagin dog'i...

Ba'zida so'zim ham bermas tasalli,
Aqalli bir so'z ham kelmaydi aytging.
Qaytib qaytolmaysan devona dalli,
Turmading ahdingda, yo'q sadoqating.

Sonsiz jafolaring o'sdi nayzaday,
Qadalmish axiyri borib yurakka.
Qandayin sinoat, qudrating hukm
O'qilgan-uqilgan muhaqqar jonda...





YANGI SHE'RLAR

* * *

Tashna yurak ichra sog'inch daf'atan,
Ramida ko'ngilga ko'chkilar solar.
Taqdirga sira ham u bermaydi tan,
Go'yoki jamiki alamin olar.

Daraxtlar bag'rini ochar erinib,
Ko'klam nafasidan ichib g'amboda.
May to'la kosani qayta urinib,
Mastona tutadi yana shabboda.

Atrof chechaklarga burkanar endi,
Bahor chodirini yoyajak g'amnok.
Bulturgi bahor ham ko'kdan og'inib,
Uning og'ushiga to'kilar bebok.

Afsus u lahzalar faqat xayoliy,
Faqat yurakdagi ishq haqiqatdir.
Qancha suronlarga amal abadiy,
Tafakkur puchmog'i hamalga asir.



* * *

Qor yog‘ar qoraygan yer uzra,
Daf‘atan dillarni yoritar,
Hatto dog‘ ham qoldirmas sira,
Barcha g‘uborlarni aritar.

Qor yog‘adi tinmay beg‘ubor,
Ko‘p o‘tmasdan oqaradi yer.
Yuragimdan takror va takror,
Oppoq qorday to‘kiladi she’r.

* * *

Qish oxir, ko‘klamni sog‘inar ko‘ngil,
Ko‘hna yaralar ham qo‘zg‘ar qaytadan.
Sen faqat shikasta bag‘rim tirnagil,
Yarmini suronli kuz olib ketgan.

Ko‘ksim ochib qo‘ydim, ko‘klam ellari
Chortaraf ochilmish zarba berish chun.
Ochilsa ochilsin yurak tuynugi,
Cho‘kkan kema misol mag‘ora nechun?



* * *

Ko'klam kelib og'indim,
Muhabbatim sog'indim.
Samo sari talpinib,
Moychechakday yastandim.

Ishq dardiga davo yo'q,
Garchi ko'klam yetsa ham.
Yurakka-ku tekkan o'q,
Asorati ming alam.

Har maysalar gardida
Ishq siyratin aksi bor.
Yuragimning burjida,
Ishq suvrati beg'ubor.

Ishq dardiga davo yo'q,
Garchi ko'klam yetsa ham.
Yurakka-ku tekkan o'q,
Asorati ming alam...



* * *

Osmon to‘la sanoqsiz yulduz,
Lek sanoqli umr kezlari.
Tez oqadi daryolar beso‘z,
Sokinlashar yurak tomiri.

Oy chiqadi shamolni quvlab,
Kecha ichra uvlaydi shamol.
Oy qo‘llarin cho‘zar og‘inib,
Lek yetmaydi qo‘lim bermalol...

Bahor mayi quyilar asli,
Uzatar u qadahin yozga.
Hech kelmaydi judolashgisi,
Yolg‘iz qolur qalb kulbasida...

Yetib bo‘lmas xayollar uzra,
Fikrlarim chalkashib minar.
O‘na boshlar dard yuragimda,
Yana qayta shuur bo‘y cho‘zar...



* * *

Har narsani g'ajishga hamkor
Soyalarga jilovlanmish u.
Chorasizlar har ishga tayyor,
Qorin to'ysa ketarmish qayg'u.

Tumonat el qorin g'amida,
Vatan so'zi dondayin laziz.
Soyabonlik butun avjida,
Soya qilsa bo'larmish aziz.

Vaqt g'animat yoz ham o'tadir,
Zaminu ko'k aylanar horg'in,
O'tmoqda-ku! Soz o'tsa shuldir,
Qo'llagancha bir-birin tag'in.



* * *

Bog'lar ichra darbadar shamol,
Dalalarda hukmron surur.
Yoz mavsumi kechasi behol,
Entikadi tashnahol shuur.

Asta mudrar beorom kecha,
Axtaradi halokat, orom.
Faqat xayol tin olmas, necha
Yulduzlar boz qildar uni rom.

Entikadi tashnahol shuur,
Yoz mavsumi kechasi behol;
Dalalarda hukmron surur,
Bog'lar ichra darbadar shamol.

* * *

Manzil olis, yo'l yo'qotdim,
Xavfu xatar to'la o'ng so'lim.
Zulmat ichra tosh kabi qotdim,
Qancha yurmay unmaydi yo'lim.

Talpinaman va lekin, evoh,
Mening uchun bir najot qayda!
Unutganday hattoki valloh
Taqdir degan asriy to'qayda.



* * *

Yashillikka burkandi jahon,
Yana hokim olamda bahor.
Go'yoki sir qolmagan pinhon,
Nozlarida o'zgacha ohor.

Gullar atri bilan mastona,
Mening shaydo ko'nglim – ilinchak.
Olmalar gullagan zamona,
Olmalar – go'yoki kelinchak.

Bor olamni yashnatib yana,
Ochiladi peshma-pesh gullar.
Ishq bog'ida qilar tantana,
Ishq alyorin kuylar bulbullar.



* * *

Ko'klam xobgohidan uyg'onar asta,
Uyg'onar ko'ngillar surg'a to'lib.
Qalqib daryo oqar ko'pchib sohilga,
Kimdir xo'rsinadi yuragi jo'shib...

Armon sevgi umidlari qo'zg'alar,
Barin boshdan boshlamoqqa chog'lanar.
Afsus, ul burudat yolg'izlik kechar,
Faqat xotiralar ichi shivirlar...

Bilmadim, bahor ham nobud ko'rinar,
Bor-budim bog'ishning ostonasida,
Kisvatim bo'm-bo'shdir, ko'ngil surinar
Mazarrat kasrida, yolg'iz yobonda...

Torlik siqintirar siqinti yerda,
Osmonga uchmoqqa qanot yo'q, e voh!
Yasama, to'qilgan yolg'on kominda
Ne-ne bechoralar, istar choragoh...

Mazammat botqog'i tortar domiga,
Jismimni kemirar shubha-gumonlar.
Majnunlar qolganmish faqat kechmishda,
Chin sevgi-sadoqat bemajol titrar...



* * *

Bahor buncha farahbaxsh fasl,
Hayratlarni cheki yo‘q, ishon.
Chor-atrofdan izg‘iydi vasl,
Intilishlar asli namoyon.

Daraxtlarning zirqirar tani,
Navdalarda anqiydi mehr.
Qahr go‘yo chekingan chog‘i,
Chag‘onalar cheksiz chalinar...

Qalb ko‘zi ham ochilar go‘yo,
Chirkin emas endi o‘zlik ham,
Bari toza, ko‘rinmas ro‘yo,
Oqib borar ko‘z ichra atrof...

Bahor buncha farahbaxsh fasl...



* * *

Ko'klam-da o'tmoqda yana qaytalab,
Ayt, sabru toqatim sinamoq, nechun?
Hajring dardi bilan bag'rim nimtalab,
Yana yil zarurmi topishmoq uchun?!

O, qanday sinoat, qandayin holat,
Faqat qolib ketsang yolg'iz bir umr?!
Fardu fardoniya yo'lidir toqat,
Qadalsa chechaklar ko'ksinga, sabr...

Bahor ketishidan xafa har daraxt,
Tasalli yo'q go'yo bahordan bo'lak.
Sabrli, toqatli daraxtlar karaxt,
Uzala tushgancha dod solar yo'lak...



* * *

Yomg'ir yog'ar bahor chog'i,
Sezمام, uning tomchilarin.
Jim tinglayman oqar dog'i,
Kechib kechmish ko'chalarin.

Begonaman o'z-o'zimga,
Egamasman goh so'zimga,
Muhabbatsiz keng bu dunyo,
Tor ko'rinar, bas, ko'zimga!

Armon halovat va huzur,
Anduhlarim yana ortar.
So'ramaydi hatto uzr,
Oyog'imdan takror tortar.



* * *

Yoz kechasi bog‘da salqin shamol yelar,
Bog‘ ochadi uchqur shamol ma’nolarin.
Dam o‘tmasdan chang-tuzonlar ko‘tarilar,
Qora suqur harakatlar izg‘ir to‘zg‘in.

Qay ma’noni shamol shahdam supuradi?
Daraxtlarning ko‘lkasida yashirinar yoz.
Shu zaylda bog‘da tartib buziladi,
Tuziladi yurak ichra yolg‘izlik soz.

Mudrar yana bog‘ bag‘rida bedov shamol,
Mudrar daraxt tegrasida beiz ko‘lka.
Yolg‘izligim - sukunatim men bilan qol!
Ikkimiz bir iqbol uchun yetdik yozga...



* * *

Yoz kuni issiq baland,
Asta-sekin yuramiz,
Sen bilan men sarbaland,
To'kilar lek ruhimiz.

Yurakda qon chayqalar,
Notekis urar savil.
Quyosh qayta qizdirar,
Zarralari zil-zambil.

G'amgin qayg'ular uzra,
Chodirin yoyar oqshom.
Qovun-tarvuz palakda,
Charsillar go'yo maqom.

Yoz shomi achinarli,
Quyosh botar ko'z yumib.
Qayerdadir jaranggi,
Sovuq ohday urilib.

Vaqt qonunlari yomon,
Shafqatsiz o'qir hukmin.
Qayg'uli ruh sargardon,
Sho'ng'ir tun ichra beun.



Qiyndalar bezovta ruh,
Havodagi bir musht chang.
Ruh qushi urar goh uh,
Osmon uzra dog‘day rang...

Zulmatda nur qidirmoq,
Soyani kesgan misol.
Oson emas ajratmoq,
Yorug‘lik-soya mahol...

Bog‘ ichra kecha sarson,
Uchmoq istar ruh yana.
Uyquga ketar hamon,
Daraxtda boyqush ana.

Sho‘ng‘ir zulmat ichra oy,
Qallda bahor bo‘lsa ham,
Qayerdadir bo‘zlar nay,
Ko‘ngil tashida yuz nam...

Sevgi hidiga to‘lgan,
Butun borliq bir qafas.
Ko‘rsatmas gul iforin,
Yurak cho‘chir har nafas...

Yoz kuni, issiq baland,
Odimlaymiz ohista,
Sen bilan men sarbaland,
Shohistaxon, Shohista!



Yuragim bog‘lar qanot,
Bamisoli lochin qush.
Go‘yo topganman najot,
Go‘yo sarmast qilar tush.

Baxt qasriga daf’atan,
Uchib boraman shitob.
Shu men talpingan vatan,
Mudom chorlagan xitob.

Yoz kuni, issiq baland,
Odimlaymiz ohista,
Sen bilan men sarbaland,
Shohistaxon, Shohista!





SARATON

Saratonda kezaman yolg'iz,
Jimirlaydi qirlarda otash.
Tentirayman benavo hanuz,
Bilmam nega – yuragim ham g'ash.

Tandir kabi qiziydi zamin,
Ko'kda quyosh lovullar lov-lov.
Nogoh qalbga tutashib olov
Mahv etar bu dunyoning g'amin.

* * *

Mudrar bog'lar bag'rida sukut,
Borliq ichra yoz ham cho'zilar.
Ko'rinmaydi bir parcha bulut,
Tim ostida qo'y va qo'zilar.

Qizdiradi quyoshning tafti,
Qotib qolgan go'yo shamol ham.
Za'farondir samovot afti,
Qo'llaringni tutar yoz mahkam.

Soat sayin issiq avjlanar,
Dasting tutar jazira mahkam.
Adirlarda hovur mavjlanar
Ko'ngilda ham jazira hakam.



* * *

Boshim uzra dardu g'am,
Ko'nglimda bisyor hasrat
Nahot qaddim bo'lar xam,
Nahot yo'q biron nusrat.

Yuragimda alanga
Go'yo so'nadi nogoh.
Madad bergin bandangga,
O'zing qo'lla, yo Alloh!

* * *

Dunyo, zindoningdan otildim,
Parvoz qildi qush kabi xayol.
Bilolmadim, ne uchun uchdim,
Ozodlikmi yo istab visol?

Qandayin bu hayot ilg'anmas,
G'oyib bo'lar go'yoki tushday.
Muhabbat ham o'tdi, unutmas,
Sehri bilan bizlar sarxushday.

Xayollardan bog'lab qo'sh qanot,
Samolarda yuribman uchib.
Nasib etsin har kimga najot,
Yashasin baxt-saodat quchib.



* * *

Yana xayol olamidaman,
Samolarda yana kezarman.
Menga makon jannatday chaman,
Gullar bilan uni bezarman.

Kechdim hayot saroblaridan,
Xayol ichra mastman bu palla.
Mastman ishqning sharoblaridan,
Ne baxt, baxtim butun baralla.

Sen ham, do‘stim, qanotingni yoz,
Yuragingda qolmasin armon.
Inson kelar dunyoga so‘zsiz
Baxtli yashash uchun bearmon.

* * *

Kun botmoqda azal izmida,
Ufqlarni yondirib mahzun.
Ishq shomlari, ana qoshimda,
Hasratlari uzundan-uzun.

Yurak-bag‘rim qiymalab yana,
Boshim uzra aylanar anduh.
G‘anim kabi qilib tantana,
Zarba uchun shaylanar anduh



Qancha yillar izladim seni,
Zor aylagan bol kabi so‘zing.
O‘tinaman, ranjitma meni,
Bag‘ringga ol avaylab o‘zing.

* * *

Dengiz uzra to‘lqin chayqalar,
Talpinadi bulutlar sari.
Chappar uchib uchar chaykalar,
Shamolga to‘sh urib sarsari.

Qalbinida ham muhabbat mavji,
Meni garchi qilar beorom;
Yuksalgani sayin ishq avji,
Sarmast qilar sehrli orom.



* * *

Juda go‘zal qish ham o‘zgacha,
Oq libosda jilmayib turar.
Oppoq go‘yo qoshu ko‘zgacha,
Yurak hamon shiddatli urar.

O, qish ichra hukmron armon,
Bahorgacha muzlar chorasiz.
Mizg‘ib yotar zamonu zamon,
Turli xayollarga borasiz...

Qora sirlar sir bo‘lib qolar,
Qishga barcha sirlarin ayta.
Xayolimni navbahor olar,
Bahor chorlar qayta va qayta.

* * *

Sen-la baxtim bo‘lmadi to‘kis,
Qay qaro kun seni yo‘qotdim?
Ayroliqdir o‘shal shom behis
Jonim yondi, tosh kabi qotdim.

Kutaverib bo‘ldim asiring,
Ortiq toqat qolmadi go‘yo.
Balki ta‘qib qilishdir rasming,
Rusumlardan charchadim, oyo!
Evoh, sensiz topolmadim baxt,



Hasratlarim necha-nechadir!
Hijron mensiz bo'lmasin karaxt,
Mensiz holi nelar kechadir?

* * *

Bahor nazmi ko'ngilni tirnar,
Oh, yuragim o'rtar hijron ham.
Sunbulani suviday kadar,
Sensiz holim ne kechar, bilmam.

Guvillaydi bo'ronlar shiddat,
Asabiy bir holat begumon.
Ishq dardi ham jo'shar bir muddat,
Kirib kelar mangu vaqt hijron.

Dasti daroz kibor dahri dun,
Qadr singib yotar yer qadar.
Telba yurak go'yoki beun,
Ko'zim ichra mardum sarbasar.

Yuragimda ming bitta armon,
Yetti qavat yeru ko'k hakam –
Dardlarimga darmon yo'q darmon,
Hamon hamroh dardu g'am-alam.



* * *

Bahor yomg'iriga monand ishq zavqi,
Ruh ichra tomchilar asta tinmayin.
Takror mast qilar muhabbat shavqi,
Bahor yellariday muattar, mayin.

Asti chidab bo'lmas, ohangi g'arib,
Tomchilab-tomchilab yomg'ir yoqqanda.
Ba'zida daf'atan osmon oqarib,
Bulutlar oralab quyosh boqqanda.

Dema yorning gulday yuz uzra xolin,
Axir u-da o'xshar yomg'irga, zotan.
Tan olgisi kelmas hech kim zavolin,
Aksari taqdirga hech kim bermas tan.

Bahor yomg'iriga monand ishq zavqi,
Ba'zida banogoh xasta qiladi.
Va lekin afsungar muhabbat shavqi,
Hatto keksani ham rasta qiladi.

Ishqsiz kerak emas bir dam dunyoying,
Solsa ham ko'ngilga ming dardu alam.
Muhabbatsiz farqsiz do'zaxdan joying,
Ishq bilan jannatdan a'lo bu olam.



Hattoki eng og‘ir, murakkab palla,
Dardu hasratlarga bo‘lmasin taslim
Munavvar chaqmoqday porla baralla,
G‘olib bo‘l muhabbat bobida, naslim!

* * *

Kezdim bir kech oydin buloqni,
Sokin nafas olarman asta.
Suvoriyday bermas uloqni,
Shijoatu g‘ayrat payvasta.

Tog‘da fayz nadir boshqacha,
Mug‘anniyday nolakor daraxt.
Oy nurida buloq o‘zgacha,
Toshqin daryo go‘yoki karaxt.

Oy tirnog‘i tog‘ ko‘ksin tinar,
Bulutlar ham quchadi tog‘ni.
Olam go‘zal bo‘lib ko‘rinar,
Unutasan dildagi dog‘ni.

Yakranglikdan bezarsan lekin,
Qanot bog‘lar shavqu shukuhing.
Yulduzlardan balandga sekin,
Yuksaladi mastona ruhing.



* * *

Ko‘zimga cho‘kmoqda yozning nafasi,
Chin dard uzra hatto ojiz hukamo.
Daf’atan siqilar ko‘krak qafasi,
Faqat pastlayotir umidim borho.

Gohida sochilib kelar g’am-alam,
Tig‘day sanchiladi yurakka pinhon.
Gohida mag‘rursan, poyingda olam,
Quvgaysan sen uni, bermay bir imkon.

Har ne o‘tdi bari o‘zingdan hargiz,
O‘zgadan nimani kutganding, ey yor?
Na qayg‘u, na quvonch tatiydi sensiz,
Sensiz bo‘lolmasman inon baxtiyor.



* * *

Umid shivirlari ko'nglim tinch qo'ymas,
Osmoniy haqiqat bo'y cho'zarmi hech?
Bir qavm ko'rdim men sira ham to'ymas,
Yamlamay yutadi ham tongu ham kech.

Men esa to hamon tutquni ishqning,
Muhabbat o'tida kuyib-yonaman.
Hayotim mazmuni – mazmuni ishqning,
O'tkinchi dunyodan ba'zan tonaman.

Hech kim bu dunyoda bo'lmaydi ustun,
Hammamiz dunyoda besh kunlik mehmon.
Va lekin ishq bilan imoni butun
Mo'minlarni mudom qo'llaydi Rahmon.



* * *

Ko'krak qafasimiz yurakka qalqon,
Ham ishq iztirobi ko'ngil tayanchi.
Ohanglar qalbimiz qa'rida pinhon,
Yana nima kerak ko'ngilga, ayt-chi?

Ummon nafasini tuymoqda ko'ngil,
Balki yomg'ir yog'ar, berdi xabarin.
Balki tuyg'ular ham toshar bemisl,
Pisand qilmay hayot toshu tabarin.

Qalb ko'zini ochdi iztirob oxir,
Xavfsirab uyg'ondim xobi g'aflatdan.
Meni rom qilmadi bu hayt sohir,
Ko'nglim ham to'lmadi do'stu ulfatdan.

Garchi shijoatim zanjirband go'yo,
Gar mudom sargardon yolg'iz bu boshim.
Nainki g'oyibdir, nainki ro'yo,
Boshim uzra porlar iqbol quyoshim!



* * *

Dunyo ichra bir xasday,
Ketyapsan surinib.
Goh bilmasdan xayolday,
Uchyapsan kuyunib.

Salqin shamol esadir,
Yurak hech olarmi tin?
Keragidan ortiqdir,
Boyliklar – kumush, oltin.

Zarur bu olam ichra,
Ham oltinu ham kumush.
Ularsiz – hayot xira,
Ularsiz – zahmat yumush.



* * *

Qo'y, yig'lama! Bag'rim qilma xun,
Sen keraksan ko'plarga hali,
Dunyoda bearmon yashagin mamnun,
Hayot bu – bearmon ishqning mahali!

Keldingmi bu yerga, kutarsan so'zsiz,
Falak farmoniga muntazir banda.
Bizni hisob kuni Tangri shubhasiz,
So'ragin, qilmasin sira sharmanda.

Nima ham qilardik, azaliy qismat,
Bir kun ortda qolar hayot beshigi.
Va lekin yor bo'lib ilohiy ismat,
Bizga qabr bo'lsin jannat eshigi.



* * *

Bulutlar bor kuchin ko'rsatar bu kech,
Daraxtlar shamolda chayqalib turar.
Sirli bir hodisa, sirli chiroy hech,
Nechundir yuragim bezovta urar.

Hayajondan chiqar daf'atan jonim,
Tomirimdan oqar xunim bezavol.
Cheklangan mening ham so'zsiz imkonim,
Besh kunlik dunyoda kim topmas zavol?!

Kim yonar oshiqday Qaqnusga do'ngay,
Sog'inch ichra jonu jahonni kezib.
Dunyodan qochib ishq sahniga qo'ngay,
Qismat yonmoq faqat dunyodan bezib.

Ishqqa mardonavor quchoq ocharmiz,
Imkondan ortig'in izlasin yurak!
Yolg'ondan sarbaland darddan qochmasmiz,
Qachon biz ishq tomon do'narmiz, falak?



* * *

Qop-qaro tun kabi yoprildi hasrat,
G'am to'la hasratning bodasi kabi.
Bu qanday talofat, bu qanday kasrat,
So'ndimi daf'atan ishqning kavkabi.

Ko'ngil kengliklarin uqdim payopay,
Dilda ilhom zavqi ziyoda bo'ldi.
Qaylarga talpindim o'zimni bilmay,
Ne bo'lsa ham Manzar dunyoda bo'ldi.

Zaminning zalvarin anglamas dilim,
Ba'zida tushunmas bir umr yurak.
Bir ishq zavqidan bo'lak, ayt dilim,
Yana qanday baxtu saodat kerak!

* * *

Yoz faslida polizlar saxiy,
Yozayotir oltin dasturxon.
Tin olmaydi – bari ilohiy,
To'kinligi ziyoda har on.

Vale issiq tinmay kuydirar,
Yoz olovi qizdirar juda.
Osmon to'la anjumlar g'ujum,
Ularning suhbatı avjida.



* * *

G'am-hasratga to'lar yuragim bu kech,
Salqin chorbog' ichra tuman quyildi.
O'zimni men qo'lga ololmadim hech,
Olam bir lahzalik tushday tuyuldi.

Qoramtir bulutlar avzoyi buzuq,
Tun bo'yi tinmaydi uning ko'z yoshi.
Nihoyat olamni yoritar yovuq,
Olam uzra porlab oltin quyoshi.

Men shunday sevarman Yaratgan ishin,
Ortiq sevganimdan og'riydi dilim.
Bag'rim xun o'ylab goh dunyo tashvishin,
Yorishmas bulutli kun kabi ko'nglim.

Bir kun ozodlikdan o'nar qabrimiz,
Imkondan ortig'in izlamas yurak?!
Yolg'ondan sarbaland darddan qocharmiz,
Yolg'on safsatalar bizga ne kerak?

Yaratar, va aksar yashashga qo'ymas.
Dunyoni tark etsak rostni qumsab tez!
Yolg'onni kimlar hech bo'htonga yo'ymas,
Mantiqqa zid asli bu bema'ni kez.



G'am-hasratga to'lar yuragim bu kech,
Salqin chorbog' ichra tuman quyildi.
O'zimni men qo'lga ololmadim hech,
Olam bir lahzalik tushday tuyuldi.

* * *

Kun botdi, daraxtlar sirga ko'milar,
Ochildi kechaning bag'ri bir xasta.
Yulduzlar nuriga olam cho'milar,
Raqsga tushadi shamol ham asta.

Xastalik yurakka solganida band,
Bulutlar oralab oy bo'ldi hamdam.
Qismat gar qasdlashib bersa hamki pand,
Tumanlarni yorib chiqdi ruhim ham.

Tanholikka o'ralgan tunlar ichinda,
Yurakning bir siniq parchasi paydo.
Bu kecha daryolar mustar sukutda,
Tola nurda go'yo oftob huvaydo.



* * *

Kunlar tun qa'riga botadi sho'ng'ib,
Go'yo ortga qaytar yo'lin yo'qotgan.
Gul kabi chiqqaymiz vale ko'karib,
Muqarrar qismat bu tosh kabi qotgan.

Gul kabi chiqqaymiz vale ko'karib,
Muzaffar ko'tarib ozodlik tug'in.
Dahri dun so'ramay jonimiz olib,
Yana tutqazadi g'oliblik tug'in.

Besh kunlik demagin dunyoni aslo,
Hech kimsa butunlay ketmas bosh olib.
Madadkor bo'lsa bas Tangri taolo,
Har ikki olamda bo'larmiz g'olib.



* * *

Zaminning bagʻrida otashnafas yoz,
Chidamoq osonmas, mevalar larzon.
Talpinib qoʻl choʻzar koʻk sari daroz,
Bulutlar qilt etmas, yogʻinmas arzon.

Jazira kuydirar jismu joningni,
Kechdir, choʻl gullari ololmas nafas.
Yobonda bir tomchi suvga zor kishi,
Lek hijron oldida hech narsa emas.

Asriy chang-toʻzonlar kechar xayoling,
Olib ketar betin moziy qaʼriga.
Ishqning kechmishidan oʻchmas gʻuboring,
Seni olib ketar koʻkdan nariga.

Oʻlmas qoyalardir gʻamnok asrlar,
Hech bir zot achinmas, taqdiri azal.
Zimnida bezavol asroru sirlar,
Nogoh maftun qilar shohona gʻazal.



* * *

Toriqdingmi huzn kechada?
Ishq tavriga bir quloq tutib.
Nahot o'tdi yoshlik chog'lar-da,
Hijron topding sen visol kutib.

Kech ichinda yurak nam tortdi,
Go'yo tunday chodirsiz topda.
Birzum zulmat yorug' ko'rindi,
Yorishganday nurli oftobda.

Tunqushi ham sayrar betinim,
Yayramasdir yurak xafaqon.
G'am bilandir mudom suhbatim,
Quvonchim-da u bilan hamon.

Yuragimda jo'shadi armon,
Hasratlarim mudom ziyoda.
Nahot menga yo'q aslo darmon,
Tangri to'kis qilgan dunyoda?!



* * *

Dalalarda issiq jazira,
Oltindayin tovlanar somon.
Omonlikning ilinjisida,
Tog'lar kabi yuksalar xirmon.

G'ichirlashib qarag'ay-eman,
Sukunatni buzadir har dam.
Og'ib borar jilmay quyosh ham,
Jilovini tutqizgan qay dam?

Issiq. Shamol. Suvsizlik dog'i
Daraxtlarning bag'rida panoh.
Talosh erur soya ham chog'i
Quzg'unlarning inimish, ey voh!

Dam chug'urlar, dam uchar qushlar,
Insiz qolgan mo'r-malax kabi...
Va daf'atan ko'ngilni hushlar,
Shodlikka o'ch hayotning ta'bi.



* * *

Soch uzra sochilar qay qish qorlari,
Shamol huvullagan qalbing o'rtaydi.
Hali kun ko'rmagan satrlar qadri –
Yodingga soladi o'ylarni daydi.

Ozayib ozmoqda vujud langari,
Tumanga aylanib boryapti qalblar.
Bo'ronlar avjiga chiqsa sarsari,
Azoblar zabtidan horyapti qalblar.

To'kilgan yaproqlar hali jonsarak,
Nechun oq qorlarning yetmas nidosi?
Bo'y cho'zib bormoqda qora mushtarak,
Qalbim bo'lsam deydi uning fidosi!



* * *

Yomg'ir yog'ar chayqab vujudni,
Chayqalar ko'ngil g'amga botib.
Suzadi oy yorib zulumatni,
Sarhadlarni bir-bir uyg'otib.

Tun loshini sadosiz-sassiz,
Qaylargadir betin sudraydi.
Oyga parvo qilmayin essiz,
Sarhadlar jim, faqat mudraydi.

* * *

Ko'zimga nuradi oppoq bulutlar,
Sarosar xayollar yoprildi uryon.
Kechmish sari toshdi biryon daryolar,
Ostinda oqdilar faryodlar giryon.

Duyoning gardishi ko'rindi zangor,
Ichindan otildi qora buhronlar.
Sovuq chehralardan muzladi tanlar,
Issiq tanalarni tanlar gumonlar.

Shundayin zulmatni yorib o'tguvchi –
O'zingsan xayolot. O'zingsan yerim.
Vatan deb atalmish qora tuproqni –
Ko'zimga to'tiyo qilgansan she'rim.



Bedorlik nimadir, anglat Sen o‘zing,
Madad-imdodingga zorman men seni.
Nurab boryapman kun sayin, vasling
Kutayapman, axir, bo‘zlatma meni!

Sen nima ko‘ribsan yorug‘ olamda,
Aytgil, mazlumlarning faryodinmi yo?
Ezilgan bag‘rimni ezdim qaytadan,
Aslo do‘st bo‘lmadi bu yolg‘on dunyo.

Marzalar izmida ufq-da qonmish,
G‘animat tong-da tugar qay fursat?!
Lek bag‘rim yarasi abadiy dog‘mish,
Qiyli qol makoni, afsus arosat.

* * *

G‘ayyur qarashlardan egiladi bosh,
Nahot begonasan shu cheksizlikka?!
Archib yuragingni olsalar yuvosh,
Ko‘narmisan, aytgin, bu erksizlikka?!

Ba‘zan, bo‘g‘zing ichra qotadi bir so‘z,
Aytolmay halaksan daryolar kechib.
Yuvg‘in yoshlaringga sabab, shubhasiz –
Bu jumboqni aslo bo‘lmaydi yechib.



Aylanur munfasil charxi kajraftor,
So‘ramas holating bir sham’i bo‘ston,
Afsuski, turfadir hamdam-g‘amgusor,
Qoyimmish muttasil xarsanglar har yon.

* * *

Charchoq bosibdimi muzdek tanimni?
Sezmayin qolibman qishning kelganin.
Tanib olish mushkul birdan g‘animni,
Bog‘larda izg‘irin shitob yelganin.

Umr rishtalari tortilib tarang,
Ruhim soyasiga solibdi hadik.
Bosh uzra nur tashlab turganday arang,
Botmoqda quyosh ham go‘yoki oydek.

Tunim darvozasi ochilgan yoqqa –
Boryapman, dog‘ingni ko‘rsatma zinhor!
Hasrat oynalarin bir-bir artmoqqa,
Derazang ortida turibman, dildor.



* * *

Maftuna aylamish mehring quyoshi,
Sovuq ohlarimdan qolmamish asar.
Yuksalmoqda tovush falaklar sari,
Ufqda ko‘ringay oftobim magar.

Agarki ko‘nglimni qolmas madori,
Bilgaysan yetibdi menga ishq zayli.
Ko‘ksimda oshufta Majnunning zori,
Meni ham rom etgan asli bir Layli.

Bulut ko‘chadir uyg‘otib hadik,
Bariga qo‘l siltab ketmoq istaydi.
Daraxtlar zalvorli qorlardan egik,
Zabtiga olib qish qahri qistaydi.

Qo‘g‘irchoqboz dunyo parvoyi falak,
Basma-bas beshafqat solar sitamlar.
Kishanlar zabtidan samovot halak,
Oshiqlar hamrohi azaliy g‘amlar.

Jo‘shqin daryo kabi toshar o‘ylaring,
Mudom avjga chiqar ko‘kda bo‘ronlar.
Samoga yuksalar shitob bo‘ylaring,
Bo‘ronlar bag‘ringni qilsa vayronlar!



* * *

Hech soʻnmasin mehring begumon,
Bagʻritoshing sogʻ-omon bu kech.
Kech tushmasdan qaytgil sen omon,
Olislarda qolib ketma hech.

Oʻtdi qancha yillar beomon,
Qosh qoroyib botibdir quyosh.
Yuragimda va lekin armon –
Taxt quribdi baxt ichra bir tosh.

Kiprigingda qotgan koʻz yoshlar,
Bagʻrim ichra dogʻ uzra ming dogʻ.
Yoʻllamagin pinhon xotirlar,
Oshkor sirim el ichra bir bogʻ.

Chiqqan edik lola sayliga,
Peshvoz chiqdi lola-qizgʻaldoq.
Taqdir hukmi bilan, mayliga,
Maftun etdi meni baxt aldoq.

Koʻngil ichdi anduh bir olam,
Tatimadi qizgʻaldoq sayli.
Hamon bisyor koʻnglimda nolan,
Shafqat qilmas zamonning zayli.



HAYRAT

Bu she'rmas, balki bir yurak tug'yoni,
Qaltirab boqmagil menga bepanoh.
Hokimi azaldan ikki dunyoni
Allohdrir, Allohdrir, begumon Alloh!

Hayratdan to'kildi ko'zlarim nuri,
Madorim qolmadi qilcha tadorik.
Hayrat yog'dulari yoqdi tanimni,
Ruhim qafasidan otildi o'qdek.

Hayratning nigohi bunchalar o'tkir,
Bunchalar sitamkor qora gumonlar.
Meni quchog'iga chorlaydi ming sir,
Bag'rida ming bir sir to'la ummonlar.



* * *

Balki biz ham sevinchga to‘lib,
Yorug‘ kunga yetarmiz bir kun.
Oshiq kabi mastona bo‘lib,
Baxtu iqbol qucharmiz durkun.

Faqat qachon, umr karvoni,
Yelib borar manzili tomon.
Hamon baland hayot dovoni,
Hamrohimiz to hamon armon.



TASALLI

Xayrlardan ozurda ko'ngil,
Ko'p og'irdir aytmoq bu so'zni.
Vidolashmoq undan-da mushkul,
Mushkul ishqdan yummoq ham ko'zni...

Boqma g'amgin! Dunyo shu asli,
Visol bilan hijron payvasta.
Azal-abad odamzot nasli,
Goh shodu goh xastadir, xasta...

Xayr endi omon bo'l, omon!
Ko'rishmasmiz balki biz ortiq.
Axir, seni ko'rmasman yomon,
Hijron ham bu misli bir tortiq.

Boqma g'amgin! Dunyo shu asli,
Visol bilan hijron payvasta.
Azal-abad odamzot nasli,
Goh shodu goh xastadir, xasta...



* * *

Tentirar vujudda adashgan qonlar,
Onlar ham oqmoqda boshqa yo'sinda.
G'oyib sirlaringdan voqifmas go'yo,
Birovning qoni bu – yotdir ko'ksimda...

Oq qushlar samoda kezar bir nafas,
Ketgisi keladi ko'ngil misoli.
Daxlsiz kenglikka qilmaydi havas,
Axir, esayotir ruhing shamoli...

* * *

Xayol edi, bari bir ro'yo,
Tutilmagan ko'ngil daftari,
O'tolmadi taqdirni chetlab,
Bir bechora miskin sarsari.

Bir tush edi hamrohi bunda,
Havaslardan bo'ldi begona.
Armonlarning xabari kunda,
G'ariblikdan bo'ldi nishona.

Xayol edi, bari bir ro'yo,
Tutilmagan ko'ngil daftari,
O'tolmadi taqdirni chetlab,
Bir bechora miskin sarsari.



* * *

Bir miskin xayoliy xotirjam,
Ko'nglida armonning xabari.
Balki u xayoldir bir olam,
Bilmaydi, bag'rida asari.

Ba'zida hurlardan a'lodir,
Ba'zida bo'g'zida nafasi.
Hijron – boshga bitgan balodir,
Hayotning u tor bir qafasi.

* * *

O'tib ketdi bari shundayin,
Bari shunday, bari tushdayin.
Kechmishimdan qolgan yodgorlik.
Osmon uzra oppoq sutdayin...

Termulaman olis kenglikka,
Qaytarmikan o'sha ufqlar.
Yuragimni sirmagan o'qqa,
Tazarrular qilaman og'ib...

Termulaman olis ufqqa,
Qaytarmikan ko'hna dardlarim.
Hayratimni oshirgak ko'kka,
Tazarrular qilurman jonim...



* * *

G'amgusor yo'lakni bosgan qor,
Shu mahzun ko'chalar yodimda,
Hidlarni taratib daraxtlar
Qalbimni to'ldirgan zo'r ishqqa.

Muzkulba ichinda dildirab,
Sovuqdan mung'ayib yotganda
Uyushgan barmog'im puf-puflab,
Isindim satrlar ichinda...

Chayqalib ko'rinar bu kechmish,
Davom etar yo'lakdagi qish.
Eng sara satrlar chayqalmish,
Kech chog'i qarg'alar qag'lamish...

Ko'z ichra qotgan bu anduhlik,
Yagona chora chorasizlik.
Ichki bir mahdudlik kemirar
Yurakni g'ijimlab bir g'ashlik...

Cho'lg'ab olar ko'ngilni jazba,
Qochging kelar olis-olisga,
Daydi xayollaring kelmasa
Yig'laydi maymunlar holingga...



Yolg'iz xayol mangulik sari
Yetaklar tuyg'ular karvonin,
Yurakdan supurar g'uborni,
Faqat ketkazolmas g'am changin...





* * *

Bolalik ham o‘tdi shamolday,
Ona, seni bag‘ringda bir zum.
O‘tdi sitam jondan kamonday,
Faqat yoding bir ona so‘zim...

Dil sog‘inchi tugamaydi hech,
Kech bo‘lsa ham topayin bir so‘z.
Har bir narsa o‘zgarar bu kech,
Benavoman, benavo hanuz.

Muhabbatsan, isming Muhabbat,
Menda faqat shu qoldi xalos.
Bari o‘tdi qoldirmay muddat,
Menda qoldi shundayin ixlos.

Yana qaytdim qishloq yo‘liga,
Qabaribdi tutlar behisob.
Lek qolibdi yoshlik chog‘larim
O‘sha tutlar bag‘rin tilkalab:

Tavonimga urilgan shoxlar,
Endi og‘och bo‘libdi butkul.
Hey uzoqdan dashtu dalalar,
Izlamogda yurakka bir yo‘l.



O, qishloqning ma'yus chiroyi,
Onam faqat siz bilan ekan!
Bugun yana fusun topibdi,
Hoji Onam kutib yo'llarin...

* * *

Ko'ngil ichra surur yuqmadi,
Tomaverib charchadi chak-chak.
Sensiz onim hech on kechmadi,
Hech tinarmi sensizin yurak?

Ot ustida chavgon o'ynatib,
Kelmadi-ku kutganing bir bor.
Ertaklarga aylanding ko'nib,
Kecha-kunduz kechmish intizor...

Vasl goho og'ir intiqom,
Judo aylar hatto sog'inchdan.
Chang-to'zunday un cheksa maqom,
Ehtimolki qochsak sururdan...



* * *

Qandayin mahzun bir holat bu?
Tush kabi o‘tadir har oning.
Tugadimi quvonch, nahotki?!
Tashlab ketsa o‘z xayollaring...

Ketdi daqiqalar bir zumda,
Izlab topolmaysan yo‘qotib.
Axir xayol vaqtning izmida
Samo chegaralarini kezib...

* * *

Qalbimiz torlarin birma-bir uzar,
Gulshani ko‘nglimiz bog‘larin buzar,
Bemehr insonning har bir qaroshi,
Yulduzdan ham yiroq inson kamoli.

O‘tadi har ro‘zing zahar-zaqqumday,
Sahroning qumiday ko‘mib kamoling.
Qandayin yashaysan sen uni bilmay,
Axir, yonginangda sinar bardoshing?!

Maysalar o‘ssin deb turasan nahor,
Kamolga yetsin deb kecharsan anhor.
Qishin-yoz bo‘zlaysan cho‘llarni kezib,
Tinarmi hech bunda yovuz shamollar?..



* * *

Ko'ngil anduhlarin ko'mmoq istayur:
Takfin choralari ko'rilar go'yo,
Lek onsiz bu hayot temirtak botar,
Targ'illanib borar xayol ham hatto.

Dunyo talbislari ortgani-ortgan,
Kundan-kun tengsalib boradi ruhsiz.
Bag'rimni o'rtaydi bu cheksiz armon:
Tagsiz samolarda sochilgan yulduz.

* * *

Yomg'irda simillar daf'atan jonim,
Va lekin qalb yayrar yomg'irli kunda.
Daraxtday tebranar qaddi kamonim,
Shamol ham men bilan oh chekar tunda.

Zim-ziyo tun ichra sag'irdir bu ruh,
Taskin bera olmas yomg'ir marvarid.
Hech kimsa holingga achinmas majruh,
Ruhim ham shamolday uvlab bemavrid.

Bepoyon zaminu hatto osmon tor,
Hatto hech biriga sig'mas xasta jon!
Bizga baxt begona to hamon, Sattor,
Sodiq hamrohimiz to hamon armon.



* * *

Ruhimda o'zgacha shiddatu tug'yon,
Kishanday poyimga payvasta g'ussa.
Bilmadim, bu qanday g'alayon, isyon,
Bilmadim, bu qanday qayg'uli qissa.

Javobsiz savollar bag'rimda bisyor,
Bormi deyman axir ularga javob.
Haj qilgan kimsaday juda baxtiyor,
Men ham axtaraman beadam savob.

Netayki, qismatning beshafqat dasti,
Oyog'u qo'llarim ipsiz bog'langan.
Ayo do'stlar, ayting, bormikan asti,
Men kabi bir g'arib bag'ri dog'langan?!



* * *

Olis-olislarga uchsa turnalar,
Lochinlar yuksalib quchsa samoni,
Zaminni qoplagan ko'm-ko'k maysalar,
Samoda kamalak rangin kamoni.

Ozod ruhim qanot bog'lar daf'atan,
Yuksak samolarga talpinar nogoh.
Taqdirga sira ham u bermaydi tan,
U barcha sirlardan bo'lsam der ogoh.

Lek imkondan ortiq ruhning zalvori,
Yurak chegarasin buzar bir pasta.
Axir, muhabbatning har bir zarrasi,
Faqat aning bilan yetar yuksakka...

Qutlantir yurakni, qutisi yarim,
Endi ishonch qaytsin, bu tavrims notinch.
Bormikan ko'ngilda beruh bir sezim,
Usiz yurak ichra hech emish sevinch...

Zaminni qoplagan ko'm-ko'k maysalar,
Samoda kamalak rangin kamoni.
Daf'atan samoga ruhim yuksalar,
Kamalakday quchar cheksiz samoni.



* * *

Hijronning yo'lida tinib-tinchimay,
Dunyo siylasa ham tor qafas bilan.
Yulduzlarga boqgum ko'zlarim yummay,
Holbuki, yumilar bir nafas bilan.

So'lg'in ohlardadir bir uyum hasrat,
Ko'tarur bu yukni faqat bir tutum.
Bardoshi yetmas hech notinch yurakni,
Bezovta dolg'alar tinchimas bir zum.

Moziyni eslatar dardli xayollar,
G'ussalar bag'rimni o'rtaydi dog'li.
Daf'atan yuragim larzaga solar,
Vo ajab, g'ussalar juda ardog'li!

Muhabbat dardi bu – azizdan-aziz,
Oshufta yuragim zabt etgan butun.
Lablarimda garchi tabassum hargiz,
Aslida dilxunman, vo darig', dilxun!



* * *

Yuragimda beadam anduh,
Dardu hasrat daf'atan yetdi.
Qushday parvoz qilib ozod ruh,
Meni tashlab qaylarga ketdi.

Bir holatki, sinoat va sir,
Bir holatki, hech anglab bo'lmas.
Qayg'ularga asirman, asir,
Tashna ko'nglim sira ham to'lmas.

Bilmadim bu kimning firog'i,
Bilmadim bu nimaning dardi.
Yuragimning o'chgan chirog'i,
Bir g'aribman, mardi yo'q, mardi!

* * *

Shuur yo'li faqat bedorlik,
Parvoz qilar nur ichra xayol,
Xayol bilan qaytdi teranlik,
Ruh nur bilan yuzlashar alhol.

Bog'da izg'in g'avg'olar bisyor,
Hech qandayin da'vom yo'q, hayot.
Men g'aribni qilib baxtiyor,
Baxsh etsang, bas, ishq kabi bayot.



* * *

Yurak ichra mo‘raladi qor,
Erib ketdi g‘ussa taftidan.
Lek erimas iztirob, beor,
Ufuradi qayg‘u aftidan.

Oy suzadi go‘yo ko‘r, karaxt,
Bir g‘aroyib, shundoq betayanch.
Tashqarida yalang‘och daraxt,
Bag‘rin ochar hasratga ayanch.

Izma-izdir iztirob hamroh,
U biz bilan, ketmaydi sira,
Adashgan bir telbaday gumroh,
Samolarda suzar oy xira.



* * *

Qo'shiqqa o'xshaydi shoshqin jilg'alar,
Xudoyim yaratgan shundayin bekam.
Faqat har lahzaning ichinda oqar,
Ko'rinmas dard ichra pinhona malham.

Subhi shom tilagim o'lmasin ko'ngil,
Mayli, daryolarga qo'shilib oqsin.
Ishqqa sodiqliging izhor et, ey dil,
Saodat quyoshi, bas, kulib boqsin.

Mardona yashagin, ko'ksing chok etib,
Shavqu zavqqa mastona qalbing.
Dilingdan jamiki armonlar ketib,
Sig'masin she'r neki, doston-a qalbing.

Hech kimning oldida egma aslo bosh,
Egilsang sajdaga egilgin faqat.
Har qancha bo'lsa ham garchi bag'ritosh,
Seni yengolmasin taqdir beshafqat.

Mardona bo'lgaysan ishq maydonida,
Fido qil muhabbat uchun joningni.
Farhodday dunyoning shu ayvonida
Kuylasin avlodlar sening shoningni.



* * *

Xotiraning xayol eshigi
Ochiladi yana noxosdan,
Yana g'urg'ur shamol kechagi,
G'ussa izlar o'zg'ur ko'ngildan.

Ketayapsan o'sha qirg'oqqa,
Oqayapti xayolday daryo.
Oy suzadi uyg'un bir kecha,
Bu kech tanho – behush, beriyo...

Junjikan! Yuksakdir sovuq,
Pastga intil, dushvor yuksaklik.
Yuksalikka axir daxling yo'q,
Yulqib bosh tiq pinjingga, valek...

Uf tortadi, lek yurak bedog',
Jozibali tilsimli zuruf.
Aql yetmas – tig' ustida tig',
Arosatda kalid, sir-quluf...



* * *

G'arib bu makonda juda ham yakrang,
Toriqdim, do'stlarim, juda toriqdim.
Holim tang, asabim juda ham tarang,
Kengliklar, men sizga juda zoriqdim.

Daf'atan xayoldan bog'lab qo'sh qanot,
Lochin kabi shiddat bilan ucharman.
Kengliklar bag'rida men uchun najot,
Kengliklar, men sizni yonib qucharman!



* * *

Tinchgina g'ussani ichinda cho'kdim,
Tashimda bir go'zal zulmat evrildi.
Dardlarim bir chinor qoshida to'kdim,
Hasratim quvonchga nogoh chevrildi.

Yuragim o'rtaydi, tilaydi ta'bir,
Xasta ko'nglimdagi mavhum alamlar.
Bu dardlar tobora kabirdan-kabir,
Ojiz ta'rifga barcha qalamlar.

Bezovta xayollar og'ushida mast,
Yo Rabbim, har amring juda ham puxta.
Hukmini o'tkazar taqdir zabardast,
Taqdirki, baxtsizlik va baxt omuxta...

Voh, yana ko'hna ishq o'rtadi beman,
Metin iroda ham bir mo'rt navdadek.
Bemisl tog' kabi hech yo'qlamaysan,
Nido ber, bo'lmasa ketgum bedarak.

Koshki bir hajrga yetsa ming toqat,
Ko'tarib falakka uchsang o'lguncha.
Ishqning tovoniga surtsang marduming,
Naqsh bo'lib qolsa bir qaro yer uzra...



* * *

Yuragimda ming bitta alam,
Yuragimga ming bitta armon.
Ojiz davosiga bor olam,
Dardlarimga darmon yo‘q, darmon.

Bulutlar ham rangpar va xira,
Ravshanlikni ko‘ngil sog‘inar.
Xayollar tinch qo‘ymaydi sira,
Xayolimga hatto dog‘inar.

Bezovta bu dahri dun ichra,
Axtaraman dardimga darmon.
Xayollarim tinch qo‘ymas sira,
Faqat armon, nasibam armon.





BOLALIGIM

Asriy sharob singari go‘yo,
Xotiralar mast qilar meni.
Tuyuladi misoli ro‘yo
Bu dunyoning bo‘yi va eni.

O‘tmishimga tashlayman nigoh,
Bolalikka nogoh qaytaman.
Bolaligim bamisoli shoh,
Dardlarimni unga aytaman.

Bolaligim sog‘inmay nechun,
Bolaligim g‘oyat beg‘ubor.
Ko‘rmadim hech u kabi ochun,
Bir ochunki, inmagan g‘ubor.

Tavob qilib qayta va qayta,
Qaytgim kelmas bu yurtidan zinhor.
Ayo do‘stlar, nimasin aytay,
Bolaligim bezavol bahor.



* * *

Men yurak to‘kay jon urib,
Mehr iplari chiyralsin.
To‘xtamasin mehr mudrab,
Mayli, aql ming adashsin.

Tuyg‘u bog‘i yashnasin xo‘p,
Bir kun ketsak so‘zlar ular.
Qadr guli ochilsin ko‘p,
Bizdan qolsa shular qolar...

Farmoniga shaydir, qismat,
U ne istar, kim biladi?
A‘lodan a‘lodir himmat:
Ishq yetkazgan talofati...



* * *

Halpinadi yurak betinim,
Lahzalarni ichadi suvday.
Tashlab ketar bir kun lahza ham,
Teranligi qolar lek kuyday.

Shovqindaman, atrofim bo'hron,
Qamchilaydi ayovsiz ruhim.
Yuragimni o'rtaydi armon,
Armon zavqu shavqu shukuhim.

* * *

Ishqu muhabbatning sahnida
Farhod kabi chog'im bor mening.
Ming bir armon ishqning lahnida,
Yuragimda dog'im bor mening.

Chorlayman ishq ma'budasini:
Dardlarimga malham bo'lib kel.
Kuylab ishqning qasidasini,
Baxtu iqbol bilan to'lib kel.

Ishq yo'lida bo'lmoqday qurbon,
Bu dunyoda savob yo'q, savob.
Hayqirsam ham ming bora chunon
Da'vatimga javob yo'q, javob.



* * *

Do'stu yorlar bisyor va lekin,
Topilmaydi samimiy hamdam.
Dardu g'amga sekin va sekin,
Ko'nikadi har qanday odam.

Umrin bo'yi kezib olamda,
Topmadim bir baxtiyor inson.
Hatto juda ham boy odam-da
G'ariblarday armon ko'p, armon.

* * *

Osmon to'la yorqin yulduzlar,
Munchoq kabi ko'rinur ko'zga.
Har biri bir rivoyat so'zlar,
Rivoyatki, sig'maydi so'zga.

Men-chi, yulduzlardan narida,
Xayollarim parishon hamon.
Chirpanurman o'ylar qa'rida,
Begonaday makonu zamon.

Bormi bizday g'arib notavon,
Go'yo hech kim ilmaydi ko'zga.
Yuragimda beadam armon,
Ming bir armon, sig'maydi so'zga.



* * *

Choru nochor chiqarsan yo‘lga,
Dardi hijron g‘oyat beomon.
Ololmaysan o‘zingni qo‘lga,
Yov singari zamonu zamon.

Hijron dardi bag‘ringni o‘rtar,
Visol tilar yuraging, visol.
Karvon kabi kunlaring o‘tar,
Hamon armon visol betimsol.





* * *

...Bu bog‘lar ne bo‘ldi?
...Ketti Barhaqlar!
G‘amgindir abrlar – tilsiz sukunat –
Og‘ochga osig‘lig‘ g‘amboda yillar...

Zaminga termulib qoldi har ko‘ngil:
Axiri, ustma-ust keldi sitamlar!
Payhondir kechagi shodumon ko‘ngil,
Osmon ham, zamin ham turar abadul!

Faqat Sen boqiysan:
Men o‘tguvchiman!
Afsus, omonlik yo‘q:
Yo‘q bir himoyat!

Tuyg‘uni so‘ndirar afsun bor,
Afsun!..
Har na o‘lim bordir,
O‘lim bor,
O‘lim!



* * *

Daryolarda ohang sirg'alar,
G'imirladi ko'ngilda bir g'am.
Qanday og'ir sensiz lahzalar,
Qotib qolgan ko'zimda nam ham...

Dardi hijron, bermagin taskin,
Seni bilan birgaman axir,
Hayotimni juda ham miskin,
Bag'ishladim senga bir umr.



* * *

Diloynamga urildi yoshing –
Yomg‘ir bilan keldim yuzma-yuz.
Eslatadi misoli basting,
Yomg‘irdayin, axiri, izziz.

Ko‘rinadi dunyo tangu tor,
Kimlargadir, holbuki, kengdir.
Achchiq sukut yetaklar bemor,
Xayoling-la holu jon og‘rir.

Shovqin solar daryo uyqusiz,
Sukunatni ilmaydi nazar –
Yurak ichra aylanar tilsiz,
Bilmayman, u nedir, alhazar?

Yomg‘ir-yomg‘ir yog‘asan mudrab,
Yuragimda hasrat beomon.
Izg‘irinda yo‘qoldim to‘zg‘ib,
Yoqa yirtib yig‘laydi osmon.



* * *

Ko'ksim ichradir
Zamir yashirin!
Kulbam toriqdim,
Hayronman, orziqib.

Shu zaylda bir
Parvoz qilar u
Olammi buzib
Shu tarzda xayol.

Og'ir keldi –
Kecha og'ib
Asig' sukut,

Kech uyg'ondi
Dov-daraxtlar
Ichib sukut.

Yetti qudum
Bosolmadim
Yetib sukut...



Ketti oxir
Armonlarim
Darig‘ sukut.

Toqatlarim
Ayroliq ham
Og‘riq sukut...

* * *

Bu kun meni yo‘latmas dunyo,
Yuragimda vasling armoni.
Tutqun zindon ichra zim-ziyo –
Bo‘lding axir aldoq qurboni.

Ayt, meningsiz nelarga yetding,
Nahot shundoq qaqshatib tonding?!
Qay bir tomon bosh olib ketding,
Qay bir go‘sha ichra uyg‘onding?!

Muncha qattiq bo‘lmasa bag‘ring,
Ich-ichingda kin-alam bormi?!
Tashqariga boqgil nigohing –
Mensiz dunyo senga ham tormi?



* * *

G'am bo'zarar shafaq misoli,
Yurak notinch.
Aftodahol kamina holi,
G'amgin sevinch.

Lochin kabi talpinar ruhim,
Kishan poyida.
Samovotning zavqu shukuhim
Yulduz-oyida.

MEHR VA MEHROB

Har go'shada ne ajab,
Baxtu iqbol yo'qolsa;

Mehrobni boylik bejab,
Mehr ko'chada qolsa...

* * *

Tushimga kirarsan oydayin go'zal,
Bir boqib ko'nglimni olarsan san-da.
Tirnar yuragimni ayovsiz shamol,
Nahotki qasding bor, qasding bor man-da?

Nima sen, meni hech sevmaganmiding?
Ko'klarga termulib yoqam ushlayman,
Shunchalik yuragi bag'ritoshmiding,



Yolg'onlar bilan men ko'nglim
xushlayman.

Borliging yo'qmidi dunyoga hali,
Hali tug'ilmagan ishqmi bu armon.
Umrinning ayni kech kuzak mahali,
Netar yuragimga bo'lsang sen darmon.

Netar yuragimga bo'lsang sen darmon...

* * *

G'amxona falakning to'ymay mayiga,
Xayyomning qadahin so'raysan, nechun?
Bag'ringni qon qilgan hijron nayiga,
Bilmadim, nelarni o'raysan, nechun?

Go'yo bu fitnadan qo'zg'alar shamol,
Ruhimni ermaklar bor erki bilan.
Butunlay boshqacha g'alayon a'mol,
O'zligim tiklaydi, nahot qaytadan?!

Sen kimga keraksan, to'kilma, ey dard,
Shunday ham dunyoda qora kasratlar,
Aslo vafo qilmas bu taqdir nomard,
Mudom hamrohimiz dardu hasratlar.

G'amxona falakning to'ymay mayiga,
Xayyomning qadahin so'raysan, nechun?
Bag'ringni qon qilgan hijron nayiga,
Bilmadim, nelarni o'raysan, nechun?



* * *

Har gulning ozori bor,
Chimchir hatto shamol ham.
Har ishning poyoni bor,
Kimlar boshi bo'lmas xam.

Shox-shabbalar bastma-bast,
Yalang bag'ring tiladi.
Tog'laringga qasdma-qasd,
To'fonlar intiladi.

Qaqshar mudom bag'ri xun,
Dami ichiga qaytib.
Jo'rovoz bo'lar mahzun,
Shamol qo'shig'in aytib.



MUNDARIJA

“Ketar dildagi darmon...”	3
“Bulutlarning karvoni og‘ir...”	3

EY SHAMOL, KEL, AVVAL KUZAK SHARHIN QIL

“Xazon lashkarini boshlab keldi kuz...”	4
“Sunbula suvlari tiniq shovullar...”	5
“Daraxtlar g‘ichirlar asabiy...”	6
“Kuz g‘amgin shivirlar behuzur...”	7
“Shamol qo‘zg‘ar atrofni...”	7
“Marvarid donasiday...”	8
“Derazalar ochiladi lang...”	8
“Havo sokinlashar ko‘ngilga botib...”	9
“Uzoqdan ko‘z tutdim kuzakka...”	10
“Qop-qaro tunlarning ichinda nihon...”	11
“Shom tushmoqda – kecha ham yaqin...”	12
“Shamol garchi uvullar...”	13
“Qaqshatar ruhimni turfa hayratlar...”	14
“Yomg‘irli tun daraxtlar mudrar...”	14
“Yana ko‘nglim ichra ming armon...”	15
“Bir g‘arib ko‘rinar bu bog‘ot...”	16
“Izg‘iydi shamolday xayollar...”	17
“Derazamning ortida kuzak...”	18
“Kuz, muncha maftunkor har bir yaprog‘ing...”	19
“Xayolot otiga yana mindim men...”	19
“Kuzak sovug‘i izg‘ir...”	21
“Bag‘rim turfa savdolar siqar...”	22
“Kuzak shamollari izg‘ir sarosar...”	22
“Kech kuz hazin xazonlarida...”	23
“Derazadan qarar bir juvon...”	24

“Daraxtlarning bag‘ri ham pora...”	24
“Adashagan tuyg‘ular tentinar...”	26
“Tus olmoqqa ko‘ngil temtinar...”	26
“Namxush havo ichra zich tuman...”	27
“Sovuq chorbog‘larni chetlab o‘tmadi...”	28
“Shom qoshida egiladi bosh...”	29
“Yarim kecha kezar sukunat...”	30
“Mungday yuragimning soyasin ko‘rdim...”	30
“She‘r yozgim keladi kuzga o‘ranib...”	31
“Sirli xayolotday kuz jilva qilar...”	32
“Chiroy zulmatga to‘la...”	33
“Gezaradi yaproqday labing...”	34
“G‘amgin oqar daryo ohista...”	35
“Tush ko‘rdim men yana kuzak izmida...”	35
“To‘kilish onida daraxtlar mahzun...”	36
“Sovuq qarar kuzning nigohi...”	37
“Bilmadim, nima u ko‘nglingga kelgan...”	38
“Umid shivirlaydi, aslo qo‘ymas tinch...”	39
“Guvullar shamollar shitob-la betin...”	39
“Ey shamol, kel, avval kuzak sharhin qil...”	40
“Kuzak shamollari zabtidan mahzun...”	41
Musavvir kuz...	42
“Kech kirib bog‘larga cho‘kar sukunat...”	43
Tasodif guli...	44
“To‘kilar kech kuzgi yaproqlar...”	44
Shamol qoshig‘i	46
Oq va qora	47
“Shodon kunlaringda qumsab g‘ussani...”	47
“Daraxtlar sarg‘armish shundoq befusun...”	48
“Kun botdi, bor olam sirga ko‘mildi...”	49
“Kashf etar kuzak ham muztar dilimni...”	50
“Yot go‘shada to‘kildi hasrat...”	51
“Sog‘indim hasratni daraxtga singib...”	51
“Ma’yus uchar kuzgi yaproqlar...”	52

“Yuragingni erkalar shamol...”	52
“Kuzakning bag‘rida siqilar yurak...”	54

BOG‘LARGA YANA BIR KUZ YETIB KELDI

“Bizlar ham chiqqandik g‘am tog‘lariga...”	55
Bulturgi kuz...	56
“G‘amning hasratida to‘ydim kuz kabi ...”	56
“Polaponday yurak beqaror...”	57
“Shovullar shamollar betinim...”	58
“Kuz kelyapti xazonlarga to‘yinib...”	59
“Tun sochini oy tarar chog‘da...”	62
“Qo‘llarim barg ichra beshuur...”	63
“Ko‘ngil hayoti xayol...”	64
“Bulutlar ortidan qarayman...”	65
“Kuz yomg‘iri tomchilar asta...”	66
“Parvoz qilar kuz ichra xayol...”	66
“Toqatlari gullagan bog‘da...”	67
“Barakali yoz fasli...”	67
Alvido	68
“Yuragimni o‘rtaydi bir so‘z...”	68
“Issiq damda panohing xayol...”	69
Haqning yo‘li	70
“Daryolar oqib ketar...”	70
“Og‘ib ketdi sirli soylar...”	71
“Naqadar ayanchli so‘zsizlik...”	72
“Egiladi daraxtlar mahzun...”	72
“Goh she‘r bo‘lib og‘adi bag‘ir...”	73
“Dardu hasrat bilan beadam...”	74
“Bog‘da kezarman yolg‘iz...”	75
“Bema‘no qaroshimiz...”	76
Ayroliq	77
“Kunlarimiz tunlar qa‘riga botar...”	78
“Daryolar tinchib yonar...”	78

“Yomg‘irni tingladi bir juvon...”	80
“Bu qanday makonu bu qanday zamon?...”	80
“Bag‘rimda beadam shamol shiddati...”	82
“Sochar tun vahshatini...”	83
“Ichdim g‘ussani beman...”	84
“Teskari aylandi shamollar...”	84
“Avvalimdan xayolday uchding...”	86
“Bog‘lar quruq og‘ochday...”	87
“Kechar o‘ylarim og‘ir...”	88
“To‘srayib qaraydi har daraxt...”	89
“Yomg‘ir ham uzluksiz yog‘moqda...”	90
“Bog‘da yolg‘iz sayr etdim...”	90
“Sinchalab qarama ko‘zlarimga un...”	91
“Sog‘inch yurakka cho‘kdi...”	91
“Yurakka chiqdi dardlar...”	91
“Cho‘kkanida yurak ichra g‘am...”	92
“Nafosatga to‘la keng olam...”	94
“G‘amgin oqar daryo shivirlab...”	94
“Kездim bir kech oydin buloqni...”	95
“Yomg‘ir ichra achchiq iztirob...”	96
“Men tinglarman shamol qo‘shig‘in...”	97
“Shamollar betayanch guvlar falakda...”	97
“Ruh ichra tug‘yona shasht...”	98
“Ketar dildagi armon...”	99
“Mudrar yarim kecha ichinda bog‘lar...”	100
“Yupun kulba uylar ichra xayoling...”	100
“Qabrlar kun sayin o‘sar abrga...”	101
“Kuz yaprog‘i sarg‘ayib uchdi...”	102
“Daraxtlarning bag‘ri qavariq...”	102
“Xazonlar to‘shalgan yer bilan bitta...”	103
“Ko‘nglimdan jamiki armonlar ketib...”	104
“Subhidam daraxtlar egilar ma‘yus...”	104
“Xazonlar lashkarin boshlab kelar kuz...”	105
“Yurak jarohati bitmoqda asta...”	106

“Hademay kuz kelar sarg‘arib...”	107
“Baland tog‘da qor...”	108
“Ko‘nglimga hamohang kuzning navosi...”	109
“Ayroliq yetdimi joningga, jonim...”	109
“Bog‘larni jazira qopladi butkul...”	110
“Qorong‘u kechadir dil mahzun...”	110
Kuz yomg‘iri	111
“Kuz mahzunlik baxsh etar mudom...”	112
“Yomg‘irlar mavsumi boshlandi yana...”	112
“Ufqqa shom cho‘kar asabiy...”	113
“Kuz bog‘larin kezdin darbadar...”	114
Noyabr	115
“Kuz chog‘i tuyg‘ular og‘inar...”	115
“Daraxtlar navdasi yalang‘och...”	116
“Xazonlar ichinda yotar ezgulik...”	116
Kuzgi bog‘lar	118
“Bag‘rim vayron qilar taqdir shamoli...”	119
“Daraxtlar bir g‘amgin shivirlar...”	120
“Sitamlar sochilmish xazon simirib...”	121
“Bog‘larga yana bir kuz yetib keldi...”	121
“Shom cho‘kadi bog‘larga asta...”	122
“Tentirar vujudada adashgan hasrat...”	122
“Daraxtlar barglarin uchirib shamol...”	123
“Bir go‘zaldir qish ham o‘zgacha...”	123
“Bardosh, o‘zingsan suyanch...”	124
“Kuzning qiyog‘ida og‘indi armon...”	126
“Ko‘ngilni bir inja anduh ko‘tarar...”	127
Sentabr	128
“Kuz avvali bag‘irlab bog‘lar...”	129
“Menga bog‘ qo‘ynida kuz chiqdi peshvoz...”	130
“So‘lg‘in nigohlarda hasrat beadam...”	131
“Garchi najot istab domga yo‘liqdim...”	131
“Kuzning g‘amgin xazon bog‘larin kezdin...”	132
“Qaqshatar ruhimni tuz hayratlarim...”	132

“Ko‘nglimni o‘rtaydi bodu xazonlar...”	134
“Dardi hijron bilan tutoqib...”	134
“Xazonlar shitirlar bir hazin...”	136
“Iztirobli kuzning nigohi...”	137
“Muz parchadan to‘qib ro‘molcha...”	138
“Savashdi yurakni momiqday...”	139
“Nihoyat daf’atan o‘nglansa ishim...”	140
“Daryo bag‘rin suv yuvar...”	140
“Yurakka yetishdi zamoniy bir so‘z...”	141
“Holbuki, bexazon bog‘lar bo‘lmaydi...”	142
“Samoga boqarman, cheksiz samoga...”	142
“Yoz oxirlar ko‘zyosh to‘kmayin...”	143
“Yuragimni qopladi bir she’r...”	144
“Quyosh ufq uzra asta qo‘yar bosh...”	145
“Hasratlarga bosh bermas yurak...”	146
“Qor aralash yog‘moqda qayg‘u...”	147
“Yeru osmon sukut bag‘rida vazmin...”	148
“Yuragingni erkalar shamol...”	148
“Yuragimda yo‘q aslo surur...”	149
“Yana o‘sha chinor tagida...”	150
“Siqiladi yuragim goho...”	151
“O, qandayin o‘tdi suronlar...”	152
“Kechadir chaqinlar kuladir...”	155
“Tabiat chohidan chiqolmas hayrat...”	156
“Shamoyillar o‘zgarar har tong...”	156
“Oyoqyalang kezdim bog‘larni...”	157
“Juda ayanchlidir yo‘qolsa zavqing...”	158
“Chalindi go‘yoki qadimiy cholg‘u...”	158
“Sanchildi ko‘z ichra g‘uborlar...”	160
“Chorlaydi betoqat ufq marrasi...”	162
“O‘tib ketdi bari shundayin...”	163
“Tog‘ uzra bulutlar turishin qara...”	164
“G‘ussam sahrosidan o‘tarsan ogoh...”	164
“Yodga tushdi xayoliy bir on...”	165

“Ilohiy visolni qumsaydi ko‘ngil...”	166
“Uvishib og‘riydi yomg‘irda jonim...”	166
Taskin.....	167
“Tun ichra chaqinlar chaqnaydi...”	167
“Qop-qorong‘u yo‘lak boshida...”	168
“Hayratim oshadi daqiqa sayin...”	169
“Oy yuksakda kezar viqor-la...”	169
“Hech zot bilmas, hech zot anglamas...”	170
“Tinching ishq ichra pinhon...”	170
“Olovlandi daxlsiz shafaq...”	173
“Bormi meni o‘zi yo‘llarim...”	174
“Qismat hukmi bizni ayirgan...”	174
“Sog‘inib chiqdim yo‘lga...”	175
“She‘r bilan yo‘g‘rilgan zuvolam mening...”	176
“Yuragimda ming bir dardu g‘am...”	177
Na‘ra	178
“O‘zgacha bir sinoat xayol...”	178
“Shamol uxlab yotar daraxtda sokin...”	179
“Oniy vasl, mangu hijron...”	179
“Shamol xayolimni o‘g‘irlab ketmish...”	180
“Sog‘inch bag‘rimni o‘rtar...”	181
“Yo‘lga chiqdim sog‘inib...”	181
“Tunda nola qilar daf‘atan shamol...”	182
“Charx uradi sharpalar birrov...”	182
“Yo‘lovchiman, mudom ketib boraman...”	183
“Shuur yo‘li faqat bedorlik...”	183
“Buncha achchiq bo‘lmasa hijron...”	184
Seni hech kim eslamas, ammo	184
“Yurakda bir ajib hislar uyg‘ondi...”	185
“Soatlab kutasan ilhom zavqini...”	186
“Shamol muncha uvullar...”	187
“Xayolsiz tatimas hech bir on...”	188
“Ko‘rinmas bir parcha bulut tim...”	189
“Tun ichra yolg‘izlik ajoyib...”	189

“Shoirsan deb aytmagin faqat...”	190
“Tish og‘rig‘i yomon bir og‘rig‘...”	191
“Tozarish onidir ko‘ngil mavjlanar...”	191
“Ma‘nosiz gar so‘zimiz...”	192
Yo‘lsizlik	193
“Bora-bora ketdi imkon ham...”	194
“Kel, oydin yo‘llarni qilaylik orzu...”	194
“Bulutday eriydi iztirob...”	195
“Oy nuriga cho‘milar osmon...”	196
“Daraxtlar xo‘p sarg‘armish...”	198
“Guvillaydi, guvillar shamol...”	199
“Xayol ummonida bo‘ronu shiddat...”	199
“O‘ynar shamol ko‘nglim – zulfing misoli...”	200
“Yuragimni dardu hasrat chulg‘ab oldi...”	201
“G‘amlar quchog‘ida yetdim voyaga...”	202
“Huvullaydi ko‘ngil bog‘lari...”	203
“Nahotki arosat inson qismati?...”	204
“Og‘ir juda ko‘nikib yashash...”	204
“Tikilarman yuragim jo‘shib...”	205
“Bepoyon hududni qoplagan sukut...”	206
“Guvullar shamollar shitob-la betin...”	206
“Shamol shiddat bilan esar har oqshom...”	207
“Farhodday muhabbat sarbozi hamon...”	208
“Kun botar tentirab yurdim sharpaday...”	208
“Bilmadim, nima u ko‘nglingga kelgan...”	209
“Oy ham tun pardasi ichinda g‘arib...”	210
“G‘am bilan yuragim yuksalar...”	211
“Ko‘ngil minba‘d ishq ichra kuysa...”	211
“Oppoq to‘lqin mavj urar bunda...”	212
“Qorong‘u kechaning botini sirli...”	213
“Yana ko‘ngil g‘amlarga to‘ldi...”	213
“Qanday go‘zal, qanday mastona...”	214
“Qushlar uchar ilhom baxsh etib...”	214

“Kapalak quchadi maysani...”	215
“Izg‘ir iztirob hamroh...”	216
“Tashqarida shovullar soylar...”	216
“Yurakka cho‘kmoqda g‘am durdday...”	217
“She‘r tug‘ilar nahot armondan...”	218
“Bulutlar g‘ussaga to‘lib toshgandir...”	219
“Serhavas erurman ishqqa men yomon...”	220
“Uchmoqda osmonda turna galasi...”	220
“Keldim bag‘ringizga, ey suluv soylar...”	221
“Xayolimning gulshanida bir gul bor...”	222
“Uzilgan kechaning torlari...”	222
“Kutaverib toldi ko‘zlarim...”	224
“Ko‘zlarimga quyilar olam...”	224
“Qushlarning chug‘uri uyg‘otar...”	226
“Shodlikka aralash qayg‘ular...”	227
“Ohang oqar vazmin daryoday oqib...”	227
Hajr yo‘llari.....	228
“Hayrat yuragimni tark etmas bir zum...”	229
“Telba shamol shoshadi...”	229
“Yolg‘izdan ham yolg‘iz jonu jahonim...”	230
“Baxt oshkoro, pinhon erur dard...”	231
“Yana yog‘a boshladi yomg‘ir...”	232
“Bir g‘aroyib ko‘rinar olam...”	232
“Baland osmon ostida jonim...”	233
“Osmonda ko‘rinmas bir parcha bulut...”	233
“O, qanchalar achchiq bir holat...”	234
“Goh she‘r bo‘lib mavjlanar bag‘ir...”	235
“Xayollar tun ichra yashirin...”	236
“Yuragimda g‘am-alam...”	236
“Shoirni bilmadi u qora quzg‘un...”	237
“Ana, yomg‘ir yog‘a boshladi...”	238
“Shamollar aylanar boshimda...”	238
“Yuduzlar muncha ko‘p osmonda...”	239
“Nadir izlab chiqdim toshu tog‘larga...”	241

“Seni hech kim eslamas, ammo...”	242
“Quyuq tuman ichinda sarson...”	242
“Oy yuksakda kezar viqor-la...”	243
“Xasta yuragimda azob-iztirob...”	244
“Yuragimga o‘q yog‘dirar yomg‘irlar...”	246
“Chang to‘zonda burqsib yashading...”	247
“O‘rtada turli xil ziddiyat...”	247
“Cheksizlik kasrida yuragim notinch...”	248
“Bir kech uchdi ruhim chaqmoqday...”	249
So‘z aytish navbati	250
“O‘sib borayotir bag‘rimda armon...”	251
“Bir kuni kelar...”	252
“Jon qushi yozar qanot...”	253
“Kulrang bulut kezinadi mo‘l...”	254
Sog‘inchch	255
“Qay zamon yo‘qolgan quvonch...”	256
“Mudrar yurak qa‘rida armon...”	256
“Dunyoni dema zindon...”	257
“Chorasizman, bilmayman nechun...”	258
“Dilda borin aytayin sizga...”	259
“Qaylarga dir juda shoshib borar oy...”	260
“Yurak ichra toza dog‘...”	261
“Yanar oshiq ishqni behavon...”	262
Xotira	263
“Ko‘z ochdi cheksizlik ko‘nglimda...”	264
“Cheksiz osmon bo‘zargan rangi...”	264
“Kutdim ko‘p ijodiy lahzani...”	265
“Intiq termulaman olis ufqqa...”	266
Dunyo	267
“Xayollaring nogoh buzilib...”	268
“Xayollar komiga ko‘mib qumsab g‘ussani...”	268
“Shovqinzordan bezordir yurak...”	269
“Zuhroday uzoqlab ketdi bu ruhim...”	270
“Oy balqiydi bulutlar ichra...”	270

“Yor firog‘i qilmadi xafa...”	271
“Uvlaydi qirg‘oqlar betinim...”	272
“Yurak ichra hasratlar cho‘kdi...”	272
“Ko‘ngilda bir olam hasratim...”	273
“Nimtalaydi bag‘rimni g‘amlar...”	274
“Shamol xayolimni o‘g‘irlab ketmish...”	275
“G‘am kechadir, lekin sezmadim...”	276
“Yuragim ichida...”	277
“Issiq kun, sukunat-da...”	278
“Besukun davronda vafo bor imkon...”	278
“Indamay turar jim jumlai jarror...”	279
“Qay yerlarga keldim adashib...”	279
“Bulutlar osmonda suzar sarosar...”	280
“Tun bo‘yi to‘zg‘idim g‘amning iznida...”	280
“Intikadi yurak noxosdan...”	281
Xayol.....	282
“Beomon zarbadan yurak zirillar...”	283
“To‘ldi ko‘ngil kechib anduhlar...”	284
“G‘am ichra suzadi bu ko‘ngil...”	285
“Naqadar ojizman xok kabi og‘ib...”	285
“Ketarsan bir kuni barchasin qo‘yib...”	287
“O‘chakishdi ko‘ngil g‘amlarga...”	287
“Umidim gullarin so‘ldirma, gulim...”	288
“Tevarakni tun dudi qoplar...”	289
“Chalindi chorasiz ojiz oyog‘i...”	291
“Yurak ichra bordir bir tugun...”	292
“Sig‘may qoldi ko‘z ichra ochun...”	293
“Tumanlar sachraydi bosh uzra...”	294
“Bema‘no so‘zlarimiz...”	294
“Ba‘zan, chalamiz qarsak...”	295
“Dilda borim aytayin bugun...”	295
“Ko‘cha-ko‘ylar uzra soyalar kezar...”	296
“Balolar begumon kelgaydir...”	296
“G‘ussa bilan tirik yuragim...”	297

“O‘tarsan g‘ussam sahrosidan bir kun...”	298
--	-----

YANGI SHE‘RLAR

“Tashna yurak ichra sog‘inch daf‘atan...”	299
“Qor yog‘ar qoraygan yer uzra...”	300
“Qish oxir, ko‘klamni sog‘inar ko‘ngil...”	300
“Ko‘klam kelib og‘indim...”	301
“Osmon to‘la sanoqsiz yulduz...”	302
“Har narsani g‘ajishga hamkor...”	303
“Bog‘lar ichra darbadar shamol...”	304
“Manzil olis, yo‘l yo‘qotdim...”	304
“Yashillikka burkandi jahon...”	305
“Ko‘klam xobgohidan uyg‘onar asta...”	306
“Bahor buncha farahbaxsh fasl...”	307
“Ko‘klam-da o‘tmoqda yana qaytalab...”	308
“Yomg‘ir yog‘ar bahor chog‘i...”	309
“Yoz kechasi bog‘da salqin shamol yelar...”	310
“Yoz kuni issiq baland...”	311
Saraton	314
“Mudrar bog‘lar bag‘rida sukut...”	314
“Boshim uzra dardu g‘am...”	315
“Dunyo, zindoningdan otildim...”	315
“Yana xayol olamidaman...”	316
“Kun botmoqda azal izmida...”	316
“Dengiz uzra to‘lqin chayqalar...”	317
“Juda go‘zal qish ham o‘zgacha...”	318
“Sen-la baxtim bo‘lmadi to‘kis...”	318
“Bahor nazmi ko‘ngilni tirnar...”	319
“Bahor yomg‘iriga monand ishq zavqi...”	320
“Kездim bir kech oydin buloqni...”	321
“Ko‘zimga cho‘kmoqda yozning nafasi...”	322
“Umid shivirlari ko‘nglim tinch qo‘ymas...”	323
“Ko‘krak qafasimiz yurakka qalqon...”	324
“Dunyo ichra bir xasday...”	325

“Qo‘y, yig‘lama! Bag‘rim qilma xun...”	326
“Bulutlar bor kuchin ko‘rsatar bu kech...”	327
“Qop-qaro tun kabi yoprildi hasrat...”	328
“Yoz faslida polizlar saxiy...”	328
“G‘am-hasratga to‘lar yuragim bu kech...”	329
“Kun botdi, daraxtlar sirga ko‘milar...”	330
“Kunlar tun qa‘riga botadi sho‘ng‘ib...”	331
“Zaminning bag‘rida otashnafas yoz...”	332
“Toriqdingmi huzn kechada?...”	333
“Dalalarda issiq jazira...”	334
“Soch uzra sochilar qay qish qorlari...”	335
“Yomg‘ir yog‘ar chayqab vujudni...”	336
“Ko‘zimga nuradi oppoq bulutlar...”	336
“G‘ayyur qarashlardan egiladi bosh...”	337
“Charchoq bosibdimi muzdek tanimni?...”	338
“Maftuna aylamish mehring quyoshi...”	339
“Hech so‘nmasin mehring begumon...”	340
Hayrat.....	341
“Balki biz ham sevinchga to‘lib...”	342
Tasalli.....	343
“Tentirar vujudda adashgan qonlar...”	344
“Xayol edi, bari bir ro‘yo...”	344
“Bir miskin xayoliy xotirjam...”	345
“O‘tib ketdi bari shundayin...”	345
“G‘amgusor yo‘lakni bosgan qor...”	346
“Bolalik ham o‘tdi shamolday...”	348
“Ko‘ngil ichra surur yuqmadi...”	349
“Qandayin mahzun bir holat bu?...”	350
“Qalbimiz torlarin birma-bir uzar...”	350
“Ko‘ngil anduhlarin ko‘mmoq istayur...”	351
“Yomg‘irda simillar daf‘atan jonim...”	351
“Ruhimda o‘zgacha shiddatu tug‘yon...”	352
352“Olis-olislarga uchsa turnalar...”	353
“Hijronning yo‘lida tinib-tinchimay...”	354

“Yuragimda beadam anduh...”	355
“Shuur yo‘li faqat bedorlik...”	355
“Yurak ichra mo‘raladi qor...”	356
“Qo‘shiqqa o‘xshaydi shoshqin jilg‘alar...”	357
“Xotiraning xayol eshigi...”	358
“G‘arib bu makonda juda ham yakrang...”	359
“Tinchgina g‘ussani ichinda cho‘kdim...”	360
“Yuragimda ming bitta alam...”	361
Bolaligim.....	362
“Men yurak to‘kay jon urib...”	363
“Halpinadi yurak betinim...”	364
“Ishqu muhabbatning sahnida...”	364
“Do‘stu yorlar bisyor va lekin...”	365
“Osmon to‘la yorqin yulduzlar...”	365
“Choru nochor chiqarsan yo‘lga...”	366
“...Bu bog‘lar ne bo‘ldi?...”	367
“Daryolarda ohang sirg‘alar...”	368
“Diloynamga urildi yoshing...”	369
“Ko‘ksim ichradir...”	370
“Bu kun meni yo‘latmas dunyo...”	371
“G‘am bo‘zarar shafaq misoli...”	372
Mehr va mehrob	372
“Tushimga kirarsan oydayin go‘zal...”	372
“G‘amxona falakning to‘ymay mayiga...”	373
“Har gulning ozori bor...”	374

Adabiy-badiiy nashr

MANZAR ABDULXAYR

K U Z A K

She'rlar

Muharrir: *Azamat Atayev*

Tex Muharrir: *Faxriddin Zoyirov*

Dizayner: *Bexzod Haydarov*

“Yashil yaproq nashr-matbaa uyi”

Toshkent – 2024



Narshirga chop etishga ruxsat etildi 23.02.2024-y.
Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. "Times" garnituras.
Ofset bosma. Nashr b.t. 22,5. Hajmi b.t. 24,5
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 113.

«Yashil yaproq nashrriyoti» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yakkasaroy tumani,
Xushtepa ko'chasi, 6-uy. Tel.: +998 77 016-66-61